


ISBN: 978-93-72326-12-7

THE EFFECT OF VIRTUAL SOCIAL SPACE THREATS ON YOUTH'S WORLD VIEW



Author:

DILNOZA MUXIDDINOVA

Published by

Novateur Publication

466, Sadashiv Peth, M.S.India-411030
novateurpublication.org

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

DILNOZA MUXIDDINOVA

VIRTUAL IJTIMOIIY MAKON TAHDIDLARINING YOSHLAR
DUNYOQARASHIGA TA’SIRI

Guliston – 2023

D.Sh.Muxiddinova. Virtual ijtimoiy makon tahdidlarining yoshlar dunyoqarashiga ta'siri. Monografiya. Guliston sh. 2023. - 125 b.

Bugungi kunda jamiyatimizda komil insonni tarbiyalash, xalq va millat ma'naviyati va ma'rifati masalalarida dunyoqarashini shakllantirish, ta'lim-tarbiya, axloq normalarini vujudga keltirish alohida o'rin tutadi. Mustahkam iroda va dunyoqarashiga ega bo'lmagan yoshlarimiz goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi turli mafkuraviy ta'sir va tazyiqlarga bardosh bera olmaydi. Mamlakatimizda global dunyoga tizimli ravishda transformatsiyalashib borishi birinchi navbatda mamlakat yoshlari va ularning jamiyatga ijtimoiylashuvi bilan ham ahamiyat kasb etadi. Ilg'or va ta'sirchan elektron texnologiyalarning kashf etilishi o'z navbatida axborotlashgan makonni shakllanishga zamin yaratadi. Bu jarayonda yoshlarning o'z oldilariga qo'ygan vazifalari, axborotlashgan jamiyatda axborot almashinuvi madaniyatini shakllantirish masalalari shart-sharoitiga moslashuv va istiqboldagi erishilishi ko'zlangan maqsadlar sotsiologik nuqtai nazardan ilmiy tahlil va bashorat qilinishi lozim.

Ushbu monografiya oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda Virtual ijtimoiy makon va axborotlarning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri masalasining ilmiy tahlili berilgan bo'lib virtual ijtimoiy makon tahdidlari vaziyatida jamiyatning axborot-psixologik himoyasini ta'minlash masalalari ko'rib chiqilgan.

Monografiya Guliston davlat universiteti Ilmiy Kengashi tomonidan (2023 yildagi, № ...-sonli bayonnoma) nashrga tavsiya etilgan.

Сегодня в нашем обществе воспитание совершенного человека, формирование мировоззрения в вопросах духовности и просвещения народа и нации, создание образования и нравственных норм занимают особое место. Наша молодежь, не обладающая сильной волей и мировоззрением, не может противостоять различным идеологическим воздействиям и давлению, иногда явным, а иногда и скрытым.

Планомерное преобразование нашей страны в глобальный мир важно, прежде всего, с молодежью страны и ее социализацией в обществе. Открытие передовых и эффективных электронных технологий, в свою очередь, создает основу для формирования информационного пространства. В этом процессе задачи молодежи, адаптация к условиям формирования культуры информационного обмена в информационном обществе, а также цели, которые предстоит достичь в будущем, должны быть научно проанализированы и спрогнозированы с социологической точки зрения.

Монография предназначена для профессоров, научных работников, независимых исследователей и студентов, работающих в системе высшего образования, в ней представлен научный анализ влияния виртуального социального пространства и информации на мировоззрение молодежи, рассмотрены вопросы информационно-психологического обеспечения. защита общества в случае угроз виртуального социального пространства.

Монография рекомендована к изданию Ученым советом Гулистанского государственного университета (протокол №... от 2023 года).

Today in our society, the education of a perfect person, the formation of a worldview in matters of spirituality and enlightenment of the people and the nation, the creation of education and moral standards occupy a special place. Our youth, who do not have a strong will and worldview, cannot resist various ideological influences and pressures, sometimes obvious and sometimes hidden.

The systematic transformation of our country into the global world is important, first of all, with the country's youth and their socialization in society. The discovery of advanced and efficient electronic technologies, in turn, creates the basis for the formation of an information space. In this process, the tasks of young people, adaptation to the conditions of formation of a culture of information exchange in the information society, as well as the goals to be achieved in the future, must be scientifically analyzed and predicted from a sociological point of view.

The monograph is intended for professors, researchers, independent researchers and students working in the higher education system; it presents a scientific analysis of the influence of virtual social space and information on the worldview of young people, and addresses issues of information and psychological support. protection of society in case of threats to the virtual social space.

The monograph was recommended for publication by the Academic Council of Gulistan State University (protocol No.... of 2023).

Mas'ul muharrir: Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent D.E.Toshtemirov

Taqrizchilar: Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

dotsent D.R.Turaeya

Psixologiya fanlari nomzodi, professor M.X.Xolnazarova.

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

dotsent U.U.Shukurova

Guliston. GulDU. 2023.

KIRISH

Jahonda keskin iqtisodiy raqobat, mafkuraviy qarama-qarshilik, axborot xurujlari avj olayotgan sharoitda yoshlar dunyoqarashiga salbiy ta'sirlarning psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, virtual olamga nisbatan tanqidiy dunyoqarashni shakllantirishning muhim ijtimoiy-psixologik masalalari dolzarb ahamiyatli bo'lib qolmoqda. WeAreSocial tahlil agentligi va GlobalDigitalga oid 2018-yil taqdim etilgan ma'lumotlariga ko'ra¹, butun dunyoda Internetdan foydalanuvchilar 4 milliarddan ortiq kishini tashkil etgan. Axborot makonida yoshlar ongini salbiy axborotlar bilan zararlanishiga nisbatan "immunitet"ni muttasil oshirib borish, ular tafakkuri va dunyoqarashini kengaytirish orqali axborotga nisbatan immunitetini kuchaytirish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy muassasalarida yoshlarning ijtimoiy makon tahdidlarining yoshlar dunyoqarashiga ta'siri kishilar o'rtasida xabar yetkazishni ta'minlashda internet va axboriy aloqa tizimlariga oid ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa toifa axborotlarga bo'lgan talablarning ortishi mazkur sohalarda to'plangan va taqdim etilayotgan axborotlarning yoshlar tomonidan o'zlashtirilish darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Bu borada inson va jamiyat munosabatlarida axborot olish imkoniyatining keskin o'shishi, ijtimoiy-texnikaviy rivojlanish bilan ijtimoiy-siyosiy rivojlanish o'rtasida mutanosiblikning muqarrar mavjud bo'lishi tufayli virtual ijtimoiy makon tahdidlarining yoshlar dunyoqarashiga ta'sirini aniqlash dolzarb ahamiyatli muammolardan bo'lib qolmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda virtual olamning salbiy oqibatlarini bartaraf etish masalalariga jiddiy e'tibor berilib, Yangi O'zbekistonda jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalash, an'anaviy qadriyatlar asosida tarkib toptirish bo'yicha zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: "... yagona davlat siyosatini yoshlar kelajagiga yo'naltirish orqali ularning salohiyatini qo'llab-quvvatlash, kelajagi uchun ishonchini

¹ <https://www.rtf-mirea.ru/jour/article/viewFile/160/160>

oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda...”². Bunda virtual olamning faol foydalanuvchisi bo‘lgan yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda inson qadr-qimmatini ustun qo‘yish ustuvor ahamiyat kasb etadi: “... biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda...”³ kabi konseptual yondashuv yoshlarning dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan virtual ijtimoiy tahdid manbalarini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borish uchun zarur asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PF-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmonlar, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, Qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

O‘zbekistonlik psixologlardan S.N.Arifxanova, N.M.Dolimova, I.I.Raximova, L.A.Nigmatulina, S.B.Shukurov, S.Sharapova, A.Xusanov va boshqalar tomonidan mazkur masalaga oid tadqiqotlar olib borilgan. Ularda asosiy e’tibor kompyuter o‘yinlariga tobelikning bola psixik taraqqiyotiga salbiy ta’siri, kompyuter o‘yinlariga tobe o‘smirlarning psixologik diagnostikasi va korreksiyasi xususiyatlari, kompyuter o‘yinlariga tobeligi mavjud o‘smirlarda bezovtalik va agressiyaning oshishi, kompyuterga tobelikning shaxs xarakterologik xususiyatlariga ta’siri masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 3 августдаги 490-сон «Вояга етмаганларга ижтимоий-ҳуқуқий ёрдам кўрсатишни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори/ <https://lex.uz/docs/5550539>.

³ Мирзиёев Ш. Жисмоний ва маънавий етук ёшлар – эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суянчимиздир/Халқ сўзи. 2017 йил 1 июль.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.A.Avetisova, Y.I.Alekseyeva, O.N.Arestova, L.N.Babinina, E.P.Belinskaya, A.V.Gogoleva, A.E.Jichkina, N.V.Koritnikova, V.A.Loskutova I.N.Rozina va boshqalarning ishlarida yoshlar dunyoqarashiga kompyuterning ta'siri, internetdan foydalanuvchi yoshlar ongiga ijtimoiy tahdidlar, internet-tobelikning ijtimoiy-psixologik sabablari, internet-aloqalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, internet sababli dunyoqarashida yuzaga keladigan internet-tobelikning ijtimoiy omillari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan A.Goldberg, D.Greenfield, M.Griffiths, J.Grohol, R.Davis, A.Hull, J.Morehen-Martin, K.Montage, D.Tsuss, G.Ferraro, K.Rodgers, K.Surratt, K.Yang, N.A.Shapira va boshqalar tomonidan internetga tobelikni keltirib chiqaruvchi omillar, ularning turlari, internetga qaramlikni aniqlash va uning profilaktikasiga oid ilmiy izlanishlar olib borilgan.

yoshlar dunyoqarashiga virtual makonning ta'sir darajasi "tobelik-mustaqillik", "muloqotchanlik-yopiqlik", "kurashni qabul qilish", "kurashdan qochish" xususiyatlarini xulqda integral namoyon bo'lishi tufayli shaxsning o'zi haqidagi tasavvurlariga bog'liq ekanligi asoslangan.

yoshlar dunyoqarashiga virtual makonning ta'siri natijasida o'ziga va o'zgalarga emotsional munosabat, mantiqiy fikrlash, maqsadga intiluvchanlik xususiyatlarini dinamik tarzda ifodalanishi tufayli shaxs yo'nalganligi va qadriyatlar tizimining transformatsiyalanishi dalillangan.

yoshlarning internet resurslaridan foydalanishlarida o'zini qadrlash, muloqotga o'z pozitsiyasini qo'ya bilishi, o'zini va atrofdagilarni qabul qilishi xususiyatlarini xulqda nomoyon bo'lishi tufayli hissiy emotsional ehtiyojlarning ustuvor xarakatlariga ega ekanligi dalillangan.

ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining ehtiyojlari differentsiatsiyasiga ko'ra virtual makon ma'lumotlarini qabul qilishda o'zi haqidagi tasavvurlarni ustuvorligi shaxs dunyoqarashining refleksiv jihatini rivojlantirishning zaruriyati isbotlangan hamda dunyoqarash turlari asoslari toifalashtirilganligi va aniqlanganligi ushbu monografiyaning yaratilishiga zamin bo'ldi.

I. BOB. VIRTUAL IJTIMOIIY MAKON TAHDIDLARINING YOSHLAR DUNYOQARASHIGA TA'SIRI MASALASINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1§. Virtual ijtimoiy makon va axborotlarning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri masalasining ilmiy tahlili

Komil insonni tarbiyalash xalq va millat ma'naviyati va ma'rifati masalalarida dunyoqarashini shakllantirish, ta'lim-tarbiya, axloq normalarini vujudga keltirish, alohida o'rin tutadi [94].

Mustahkam iroda va dunyoqarashiga ega bo'lmagan inson goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi turli mafkuraviy ta'sir va tazyiqlarga bardosh bera olmaydi. Dunyoqarashning shakllanishi masalasi Sharq mutafakkirlarining ham asosiy e'tiborida turgan asosiy masalalardan hisoblangan.

Islom siyosiy ilmining asoschisi sifatida e'tirof etilgan, insoniyat dunyoviy fanlari xazinasiga qo'shgan hissasi evaziga "Muallim as-soniy" nomini olgan Abu Nasr Forobiy siyosiy qarashlari negizini "inson – davlat – ma'naviyat" uyg'un uchligi tashkil etadi, uning izlanishlari siyosiy voqelikda dunyoqarashning rolini izohlashga bag'ishlanadi. Ma'lumki, Abu Nasr Forobiyning "shaharlar tasnifi" ta'limotida dunyoqarashning tadrijiyati tasviri berilgan hamda dunyoqarash muayyan hayot tarzini shakllantirishi haqida xulosa chiqarilgan. Alloma turli dunyoqarashlarning qaror topishini turli "shahar" aholisi turmushi sifatida tasvirlash usulini qo'llagan. Ammo Forobiy bir qarashda ideal sanalmish "fozil shahar", ya'ni yetuk ma'naviyatning yemirilishi yoki tanazzuli tadrijiyati ham yuzaga kelishi mumkinligi haqida xulosa chiqaradi. Ayni shu jihatdan Forobiyning ilmiy merosi biz uchun muhim. Birovning o'z dunyoqarashini tiqishtirib, sening dunyoqarashga tahdid solishi faqat bitta maqsadni – sening ma'naviyatingni yo'qqa chiqarishni ko'zlaydi.

Mutafakkir har qanday jamiyat uchun ma'naviyat borasida ikkita vazifa ustuvor bo'lishini: birinchidan, o'z ma'naviyatini mudom takomillashtirish, ikkinchidan, uni o'zga ma'naviyat tajovuzidan asray bilishini ta'kidlaydi. Alloma komil insonning fazilatli ishlari ilmiy dunyoqarashiga asoslanadi, deydi. Ammo inson o'z ilmini amaliy jihatdan tadbiq etish vositalariga ega bo'la

olmasa, unda bu hol komillik hisoblanmaydi. “Insonning komilligi uning bajargan amaliy ishlarida ifodalanadi. Masalan, kotibning kamoloti yozish san’atini o’zlashtirganligidagina emas, balki o’z kasbiga doir vazifalarni mohirona bajarishidadir. Xuddi shuningdek, shifokorning kamoloti ham uning tibbiyot san’atiga doir bilimga ega bo’lishida emas, balki xastalikni davolashning amaliy vositalarini mukammal bilishidan iboratdir. Bu hol har qanday boshqa san’at sohiblariga ham taalluqlidir”. Forobiy ijodida fanning tabiati va vazifasini o’rganish muammosi katta o’rin egallaydi. U falsafiy va ilmiy dunyoqarashga ulkan ahamiyat beradi. Madaniy kishini, umuman taraqqiy topgan jamiyatni Forobiy ilm va maorifsiz tasavvur qilolmaydi. Uning fikricha, bilimlarni egallash ideal jamiyat mavjudligining asosiy shartidir. Olimning fikricha, fanlar va umuman bilimlar borliqdan kelib chiqib, borliqni uzoq vaqt o’rganish asosida to’planib boradi. Turli ilmlar bir-birini inkor qilmaydi, balki o’zaro bir-biri bilan bog’liq holda rivojlanadi. Ular dunyoni idrok qilishga va insonlarning baxt-saodatga erishishiga qaratilgandir. Mutafakkirning tasdiqlashicha, haqiqatni bilish va e’tiqodli bilim, shubhasiz, go’zaldir.

Forobiy bilimlar insonni xushaxloq, saxovatli va aql-idrokli qiladi, bilimlarsiz inson o’zi ko’zlab yashayotgan maqsadga erisha olmaydi, deydi. Uningcha, “munosib inson” bo’lish uchun kishida ikki imkoniyat, ya’ni ta’lim va tarbiya olish imkoniyati bor (Абу Наср Фараби. Социально-этические трактаты. – Алма-Ата: Наука, 1975. – С. 166. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. Asarlar. II tom. – T.: Fan, 1965. – B. 161).

Ta’lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa kishilar bilan muloqotda insoniy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo’ldir. O’z davrida ma’naviyat va ma’rifat masalalari to’g’risida betakror fikrlar bildirgan allomalardan biri Abu Rayhon Beruniydir. U ilm-ma’rifatga, uning jamiyatni kamol toptirishda ijobiy ta’sir kuchiga chuqur ishonch bilan qaragan. Shuning uchun ilm olish, ilm tarqatish hukmdorlarning muhim vazifalaridan biri ekanligini qayd etib yozadi: “Ilm sohalari ko’p, ular yanada ko’paymoqda. Jamiyatning yuksalishi ilm bilan bog’liq ekanligini tushungan odamlarning intilishlari ilm-ma’rifat sari bormoqda. Ilm, fanlarga, ularning

sohiblariga bo'lgan izzat-hurmat va ishonchning ortib borishi fikrimizning dalilidir. Bu, avvalambor, davlatni boshqaruvchilarning burchi, chunki insonlar qalblarini tirikchilik tashvishlaridan, kundalik turmush g'am-g'ussasidan xalos etish va ularning ruhlarini ozod qilib, ilm-ma'rifat bilan rag'batlantirish hukmdorlarning vazifasidir. Zero, insonlar qalbi ma'naviyatga, ilmga moyildir". Bu fikrdan ko'rinib turibdiki, Beruniy ilm-fanning ahamiyatini, uning jamiyatning farovonligini ta'minlashda muhim ma'naviy vosita ekanligini mana shunday ideal shaklda tushungan. Abu Rayhon Beruniyning ta'kidlashicha, bilishning asosi, bizning dunyo haqidagi bilimlarimiz manbai bo'lmish sezgi a'zolari orqali olingan bilimlardir. Alloma ilmiy bilimlar haqida gapirar ekan, bu – aql-idrok tufayli erishilgan yutuqdir, deydi. Shu bois, Beruniy bu sohada tajribaning ahamiyatini alohida e'tirof etadi. Buyuk mutafakkirning jamiyat hayotida olimlar va ularning ilmiy faoliyati xususidagi qimmatli fikrlari ham e'tiborga molikdir.

Olimlar yaratadigan ilmiy asarlar, Beruniyning fikricha, faqat nazariy-amaliy ahamiyatgagina emas, balki ma'naviy ahamiyatga ham egadir. "Bordi-yu fan bo'lmaganida edi, - uning qayd qilishicha, - idrok etilayotgan narsa yovuzlik, kechilayotgan narsa esa yaxshilik bo'lib chiqishiga ishonch bo'lmagan bo'lur edi". Ana shuning uchun ham faylasuf olimlarni jamiyatdagi ulkan vazifalarga munosib bo'lishga, nosamimiylik va g'arazgo'ylikka yo'l qo'ymaslikka da'vat etadi, chunki bu nuqsonlar fanni inkor etishga va fan ixlosmandlariga nafrat bilan qarashga olib kelishi mumkin.

Beruniyning fikricha, har bir olim hushyor bo'lishi, o'z xatolarini sinchiklab topib olishi, o'zini qayta-qayta tekshirishi, g'ayrat-shijoatini oshirib borishi hamda mehnatdan zerikmasligi shartdir. Beruniy boshqa Sharq allomalari kabi ilm-fan haqida quyidagi chuqur falsafiy xulosaga keladi, ya'ni ilm-fansiz inson borligi shubhali bo'lib qoladi. Ilm o'z zoti bilan matlubdir, haqiqatan ham u barcha narsadan lazzatli. Ilmdan boshqa qanday narsada manfaat zohirroq va qay birida foyda ko'proq bo'ladi, faqat ilm bilangina ham din, ham dunyo uchun xayrli ishlarni qilish va ularga zarar keltirishdan saqlanish

mumkin. Agar ilm bo'lmaganida biz jalb qilayotgan narsa yaxshilik emasligiga ishonch bo'lmas edi.

Jahon madaniyatining buyuk namoyandalaridan biri Forobiy, Abu Ali ibn Sino ham zamondoshi Beruniylar kabi ma'naviyat va ma'rifat, o'z davridagi ilmlarning holati va ularning insoniyat hayotidagi ahamiyati to'g'risida qimmatli fikrlarni ilgari surgan. Uning fikricha, har qanday ilmda narsalarni bilish uning boshlanish tamoyillari va sabablarini, shuningdek, narsalarga xos tasodifiy va zaruriy belgilarni o'rganish orqali erishiladi [76; 2014-y.].

Har qanday bilim narsaning ichki sabablarini bilish yo'li bilan paydo bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, ilm faktlarni kuzatish, ularni o'rganish va sabablarini bilishga asoslanadi. Ilmning maqsadi kuzatish va tekshirish qurolini to'g'ri bilishdan iboratdir. Mana shunday qurol yordami bilangina o'rganilayotgan hodisalar haqida mukammal bilimga ega bo'lish mumkin.

Sharq gumanizmining buyuk namoyandasi sifatida Ibn Sino faqat ilmfan va madaniyatgina inson uchun haqiqat eshiklarini ochish imkonini beradi, deb hisoblaydi. Bu esa mazkur masalada uning boshqalar uchun namuna sifatida nafaqat kitoblardan, balki bevosita hayotning o'zidan ham olingan bilimlar uchun kurashgan o'z davrining tadqiqotchisi va kuzatuvchisi bo'lganligini ko'rsatadi. Ibn Sinoning e'tiborga molik fikrlaridan biri uning odamlarni, xususan, yoshlar dunyoqarashini jiddiy tarbiyalash va muayyan sohada takomilga intilishga chaqirganligidir. Ibn Sinoning hisoblashicha, jasur kishilar ilmiy bilimlarni egallagan va ulardan xalq manfaati yo'lida foydalanadigan kishilardir. Bunday kishilarni u ideal, aql nurini taratuvchilar deb ataydi. O'zining "Ishorat va tanbihot" asarida shunday yozadi: "Ma'rifatli inson jasurdir. U o'limdan qo'rqmas, kamtarin va ko'ngli ochiq inson. U soxta do'stlik va birovlarini kamsitishdan yiroqdir. U qalbi buyuk inson bo'lib, kishilar o'rtasida bo'ladigan har qanday kamsitishlar unga taalluqli emas" [Брагинский И.С. Из истории таджикской народной поэзии. Душанбе, 1965. – Б. 294]. [Рахимов С.Р. Психолого-педагогические взгляды Абу Али ибн Сина. – Т.: O'qituvchi, 1979. – Б. 76].

Ibn Sinoning uqtirishicha, ilm-fansiz taraqqiyot bo‘lmaydi. Zero, ilm-fan uchun butun umrni bag‘ishlash va jonni fido qilish kerak. Shu bilan birga, buyuk mutafakkir ilmiy bilimlarning nafaqat insoniyat taraqqiyoti uchun ahamiyatini ko‘rsatibgina qolmay, balki ayrim fanlarning inson jamiyatidagi maqsad va vazifalarini aniqlashga ham harakat qiladi. Xususan, u “Najot” kitobida fanga quyidagicha ta’rif beradi: “Fan – bu har bir narsaga qanday bo‘lsa, o‘shandayligicha ishonishdir, bu yerda boshqa narsaning bo‘lishi mumkin ham emas. Demak, fan – bu narsalarning mohiyatini ta’riflar orqali anglashdir”.

Mamlakatimiz ilmiy salohiyatini oshirishda yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy va dunyoqarashi keng komil insonlar qilib voyaga yetkazishda ajdodlarimizning ma’naviyat va ma’rifat, ularning insonni dunyoqarashining kamolotga yetishishida muhim omil ekanligi to‘g‘risidagi betakror fikrlari nazariy asos bo‘lishi, shubhasiz.

O‘zbekistonning global dunyoga tizimli ravishda transformatsiyalashib borishi birinchi navbatda mamlakat yoshlari va ularning jamiyatga ijtimoiylashuvi bilan ham ahamiyat kasb etadi. Ilg‘or va ta’sirchan elektron texnologiyalarning kashf etilishi o‘z navbatida axborotlashgan makonni shakllanishga zamin yaratdi. Ushbu makonning birlamchi manbasi sifatida internet “katta sahna”ga chiqdi va uni cheklab qo‘yish yoki axborot olishni taqiqlash bilan muammo hal bo‘lmaydi. Zamon shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Bugun fanda yaratilgan biror-bir yangilik ertasiga butun dunyoga tarqalib ulgurmay, o‘sha ixtironing yanada takomillashgan varianti paydo bo‘lmoqda. Buni shubhasiz, axborot almashinuvidagi zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari ishtiroki bilan bog‘lashimiz mumkin. Sababi, global tarmoq yordamida bir joydan ikkinchi joyga ma’lumot jo‘natish uchun soniyalarning o‘zi kifoya qilmoqda⁴.

Zamonaviy yoshlar ijtimoiy muhit shart-sharoitlariga ijtimoiylashuvidagi xususiyatlar transformatsiyalashgan jamiyat va uning oqibatida vujudga kelgan subyektiv vaziyatlarga bog‘liq bo‘lib qoladi. Bu jarayonda yoshlarning o‘z oldilariga qo‘ygan vazifalari, axborotlashgan jamiyatda axborot almashinuvi

⁴ Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.

madaniyatini shakllantirish masalalari shart-sharoitiga moslashuv va istiqboldagi erishilishi ko‘zlangan maqsadlar sotsiologik nuqtai nazardan ilmiy tahlil va bashorat qilinishi lozim.

Yoshlar muammolarini o‘rganish hozirda eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib, u quyidagi bir qator jihatlarni o‘z ichiga oladi: yoshlar ijtimoiy reallik sifatida, yosh bilan bog‘liq psixologik xususiyatlar, ijtimoiylashtirish modellari, tarbiya va ta‘lim berishning sotsiologik muammolari, hayotiy qadriyatlar va bir qator boshqa jihatlar [94; 2004-y.].

Axborot taraqqiyotining jadal sur‘atlari yoshlarning ijtimoiy yo‘nalishlariga, an‘anaviy qadriyatlarni qayta baholashga ta’sir qilmasdan qolmadi. O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy dunyosi qaror topishi nafaqat yosh avlodning, balki umuman, butun O‘zbekiston jamiyatining hayoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qat’iy hayotiy yo‘nalish va o‘z hayotiy strategiyalarini ishlab chiqish – bu murakkab zamonaviy dunyoda yoshlar moslashuvining zarur shartlaridir⁵.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida, “Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilish uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqatishining oldini olishdir”, – deb ta’kidlaydi [2; 2016-y.].

O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy dunyosi qaror topishi nafaqat yosh avlodning, balki umuman, butun O‘zbekiston jamiyatining hayotiy uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qat’iy hayotiy yo‘nalish va o‘z hayotiy yo‘nalishi va o‘z hayotiy strategiyalarni ishlab chiqish bu – murakkab zamonaviy dunyoda yoshlar moslashuvining zarur shartlaridir. Yoshlarning dolzarb muammolarini to‘liq hal qilish uchun, shu jumladan, sotsiologik usullar orqali yoshlarning dolzarb muammolarini har taraflama, kompleks tadqiq qilish zarur. Bunda

⁵ Ўзбекистон Республикасининг “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги қонуни. Ахборот ва ахборотлаштиришга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Т.: Адолат, 2008. – 50 б.

yoshlar manfaatlarini o'rganish bir marotaba bo'ladigan harakat emas, doimiy jarayon bo'lishi kerak⁶.

Jahon jamiyatida salbiy axborot to'liqini to'g'risidagi bahs-munozaralar tobora avjiga chiqib kelmoqda. Tarixdan yaxshi ma'lumki, dunyoga hukmronlik qilish g'oyasi hamma zamonlarda ham bo'lgan. Bugungi kundagigacha ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Bu borada kurash endilikda faqat moddiy boyliklar uchun emas, balki ma'naviy intellektual boyliklarni egallash uchun ham shiddatli ravishda kechmoqda [88; 2012-y.].

O'z-o'zidan ma'lumki, yoshlar aynan shu intellektual boylikni asrab-avaylab, yanada ko'paytirib, kelajak avlodlarga yetkazadigan kuchdir.

Inson borliqdagi eng buyuk zotdir. Axloqiy hayoti esa uning to'g'ri tarbiyasi bilan bog'liqdir. Xususan, axloqiy tarbiya insonning shaxs bo'lib yetishuvini ta'minlaydigan uzluksiz jarayonlardan biri.

Borliqdagi go'zal fazilatlar insonga xos bo'lib, faqat uning mulki emas. Yaxshi fazilat jamiyatning boyligi, umuminsoniy ma'noga ega. Ijobiy fazilatga ega bo'lgan kishilar jamiytaga ta'sir qilib, uning rivojlanishini tezlashtiradi.

Inson bolasi ham bu yorug' olamga shunchaki kelmaydi, hazrat Navoiy ta'biricha, inson olamga kamolotga erishish uchun keladi [9; 1992-y.].

Komil inson tarbiyasi degan iboralarni ko'p uchratamiz. Bu borada "komillik" tushunchasiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Komillikning xilma - xil talqinlari bo'lib, diniy ta'lumotlarda komillik timsoli sifatida Haq nazarda tutiladi. Insonning kamolotga erishuvi Haqqa topshiriladi.

Abu Homid Muhammad al Fazzoliy "Kimyoi saodat" asarida yozadilar: "Inson farishta va hayvon o'rtasidagi maxluqdir. Hayvon rivojlanmaydi, chunki uning kamolot quvvati yo'q. Farishta ham rivojlanmaydi, chunki uning o'zi pok ilohiy nurdan iborat. Insonlardagina rivojlanish, ruhiy kamolot hislati mavjud".

Komillikning har bir davriga xos ijtimoiy mezonlari ham bo'ladi. Buning boisi shuki, odamzod aqliy ruhiy va ijtimoiy iqtidori, iste'dodi, salohiyati

⁶ Современное образование как открытая система (под ред. Н.Г. Ничкало, Г.Н. Филонова, О.В. Суходольской-Кулешовой). Институт научной и педагогической информации РАО, "ЮРКОМПАНИ", 2012 г.

jihatidan bir-biridan farqlanadi. Bir-biridan farqlanuvchi insonlarni axloqiy tarbiya orqali komillikka yetkazish mumkin.

Aziziddin Nasafiy komil insonga shunday ta'rif beradi: "Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang; boshqa ibora bilan ayting: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif" [67].

Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikki muhim masalaga javob izlaydi. Bulardan biri – qanday yashamoq kerak, ikkinchisi esa – nima qilmoq-u nima qilmaslik lozim. Ana shu savollarga javob izlash jarayoni axloqiy tarbiyaning amaliy ko'rinishlaridir.

Tarbiya ona qornidan boshlanadi, degan gap bor. Uning asl ma'nosi, avvalo, ota-onaning o'zi axloqiy tarbiya ko'rishi kerak degani. Zero, qush inida ko'rganini qiladi. Ota-ona oilada yuksak axloq namunasini ko'rsatishi lozim.

Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo'lgan yo'lini bu – ota -onaning bolaga axloqiy namuna bo'lish. Chunki, sog'lom, barkamol inson har qaysi xalq, millat kelajagining nurli istiqbolidir. Ma'naviy boy, axloqan pok va jismonan sog'lom kishilarni tarbiyalab voyaga yetkazish ilk bor oilada amalga oshiriladi. Insoniy fazilatlar – ezgulik, yaxshilik, fidoyilik, sadoqat, mardlik, insof, rahm-shavqat kabi xislatlar dastlab oilada shakllanadi.

Oila yoshlarni odobli, rostgo'y, imonli, halol va samimiy bo'lib voyaga yetishlari uchun zamin tayyorlaydi [88; 2012-y.]. Oiladagi muhit bolaning kelajakda kim bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko'radi, bo'lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi va shunga ko'ra kamol topib boradi. Axloqiy tarbiyaning mohiyati kishini hayotga tayyorlashdan iborat.

Oilada avvalo, yuqorida aytilganidek, ota-ona bolaga axloqiy namuna bo'lishi kerak. Ta'lim muassalarida tarbiyachi va o'qituvchilarning ta'lim berish usullaridan tortib, to mayda-chuyda xatti-harakatlarigacha o'z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik

lozim. Ustoz-shogirdlik munosabatlarida muomala odobli, halollik, rostgo'ylik yoshlarning axloqiy tarbiyasi shakllanishini ta'minlovchi omillardandir.

Xalqimiz, jumladan, yosh avlod G'arb ilm-fan texnikasi, san'atining u yoki bu turini inkor etmaydi, albatta. Biroq G'arbnig o'zi "ommaviy madaniyat" keltirib chiqarayotgan ma'naviy-axloqiy tubanliklardan aziyat chekayotgan bir davrda millatimiz yoshlarining bu boradagi qarashlarini milliy an'analarimiz bilan to'yingan bunyodkor g'oyalar asosiga qurishi, ularning komil shaxs bo'lib yetishishi uchun muhim omil bolib xizmat qiladi.

Bu borada axloqiy tarbiyaning aqliy-ma'naviy va jismoniy tarbiya bilan qo'shib olib borilishi maqsadga muvofiqdir. O'shanda jamiyatimiz har jihatdan kamol topgan fuqarolik jamiyatga aylanadi. Yoshlar dunyoqarashi bilan bog'liq axborot xavfsizligini ta'minlash muammosining ochilmagan qirralarini, uning nozik jihatlarini tushunish, ilmiy anglash va idrok etish muhim ilmiy konsepsiyalarning paydo bo'lishiga xizmat qilmoqda. Dunyoqarash haqidagi so'z borar ekan, dunyoqarash ma'nosiga to'xtalib o'tamiz.

Dunyoqarash – subyektiv voqealikni baholovchi qarorlar to'plamidir. Atrof-olamni anglashga harakat qilish natijasi o'laroq kelib chiqadi. Dunyoqarash diniy, falsafiy, ilmiy bo'lishi mumkin.

Dunyoqarash – dunyoga va insonning undagi o'rniga, kishilarning o'z atrofidagi voqealikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari. Dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimlari, mafkurasi bilan bog'liq. Dunyoqarashda jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar o'z aksini topadi. Shaxsning dunyoqarashi ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'langan. Dunyoqarash insonning o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi. Bu jihatdan dunyoqarash voqelikning inson ongidagi subyektiv in'ikosidir.

Ayrim individning ongi bilan bog'langan individual dunyoqarash, muayyan ijtimoiy guruh, sinf, qatlam, millat va jamiyat miqyosidagi ijtimoiy ong bilan bog'langan ijtimoiy dunyoqarashlar mavjud [94; 2004-y.]. Bular bir-

birlarini to'ldiradi, bir-biriga ta'sir qiladi, bir-birini rivojlantiradi. Dastlab individ dunyoni hissiy sezadi (dunyoni his qilish). Bunda individ voqealikni bevosita hissiy inkor etish orqali anglaydi. Keyin voqelik haqida to'plangan bilimlari asosida individning dunyoqarashi paydo bo'ladi. Bu dunyoni anglash deyiladi. Shaxsning dunyoni anglashi orqali uning o'zini anglashi ham shakllanib boradi. Shu tariqa dunyo haqidagi barcha bilimlar yuksak darajada umumlashtiriladi va yaxlit dunyoqarash shakllanadi. Dunyoqarash insoniyatning tarixiy taraqqiyoti mobaynida rivojlanib borgan. Uning mifologik, diniy dunyoqarash, turmush bilan bog'liq (kundalik) dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash shakllarini ajratish mumkin.

O'zbekistonda axborot tizimi va virtual olamga oid bo'lgan bir qancha tadqiqotlar o'tkazilgan. Respublika miqyosida talabalarning virtual ijtimoiy makon yoshlar dunyoqarashi shakllanishiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik jihatlarini ilmiy tadqiq etish bo'yicha tadqiqotlar o'ranilmagan, mazkur mavzuga yaqin ijtimoiy-psixologik muammolar psixolog olimlardan N.Dolimova, Z.T.Nishonova ilmiy rahbarligida I.I.Rahimova tomonidan, N.S.Safayev rahbarligida L.A.Nigmatulina tomonidan, shuningdek, S.N.Aripxanova, Sh.R.Barotov, X.X.Jabborov, O.M.Zaripov, V.M.Karimova, Sh.F.Mustafayeva, J.J.Obloqulov, R.S.Samarov, K.A.Farfiyeva, B.S.Shukurov., B.R.Qodirov., K.B.Qodirov., U.D.Qodirov va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan [17, 19, 28, 32, 41, 48, 61, 78, 85, 92, 93].

Jumladan, internet-tobelik fenomeni oxirgi o'n yillikdagina tadqiqot predmetiga aylandi. Mazkur yo'nalishda o'zbek olimlari tomonidan kam sonli tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, asosiy e'tibor kompyuter o'yinlariga tobelikning bola psixik taraqqiyotiga salbiy ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

N.M.Dolimova tomonidan o'zbek milliy muhitida o'smirlarning kompyuter o'yinlariga tobeligini diagnostika qilish va korreksiya qilish masalasi yoritilgan bo'lib, (2010), unda kompyuter o'yinlariga tobeligi mavjud o'smirlarda bezovtalik va agressiyaning oshishi aniqlangan. I.I.Raximova tomonidan kichik maktab yoshi, o'smirlik va ilk o'spirinlik yoshida kompyuter

o'yinlariga tobelikni, shuningdek oilaviy munosabatlar va sotsiometrik status bilan aloqadorlik jihatlari o'rganilgan.

Muallif tomonidan olib borilgan, tadqiqotning maqsadi turli xil yoshdagi o'quvchilar kompyuter o'yinlariga tobeligining psixologik xususiyatlarini aniqlash va uning oldini olish bo'yicha psixologik mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat bo'lib, unda turli yoshdagi kompyuter o'yinlariga tobe o'quvchilarning oilaviy munosabatlari, shaxslararo munosabatlari, motivatsion sohasi xususiyatlari va ularning tobelik darajalari ochib berilgan hamda kichik maktab yoshidagi o'quvchilar, o'smir va ilk o'spirinlar kompyuter o'yinlariga tobeligining motivatsion va muhitga moslashuv xususiyatlari, oilaviy munosabatlarning salbiy muhit, xavotirlik, nizolashuvchanlik kabi ta'sir etuvchi omillari aniqlangan [88]. Tadqiqot natijalari kompyuter o'yinlariga qaramlikning psixologik xususiyatlari muammosini o'rganishdan olingan empirik ko'rsatkichlar, yani kompyuter o'yinlariga tobe yoshlarning shaxslilik xususiyatlaridagi o'ziga xoslik, motivatsion sohasi, shaxslararo munosabati va oilaviy munosabatdagi xususiyatlari, yosh xususiyatlariga doir psixologik xarakteristikalar va xulosalar pedagogik psixologiya, yosh psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, psixodiagnostika sohalarining ilmiy asoslarini boyitishga xizmat qilgan [94].

L.A. Nigmatulin tomonidan kompyuterga tobe shaxsning xarakterologik xususiyatlarini aniqlash, o'rganish va korreksiya qilish maqsadida tadqiqot ishi olib borilgan. Muallif, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil olayotgan o'smir va katta o'smir yoshidagi o'quvchilarda Kompyuterga tobelik oqibatida shaxs xarakterologik xususiyatlari tuzilishidagi o'zgarishlarni Kimberli Yangning "Internet tobelik testi" (aslida "Internet Addiction Test" – "Test na internetaddiksiyu" – Kimberley S.Young); L.N.Yuryeva va T.Y.Bolbotlarning "Kompyuterga tobelikni skrining diagnostika qilish usuli" metodikasi; N.Xollning "Emotsional intellektni aniqlash metodikasi" (EQ so'rovnomasi); "Saxsiy differensiallik" (ShD) metodikasi; R.B.Kettelning "Shaxsni ko'p omilli tadqiq qilish" metodikasi, S shakli, (105 ta savol); B.Bassning "Shaxs yo'nalganligini diagnostika qilish metodikasi" (Smekal-Kucherning

so'rovnomasi; Bassning oriyentatsion so'rovnomasi) orqali o'rgangan. Internet olami o'smir uchun o'zining shaxsiy identikligini, "Men"ning ideal siymosini yaratishda foydalanish, tashqi ko'rinish, nutq, xarakter yoki psixikadagi ayrim kamchiliklarni kompensatsiyalash va bartaraf etish imkonini beradi degan xulosaga kelgan. Nazarimizda, internetdan kelayotgan har qanday ma'lumot, o'yinlar va boshqa xabarlar shaxsning nafaqat dunyoqarashini, balki "Men"ini, shakllanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi [84].

Olib borilgan keng ko'lamli tadqiqotning natijalari S.N.Arifxanovanning "Деструктивные способы воздействия на молодежную аудиторию в сети интернет" nomli monografiyasida ijtimoiy tarmoqda yoshlar guruhiga qarata yo'naltirilgan buzg'unchi g'oyalar keyingi vaqtda avj olgani isbotlangan va qayd etilgan [17].

H.X.Jabborovning "Mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari" ilmiy maqolasida yoshlarni turli axborot tahdidlaridan asrash zarur ekanligi qayd etilgan. [88].

O.M.Zaripovning dissertatsion tadqiqot ishi va bir necha ilmiy maqolalarida globallashuv jarayonida shaxsning axborot-psixologik xavfsizligi masalalari keng ko'lamda yoritib berilgan. Biz yashayotgan asrda mazkur muammo qanchalik dolzarb ahamiyatli ekanligi tasdiqlaydi.

K.A.Farfiyevaning "Axborotlar oqimi va bola psixologiyasi" mavzusida yozilgan ilmiy maqolasida esa hozirgi bola uchun har qanday axborot manbaidan foydalanishda cheklov o'rnatilmaganligi, natijada bola psixologiyasiga mazkur ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishi muqarrar ekanligi qayd etilgan.

B.S.Shukurovning ilmiy qarashlarida esa "Talabalar guruhida ijtimoiy tarmoqlarga tobelik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari"ga bag'ishlangan bo'lib, olingan natijalarda bizning tadqiqot ishimizdan farqli jihati bo'lgan internetga tobelik namoyon bo'lishining o'ziga xos psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan [94]. Muallif o'z oldiga talabalarda internetga tobelikni keltirib chiqaruvchi psixologik omillarni va namoyon bo'lish shart-sharoitlarini empirik tadqiq etishni vazifa qilib qo'yib, virtual muloqotning

shaxs psixologiyasiga ta'siri natijasida emotsional beqarorlikning frustratsion tolerantlik va vaqtni, fazoni idrok qilish ko'nikmasining past darajada namoyon bo'lishi asosida kuchayishiga ko'ra, talabalar auditoriyasida internetga qaramlikning dinamik tarzda ortishi asoslab bergan. Tadqiqot natijalari asosida, yoshlarda ijtimoiy tarmoqlarga tobeligini keltirib chiqaruvchi psixologik omillar darajasi psixologik jihatdan barqaror ravishda kechishi, shaxsiy "Men" xususiyatlarining o'sishi, axborot oqimi uchun zarur [76] bo'lgan sifatlarning o'sishi va yoshlarni axborot bilan ishlashga tayyorlashda tartibli xulq-atvor imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi hamda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda optimal darajada psixologik jihatdan tayyorlash va axborotlardan foydalanishni muvaffaqiyatli amalga oshirishiga va kibermadaniyatga xos sifatlarning o'sishiga o'ziga xos asos sifatida xizmat qiladi, degan xulosaga kelgan [88].

U.D.Qodirovning "Globallashuv sharoitida destruktiv tahdidlar oldini olishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini" mavzusida yozilgan ilmiy maqolasida destruktiv tahdidlarni bartaraf etish va oldini olish zarur ekanligi isbotlangan, boshqa qator ishlarida ham muammoning naqadar dolzarb ekanligi asoslab berilgan.

Tadqiqotchi O.Sh.Muxtorov tomonidan yoshlarni turli axborot manbaalaridan foydalanish holati, dunyoni idrok etish va dunyoqarashning ustun modellari doirasida axborot olishning individual strategiyasini aniqlash hamda axborot xurujlaridan himoya qilishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini psixokorreksiya samaradorligini oshirish maqsadida tadqiqot ishi o'tkazilgan. Muallif yoshlarda axborot madaniyati, axborot faolligining motivatsion tarkibini, shuningdek, yoshlarni dunyo haqidagi tasavvurlarini va dunyoqarashning ustun modellari doirasida yakka tartibdagi axborot olishning strategiyasini o'rganish, ehtiyojlar iyerarxiyasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqligini tahlil qilish vazifasini qo'ygan va "Turli axborot manbaalaridan yoshlar foydalanish holati" nomli maxsus ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnoma; N.I.Gendina, G.A.Staroduba, Y.V.Ulenkolarning "Yuqori sinf o'quvchilarining axborot madaniyati asoslari" testi; Y.N.Dolgova, A.S.Kopova, G.N.Malyuchenko, V.M.Smirnova "Axborot faolligining motivatsion tarkibi"

so‘rovnomasi; G.N.Malyuchenko, V.M.Smirnovlarning “Dunyo individual modellarining ijtimoiy-psixologik tahlili” test-so‘rovnomasi; I.A.Akindinovaning “Ehtiyojlar iyerarxiyasi modifikatsiyasi” metodikalardan V.F.Ryaxovskiyning “Kirishimlilik va kommunikativlik” testi foydalangan [88]. Tadqiqotchi tomonidan olingan metodikalar va testlar natijalari bizda qiziqish uyg‘otdi. Ba’zi metodikalar mahalliy olimlar tomonidan ishlatilmagan. Mazkur tadqiqot natijalaridan ochiq axborot tizimi sharoitida yoshlarning psixologik o‘zini-o‘zi himoyalashini, kishilik jamiyatida axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlashning usullari asoslandi. Ochiq axborot tizimi sharoitida yoshlarning psixologik o‘zini-o‘zi himoyalashini, axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlashning “o‘z-o‘zini namoyish qiluvchi”, “kommunikativ”, “filtrlovchi”, “bilimlarni orttiruvchi” usullari aniqlangan. Muallif shunday degan: “Jamiyatdagi shaxslarning ruhiy og‘ishlar, nizolar obyektiv asosga ega bo‘lib, shaxs ijtimoiy-psixologik xususiyatlari qanday axborot maydonida ekanligiga bog‘liq” [88]. Globallashuv jarayonida to‘xtovsiz kirib kelayotgan axborotlar salbiy ta’sirini kamaytirish kerak, degan xulosaga kelgan.

O‘ylaymizki, yoshlarda dunyoqarashni shakllanishi muammosi bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, yoshlarni ongi va dunyoqarashini buzg‘unchi g‘oyalardan saqlash zarur ekanligini ko‘rsatadi.

Nazarimizda, yoshlar dunyoqarashini shakllanishida virtual olam tahdidlarining salbiy ta’sirini oldini olish masalalari ta’lim tizimidagi inqirozlar, yoshlar tafakkuridagi bo‘shliqlar tufayli bo‘lib, yuqoridagi tadqiqotlar natijalari bizning tadqiqotimizda metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Axborot evaziga vujudga keladigan har qanday ijtimoiy munosabatlar va dunyoqarashning shakllanishi davom etadi. Axborot olish va uzatish kanallarini (verbal, vizual, audio va h.k.) R. Arnxeym, R. Bart, Y. Lotman, V. Podoroga, U. Eko va boshqa olimlar tadqiq etishgan.

Internetning ixtiro qilinishi bir tizimning o‘zida matn, tasvir, tovushni birlashtirish imkoniyatini berdi. Ularning birgalikdagi ishi “yangi hissiylikni dunyoga keltirdiki, u kundalik his-tuyg‘ularni sun’iy tiklash imkoniyatiga ega. V.Podoroga fikricha, bu hissiyot yetishmagan reallikni to‘ldirishga emas, balki

reallikning ortiqchaligiga ko'niktiradi: bu hissiylik odamlar oldingi kundalik hayotida o'rganib qolganlarga nisbatan yorqinroq, jarangdorroq, ko'rinarliroq "olam" bilan ish ko'radi.

Agar avval hissiy idrok real zo'rlik obrazlarini yaratgan bo'lsa, bugungi kunda "yangi hissiylik" raqamli texnologiyalar yordamida sun'iy reallikni qabul qilishga tayyor turadi. Misol tariqasida harakatga kelgan, "jon kirgan" haykallarni keltirish mumkinki, ular haykalning tugallangan shakli va, demakki, haykaltaroshning muayyan g'oyasi bilan ziddiyatga kirishadi. [130] Shu asosda J. Bodriylar tilga olgan" reallikni yo'qotish"dan iborat umumiy holatning davomi sifatida reallikning tasviridagi dissonanslarni sezmaslik, ilg'amaslik ko'nikmasi shakllanadi.

A.E. Voyskunskiy o'z maqolasida o'tgan asrning 70-yillaridan to hozirgi kungacha internet tadqiq etgan ishlarning qisqacha ma'lumotini bergan. Internet deyarli paydo bo'lgan kunidanoq fanlararo tadqiqotlarning predmetiga aylandi. Ammo o'tgan asrning 70-yillarida kompyuter vositasidagi muloqotning o'zigina o'rganilgan bo'lsa, 80-yillarga kelib kompyuter tarmoqlarining kommunikativ qo'llanilishini o'rganishga bag'ishlangan ishlar paydo bo'ldi [88]

So'nggi yillarda internetga bag'ishlangan tadqiqotlarda, asosan, iste'molchilarning motivatsiyalari, ularning individual-psixologik o'ziga xosliklari, internetga "og'u" kabi tobeligi shakli (kiberaddiksiya), undagi muloqotning umummadaniy xususiyatlari, tarmoq etiketi, ya'ni internet-sheriklar o'rtasidagi muloqotni tartibga soluvchi qoidalar, o'zini namoyon etish va tarmoqdagi o'xshashlikni almashtirish tamoyillari; internet o'yinlar tavsifining bolalar, o'smirlar yoshlar va kattalar o'yin usullarining psixologik xususiyatlariga paradigmasi; gipermatnli tuzilmalar bilan ish qilinadi ijtimoiy soha vakillari tomonidan "tarmoq jamoalari" va internet auditoriyasi mavzusiga o'zlashtirilmoqda. Aynan alohida ishlar virtual makonda odamning hatti-harakatlarini o'rganish usullarining tahliliga bag'ishlangan. Biroq internet va undagi ijtimoiy tarmoqlar tizimi ijtimoiylashuv agenti sifatida shu kungacha maxsus tadqiq etilmagan. Ijtimoiy soha yo'nalishida esa bu xususda biron bir ilgari surilgan mulohazaning o'zi yo'q. Bundan tashqari, virtual makonda

ijtimoiylashuv muammosini o'rganishda quyidagi yo'nalishdagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi: J.Furtase, E.Masuda, M.Maklyuen, E.Toftler, D.Bell, A.Turen, M.Kastels, U.Dayzard, R.Ayris, T.Stouner, J.Martin kabi olimlar tomonidan turli variantlarda va turli nom ostida ("postindustrial", "axborotlashgan" jamiyat) ishlab chiqilgan axborotlashgan jamiyat konsepsiyasi; S.Koyen, T.Rozzak va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan sub hamda kontrmadaniyat fenomeni; virtual reallik va virtual jamoalarning sotsiologik tahlili (S.Bondarenko, P.Kollok, Mark A.Smit, G.Reyngold, E.Reyd, C.Tomas, N.Sherbin va boshqalarning ishlari). Shuningdek, ta'limiy tarmoqlar evolyutsiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlarni ham qayd etish lozim (R.Levitt, P.Mong, S.Vasserman va boshqalar).

Kompyuterlashtirishning sotsiol jihatlarini, shuningdek, I.Sokolova, K.Kolin va boshqalar tadqiq etgan. Ilmning internet, kibermadaniyat, kibermakon internet-jamoa (uyushma)lar bilan bog'liq ijtimoiy muammolarni o'rganishga qaratilgan bir qator ilm tarmoqlarini o'zida birlashtirgan fan sohasini – kibersotsiologiyani yaratish zarurati haqida taniqli rossiyalik tadqiqotchilar V.Dobrenlob va A.Kravchenkolar yozishmoqda [88;].

Ijtimoiy tarmoq tamoyili tadqiqotchilar tomonidan jamiyatning to'laligicha tahlilida foydalanildi va zamonaviy jamiyat esa tez-tez postindustrial, axborotlashgan va tarmoqli deb atala boshlandi. Ularning eng mashhurlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin: M.Kastels, D.Bell, A.Turen, A.Toftler, J.Gelbreyt, R.Ingelgart, R.Aron, P.Draker, M.Maklyuen, Z.Bjezinskiy, F.Ferraroti, A.Etsioni, e.Giddens, A.Masuya, R.Rayx, G.Shiller, Y.Xabermas, J.F.Liotar, J.Bodriyar, J.Denez, F.Gvatari, T.Adorno, G.Markuze, R.Darendorf yangicha yondashuvlarni qo'llovchi yangi tadqiqotchilik sohasini yuzaga keltirdi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarning eng muhim vazifalaridan biri ilmiy dunyoqarashning shakllanish darajasi mezonlarini aniqlash, chunki bu dunyoqarashning tarkibiy elementlarining sifat va miqdoriy holatining eng to'liq tasvirini olishga imkon beradi [88]. Ensiklopedik lug'atda "mezon" "biror narsa baholanishi, ta'rifi yoki tasnifi qilinadigan belgi" tushuniladi; baholash o'lchovi.

Bu ma'lum bir standart, indikator bo'lib, biz professional psixologik va pedagogik dunyoqarashning shakllanishiga baho bera olamiz. Har bir mezon tashxis qilingan hodisaning zaruriy namoyon bo'lishini ko'rsatadigan bir qator ko'rsatkichlarga ega [88]. Bizning ishimizda mezon belgi sifatida ko'rib chiqiladi, uning asosida kelajakdagi o'qituvchi-psixologning professional dunyoqarashining tarkibiy qismlarida yuz beradigan o'zgarishlar aniqlanadi va bu o'zgarishlarni baholaydi. Agar siz "indikator" tushunchasini ochsangiz, unda tushuntirish lug'atida S.I.Ojegov, u "... biror narsaning rivojlanishi va rivojlanishini baholaydigan narsa", deb talqin etiladi.

O'quvchi shaxsining kasbiy dunyoqarashi masalasini ko'rib chiqishda uning rivojlanish darajasini baholash mumkin bo'lgan ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatish juda muhimdir. Dunyoqarash har doim individual tushuncha bo'lganligi sababli, bunday ko'rsatkichlar ko'p bo'lishi mumkin. Amaliyot esa o'quvchilar o'rtasida kasbiy-psixologik va pedagogik dunyoqarashning shakllanish darajasini aniqlash uchun ilmiy asoslangan mezonlarni tanlashni talab qiladi [130].

Maxsus tadqiqotlar tahlili ushbu muammoni hal qilishda yagona yondashuv yo'qligini ko'rsatadi. Ta'lim nazariyasi va amaliyotida mezonlarni asoslash uchun umumiy talablar mavjud (S.G.Spasiyev, N.B.Krilova mezonlar shaxsiyatni shakllantirishning umumiy shakllarini aks ettirishi kerak; mezonlar o'rganilayotgan tizimning barcha tarkibiy qismlari o'rtasida munosabatlarni o'rnatishi kerak; sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar ijodiy faoliyat o'lchovini aks ettirishi kerak [88]. N.G.Ogurov dunyoqarashni shakllantirishning uchta mezonini belgilaydi:

1. Intellektual-mantiqiy, bu dunyoqarashning mazmunli tomonlarini bilishning hajmi, to'liqligi, ilmiy, tizimli, dalil, mustahkamlik kabi xususiyatlari yordamida bilib olishga imkon beradi;

2. O'quvchining egallab olingan bilimlarga bo'lgan munosabatini ifodalovchi hissiy-ixtiyoriy: qiziqish va ularga ishonish, hissiyot va so'z erkinligida namoyon bo'lgan olingan bilimlarni qo'llashga intilish; [88]

3. Faol, turli xil tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan o'quvchining ijtimoiy faolligi ko'rsatkichlari to'plamini o'z ichiga olgan: bilim, mehnat, ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy.

I.Y.Lerner dunyoqarashni shakllantirish tizimining bir oz farqli ko'rsatkichlarini taklif etadi:

- olingan dunyoqarash bilimlari miqdori va undan foydalanish qobiliyati; bu hajm qanchalik katta bo'lsa, ularni qo'llash doirasi kengroq, bilimlar va ular aks ettirgan voqelik hodisalari o'rtasidagi bog'liqlik qanchalik chuqurroq bo'lsa, inson dunyoqarashining nazariy darajasi shunchalik yuqori bo'ladi;

- bilimni shaxsiy munosabat, shaxsning pozitsiyasiga aylangan qadriyatlar va hayot prinsiplari bilan o'zaro bog'lash; qadriyatlar, e'tiqodlar, tamoyillar tizimining barqarorligi, dunyoqarash bilimlarini qo'llash yo'nalishi;

- mojaro, muammoli vaziyatlar o'quvchilarning kasbiy dunyoqarashini shakllantirish, akmeologik texnologiyalarni rivojlantirishning nazariy asoslari.

Ta'lim oluvchilarning intellektual va kasbiy harakatchanligiga bugungi kunda jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar akmeologik darajada o'quv jarayoni ishtirokchilarining rivojlanishi va o'zini o'zi rivojlantirish qonuniyatlarini o'rganish, akmeologik o'qitishning yangi texnologiyalarini izlash va rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Virtual voqeilik "ichida" odamlar bilan nimalar sodir bo'layotgani borasida, shubhasiz, maxsus tadqiqotlar olib borish zarur. Biroq ijtimoiy tarmoq ichiga boshi bilan "sho'ng'ib ketgan"lar ham tarmoq ichidagina "yashab" qolmay (har holda shu paytgacha), tinimsiz offlayn voqelikka qaytadi: avvalambor, o'z jismoniy va ijtimoiy hayotini saqlash uchun. U yerdan ular kim bo'lib qaytadi? "Tarmoq hamjamiyati"da shakllanadigan hatti-harakat me'yorlari haqiqiy jamiyat talablariga qay darajada javob bera oladi? Albatta, bu ikki (onlayn va offlayn) jamiyatni bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan elementlari sifatida qabul qilish mumkin

1.2. § Virtual ijtimoiy makon tahdidlari vaziyatida jamiyatning axborot-psixologik himoyasini ta'minlash masalalari

Xavfsizlik hamda himoya tushunchalari bevosita shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, texnik, biologik tizimlarida normal faoliyat yuritishini kafolatlovchi tushunchalar tizimiga mansub. Jamiyatning xavfsizligi odamlar hayot tarzining sifatini, uning davomiyligini belgilovchi muhim mezondir. Bu o'rinda fanda bevosita xavfsizlik tushunchasiga yaqin ishlatiladigan bir qator tushunchalarga izoh berish joizdir. Ijtimoiy xavfsizlik – jamiyatda mavjud bo'lgan turli ijtimoiy institutlar, jumladan, xavfsizlikni ta'minlash organlari, davlat muassalari, oila va mahalla tomonidan aholining turli ehtiyojlari, orzu-istaklari, maqsad-muddaolarini amalga oshirishlariga imkon berish bilan bog'liq vazifalarini o'z ichiga oladi. Bunda ayrim-alohida tabaqa yoki aholi qatlamining manfaatlari, ya'ni, ularning yaxshi yashashlari, uzoq umr ko'rishlari, bir hududdan ikkinchisiga ko'chib o'tishiga aloqador xavfsizlik nazarda tutilmaydi. Milliy xavfsizlik – bu shaxs, jamiyat, iqtisodiyot va davlatchilikning barqaror taraqqiy etishi uchun xavf solishi mumkin bo'lgan har qanday tahdidlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimini bildiradi. Milliy xavfsizlik tashqi va ichki xavflardan yaxlit jamiyatni muhofaza qilishni nazarda tutadi. Tashqi xavfsizlik – ikki bosqichni nazarda tutadi: umuminsoniy yoki global xarakterli va davlatlararo xavfsizlik masalalari. Tashqi xavfsizlik tahlil etilganda, avvalo, ekologik, harbiy, radiatsion, epidimiologik, kriminal-jinoiy, biologik va madaniy-axloqiy (ekspansiyalar) turdagi xavflarni oldini olish nazarda tutiladi. Ichki xavfsizlik esa mamlakat doirasida inson konstitutsion huquq va kafolatlariga aloqador bo'lgan iqtisodiy diversiyalarning oldini olish va ularga yo'l qo'ymaslikka bog'liq bo'lgan maxsus choralarni, terroristik xurujlarning oldini olish va ularni vaqtida bartaraf etish, kelib chiqishi bo'yicha ijtimoiy, tabiiy, biologik hamda texnik asosli tahdidlardan jamiyat a'zolarini himoya qilishni nazarda tutadi. Oxirgi yillarda dunyo miqyosida axborot texnologiyalarining keskin rivojlanib ketayotganligi, internet tizimning barcha davlatlar, madaniy hududlar, barcha

yoshdagi insonlar uchun qulay axborot almashinuvi vositasiga aylanib borayotganligi munosabati bilan xavfsizlikning o'ziga yana bir turi axborot xavfsizligi paydo bo'ldi. Axborot xavfsizligi – aslida jamiyatning obyektiv, xolis, haqqoniy axborot manbaiga ega bo'lishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarni nazarda tutadi. Albatta, bunga mustaqil axborot vositalari orqali aholiga yetib keladigan ma'lumotlar oqimi ham kiradi. Bu vositalar aynan mustaqil bo'lganliklari uchun ham birinchi navbatda moliyaviy, qolaversa, siyosiy va boshqa tomonlardan hech bir siyosiy kuch, alohida davlat yoki ijtimoiy qatlamning manfaatlariga xizmat qilmasliklari kerak. Chunki mustaqil OAV aslida odamlarda sodir bo'layotgan turli xil jarayonlarga nisbatan xolis fikrning shakllanishiga imkon berishi lozim. Lekin amaliyotda, ming afsuski, har doim ham shunday bo'lavermaydi va jamiyat o'z a'zolarini, ayniqsa, yosh avlodni turli axborot xurujlaridan himoya qilishga majbur bo'ladi. Axborot xavfsizligining vazifalariga quyidagilar kiritiladi:

- 1) xolis axborotlar makonini ta'minlash (mustaqil OAV tizimini yaratish orqali);
- 2) shaxs va jamiyatning axborot qabul qilish va undan foydalanishga bo'lgan huquqini ta'minlash;
- 3) informatsion va telekommunikatsion texnologiyalar sohasidagi jinoyatlarni bartaraf etish yo'li bilan ushbu yo'nalishda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan terroristik tahdidlar, jumladan, telefon orqali, kompyuter tizimi orqali ro'y beradigan xavflarni, shu orqali noqonuniy mablag'larning bir manbadan ikkinchisiga oqim ketishiga yo'l qo'ymaslik;
- 4) shaxsni, tashkilot va yaxlit jamiyatni axborot-psixologik tahdidlardan himoya qilish;
- 5) imidjni shakllantirish, turli bo'hton, mish-mishlar va noo'rin xabarlarga qarshi kurashish. Axborot xurujlari turlicha bo'lgani uchun unga nisbatan xavfsizlik choralarini ko'rish ham turli sohalarda (iqtisodiyot, siyosat, mudofaa) va turli jabhalarda (davlat miqyosida, hududiy, tashkilish, shaxsiy) amalga oshiriladi. Ya'ni, davlat miqyosida axborot xavfsizligini ta'minlashga aloqador bo'lgan ishlar muayyan bir tashkilot doirasida amalga oshiriladigan axborot

xavfsizligidan farq qiladi. Birinchisiga gap milliy manfaatlarni himoya qilish to'g'risida ketsa, ikkinchi holatda tashkilotdagi muayyan ijtimoiy guruhlararo axborot almashinuvida bo'hton, tuxmat, mish-mishlar tarqatishga bog'liq bo'lgan salbiy holatlar nazarda tutiladi. Lekin ikkala holat ham axborot xurujlariga odamlarning normal faoliyatlari uchun halaqit beruvchi omil sifatida qaraladi. Aynan axborot xurujlari – bu shaxsga, muayyan tashkilot va davlatga yo'naltirilgan ta'sir bo'lib, uning asl maqsadi o'sha shaxs, tashkilot va davlatning normal hayot tarzining buzilishini nazarda tutgan siyosiy va ijtimoiy guruhlarining g'arazli niyatlaridan kelib chiqadi [130]. Tezkor taraqqiyot odatiy tamoyillar qatori vaqt va makon mutanosibligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Barcha faoliyat jarayonlarida yangicha yondashuv va rivojlanish strategiyalarining shakllanishi insonlar va mintaqalarning yaxlitlikka yuzlanishiga olib keldi. Shaxslar dunyoqarashiga o'z ta'sirini o'tkazish o'z navbatida “odamlarni ma'lum bir manfaatlarga xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli ma'no-mazmundagi axborot bosimlarining doimiy ta'siri ostida yashashga majbur qilmoqda. Bugungi kunda axborot juda keng tarqalgan bo'lib, har taraflama rang-barang ma'nolarda tushuniladi. U ishtirok etmagan bilim sohasini topish qiyin. [88] XXI asr axborotning nazariy va amaliy ijodi eng cho'qqisiga yetgan asr hisoblanadi. Shuning uchun ham XXI asrni axborot asri deb ta'kidlashmoqda. Axborotga quyidagicha ta'rif berish mumkin – axborot manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar, shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar majmuidir. Jahon tajribasidan ma'lumki, davlat axborot infrastrukturasining rivojlanishi jamiyat va davlatning hamma jabhalarini, jumladan, odamlarning dunyoqarashini va ularning mehnat, ijtimoiy va siyosiy hayotda ishtirok etishi shartlarini o'zgartirib, jamiyat rivojlanishini tezlashtiradi [130]. Axborotlashgan jamiyatda “shaxs – jamiyat – davlat” aloqadorligi, ularning o'zaro uzviyligi va yaxlitligini ta'minlash bir muncha qiyinlashadi. Chunki axborot oqimi tezlashgan va axborotlar girdobida yashash kabi murakkab, ziddiyatli vaziyatning yuzaga kelishi bevosita shaxs tafakkurining, inson dunyoqarashining keskin o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Axborot-psixologik

himoya – bu bevosita siyosiy mojarolarning oldini olish, eng avvalo, insonning o‘zini o‘zi tushunishi va fuqarolararo munosabatlarni yuksak ma’naviy-ma’rifiy mezonlar asosida shakllantirish, axborot qurolidan zamonaviy insonparvar tafakkurni, ijodkorlik ruhini, yaratuvchilik qobiliyatini, bunyodkorlik imkoniyatlarini shakllantirishni taqozo qiladi. Hozirgi kun jamiyatni boshqarish, zamon me’yorlari asosida kishilik taraqqiyotini ta’minlashning yangi usul va uslublarini qidirib topish zaruriyatini paydo qiladi. Jumladan, siyosiy-huquqiy, tashkiliy iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va axborot tizimini boshqarish kabi qator, bir-biriga uzviy bog‘liq, bo‘lgan yo‘nalishlarda boshqaruvning eng maqbul uslubini topish, bevosita hokimiyat va unga ishonch, jamiyat va davlat taraqqiyotini ta’minlashda fuqarolar yakdilligi, ma’naviy va g‘oyaviy jihatdan birligini ta’minlashni taqozo etadi. Ommaviy axborot vositalari ta’siridagi buzg‘unchi yoki ongni zararlovchi g‘oyalarning oldini olish faqat yosh avlodning ta’lim-tarbiyasiga e’tiborni kengaytirish va to‘g‘ri tashkil etish hamda sifatli ta’sirni kuchaytirishdan iborat. Bunda, albatta, pedagoglar, psixologlar, jamoatchilik, ota-ona kabi bolaga ma’sul shaxslarning bilim saviyasi va hayotiy tajribalari, ayniqsa, ahamiyatlidir. Ommaviy axborot tizimi ayni paytda ochiq axborot tizimi hisoblanadi. Chunki dunyo miqyosida axborot tarqatishni ma’lum davlatdan yoki bir joydan turib, nazorat qilib, tartibga solib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham bu tizim ochiq ommaviy axborot tizimi deb nomlanadi. Ochiq axborot tizimi deganda axborot vositalari va unda berilayotgan axborotlarning oshkoraligi, shaffofligi dunyo axborot maydonida axborot almashinuv jarayonining jamiyat ehtiyoji sifatida namoyon bo‘lishi va axborotlarning shaxs hayoti-faoliyatining ajralmas qismiga aylanib borishi jarayoni tushuniladi [130]. Axborot olish kafolati bu bevosita shaxsiy manfaatdan ustun turadigan, umummilliy manfaatga daxldor bo‘lgan qadriyatga aylanmog‘i lozim. Ana shunday sharoitda qanday mazmundagi axborotni tarqatishni man etish, jamiyatning psixologik holatiga salbiy ta’sir etuvchi ijtimoiy, milliy, diniy, etnik, tafovut va kelishmovchiliklarni kuchaytiruvchi, zo‘ravonlik va urushni targ‘ib etuvchi pornografiya, maishiy buzg‘unlik, shaxslar mavqei, obro‘si va sha’niga salbiy ta’sir etuvchi axborotlarni chegaralashning norasmiy, vijdon

bilan bog'liq bulgan, sog'lom aql va yuksak tafakkurga tayangan ma'naviy-ruhiy me'yorlarni vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi [94]. XX asrning ikkinchi yarmi tezkor, keng ko'lamdagi axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish davri, hayotning deyarli barcha jabhalariga va inson faoliyatiga kirib borishi, shuningdek, axborot makonining globallashuvi, butun jahon rivojiga ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatayotgan omili sifatida e'tirof etilmoqda. Milliy manfaatlar asosida axborot sohasida axborot xavfsizligini ta'minlash uchun, davlatning ichki va tashqi strategik vazifalari belgilanadi. Axborot xavfsizligi deganda, shaxs, jamiyat va davlatning axborot sohasida milliy manfaatlarini turli tahdidlardan himoyalanganlik holatini tushunish lozim. Axborot sohasidagi shaxs manfaatlariga, qonun bilan cheklanmagan, jismoniy, ma'naviy va aqliy faoliyatni rivojlantirishda shaxsiy xavfsizlikning ta'minlanganligi nazarda tutiladi. Axborot sohasidagi jamiyat manfaatlariga esa, shaxs qiziqishlarining qondirilishi, demokratik huquqiy davlat qurish, [76] ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanganligi tushuniladi. Axborot sohasida davlat manfaatlari inson va fuqaroni axborot olish va undan foydalanish, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy barqarorlikni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni amalga oshirish maqsadida rivojlangan milliy axborot infrastrukturasini yaratish kabilar kiradi [88]. Milliy manfaatlar, birinchidan, axborot olish hamda undan foydalanish uchun insonning konstitutsion huquq va erkinliklarini, jamiyatni ma'naviy yuksalishi, qadriyatlarni mustahkamlash, vatanparvarlik an'analarini, madaniy va ilmiy salohiyatni rivojlantirishni ta'minlaydi. Ikkinchidan, ichki bozor ehtiyojlarini ta'minlash uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini rivojlantirib, axborotlarni jamlash, saqlash va ularni maqsadli iste'mol qilish, sohada ilmiy izlanishlar natijalarini qo'llaydi. Uchinchidan, axborot resurslarini himoyalab, axborot va telekommunikatsiya tizimi xavfsizligini ta'minlaydi. Turli usullar yordamida alohida shaxs, guruh va fuqarolar psixologiyasiga (hayot mazmuni, qadriyatlari, ijtimoiy yo'naltirilganligi, qiziqish va dunyoqarashlari) ta'sir ko'rsatib, tanlagan yo'lining xatoligi, shubhaliligi, hukumatga ishonchsizlikni vujudga keltirish

maqsadida olib boriladigan har qanday harakat destruktiv axborot-psixologik ta'sir ko'rsatish hisoblanadi

Jamiyatning psixologik immunitetini shakllantirish tushunchasi, axborot sohasidagi maqsad va vazifalarini chuqur tahlil qilish zamon talabiga aylanmoqda. Milliy madaniyat, urf-odatlariga, fuqarolik qarashlar, vatanparvarlik tug'ulari – begona g'oyaga qarshi immunitetning asosi sifatida o'rganish hozirgi kunda juda zarurdir.

Axborot xavfsizligining asosiy tarkibiy qismlari: xalqaro munosabat va xalqaro xavfsizlik muammolari yo'nalishiga qaratilgan virtual kutubxonalar fondi, xavfsizlik muammolari hujjatlarni tez qidiruv tizimi, rasmiy hujjatlarga asoslangan jahon yangiliklari obzori, siyosiy inqirozlar va nizolarni belgilab beruvchi xalqaro anjumanlar, xalqaro munosabatlar muammolari va xavfsizlik muammolari ma'lumotlari o'rganish muhim vazifalardan biridir [88].

Jamoatchilik fikrini shakllantirish va o'rganish – mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Jamoatchilik fikrini sotsiologik usullar bilan o'rganish va mamlakat aholisining iqtisodiy, siyosiy hamda ijtimoiy masalalar bo'yicha rivojlanish darajasining tahlil qilish, ijtimoiy fikr monitoringini va uning tabaqalanishi, shuningdek, ijtimoiy talablarni o'rganish usullari va ochiq axborot tizimlaridan ma'lumotlarni qabul qilishni, tushunishni va talqin etishni o'rganish masalalari haligacha ochiq bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda noan'anaviy tahdidlar xalqaro mojarolarning qiyofasini butunlay o'zgartirmoqda va informatsion -psixologik xurujlar sezilarli xavf-xatar tug'dirmoqda. Ular armiyamizning negiziga putur yetkazish, avvalo, uning ma'naviy-axloqiy asoslariga ta'sir o'tkazishga urinish va shuningdek, zamonaviy internet texnologiyalaridan foydalanish orqali bizning bunyodkorlik ruhidagi boy madaniyatimiz, ma'naviy qadriyat va an'alarimizga mutlaqo zid bo'lgan buzg'unchi g'oya va tushinchalarni yoshlarimizning ongu tafakkuriga singdirishga qaratilgan bilan ayniqsa xatarlidir.

Xavfsizlikka noan'anaviy tahdid hisoblanuvchi informatsion-psixologik xurujlarni qay darajada bilamiz, anglaymiz? Keling, shu mavzuda fikr yuritaylik.

Axborot globallashuvi degan tushuncha hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, dunyo sahnida inson ongini zabt etish va shu yo'l bilan turli siyosiy maqsadlarni amalga oshirishga urinishlar bugun hech kimga sir emas. Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyas bo'lib tuyulayotgan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin, degan edi, birinchi Prezidentimiz "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida. Ha, bugun jamiyatda axborot chinakamiga qurolga aylandi. Kim jahon axborot maydonida hukmronlik qilsa, o'sha yutadi degan aqida hayotda o'z isbotini topmoqda.

Internetda axborot-psixologik xuruj nima degan savolga tarixiy misol orqali aniq, lo'nda javob berilgan. Ya'ni milloddan avvalgi III-V asrda yashagan Xitoy faylasufi va harbiy arbobi Sun Szi bugun biz ta'kidlayotgan information-psixologik xuruj qanday amalga oshirilishini bir qancha usulini bayon qilgan: dushman tarafning mamlakatidagi hamma yaxshi narsalarni parokanda qilish; dushmanning ko'zga ko'ringan arboblarni jinoiy ishlarga jalb qilish; dushman rahbarlarining obro'sini to'kish va payti kelganda ularni jamoatchilik oldida sharmanda qilish; shu maqsadda eng qabih va razil odamlar bilan hamkorlikdan foydalanish; o'zingiz dushman bo'lgan mamlakat fuqarolari orasida nizo va to'qnashuvlar keltirib chiqarish; yoshlarni keksalarga qarshi gij-gijlash, Barcha vositalar orqali hukumat ishiga halaqit berish, dushman qo'shinlarining yetarli ta'minlanishiga va ularda tartib saqlanishiga barcha usullar bilan to'sqinlik qilish, dushman jangchilari maylini ashula va musiqalar bilan band qilib qo'yish, Dushmanlaringizning an'analarini qadrsizlantirish va o'z xudolariga ishonchini yo'qotish uchun qo'lgan kelgan hamma narsani qilish, ma'naviy buzilishni avj oldirish uchun yengiltabiat ayollarni yuborish, axborot sotib olish uchun taklif

va sovg'alarga sahiy bo'lish. Umuman, pulni ham va'dalarni ham ayamaslik, chunki ular ajoyib natijalar beradi deb ta'kidlagan.

Chin yurti faylasufi aytib o'tganidek, dunyoning ishlarini kuzatar ekanmiz inson ongi va qalbi uchun kurash qadim hunarlardan ekanini ko'rish mumkin. Negaki, mohiyat deyarli bir xil. Xoh internet, xoh ommaviy axborot vositalari orqali bo'lsin, bugun ham axborotdan g'arazli maqsadlarda foydalanayotganlar, turli manfaat, maqsadlari yo'lida boshqa davlat, millatga axborot-psixologik ta'sir o'tkazishga urinishyapti.

Internet vikipediya dan ongga va ong ostiga ta'sir etadigan psixologik xuruj usullari va qo'llanish instrumentlari haqida ma'lumot ko'p [76]. Ular orasida, birinchidan psixologik xurujlar qat'iy ishonch, ishontirish, axborot berish, rag'batlantirish, majburlash, jazolash kabi ruhiy uslublar orqali amalga oshirilishini ko'rish mumkin. Ikkinchidan, harbiy vositalar, uchinchidan, dushmanga iqtisodiy zarar keltirishga qaratilgan savdo va moliyaviy sanksiyalarni qo'llash orqali amalga oshirilishi mumkin. Nihoyat, to'rtinchisi, siyosiy vositalarni ishga solgan holda psixologik ta'sir va xurujlar qo'llanilarkan. Albatta, mazkur usullarning barchasi inson dunyoqarashiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Global lug'atdan yana shunday ma'lumotlar topdik. Unga ko'ra psixologik xuruj oltita turga bo'linadi: axborot-psixologik, psixogen, psixotahliliy neyrolingvistik, psixofizik, psixotrop. Shuningdek, bunday xurujning quyidagi usullari ajratib ko'rsatilgan: verbal vositalar, bosma va tasviriyl vositalar, radio-televideniye va kompyuter texnikalari orqali ta'sir o'tkazish.

Shuningdek, internet manbasida insonga informatsion-psixologik xurujlarning asosiy manbalari sifatida davlat, hokimiyat va boshqaruv organlari, davlat tuzilma hamda muassasalari, jamiyat, turli ijtimoiy guruhlar, alohida shaxslar keltirib o'tilgan.

Darhaqiqat, axborot urushi ham informatsion-psixologik xurujlarning bir ko'rinishidir. G'arbda uning rasman muomalaga kirgan kunini mutaxassislar 1948-yilning 18-avgusti sifatida keltirishadi. "Ommaviy madaniyat" ham shular

jumlasidandir. Mazkur tushuncha dunyoqarash komponentlaridan biri bo'lganligi tufayli, u haqida ham ba'zi mulohazalarga to'xtalib o'tishni joiz topdik.

“Ommaviy madaniyat”ning maqsadi, avvalo, iqtisodiy boylik orttirish, odamlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib, bir-birini va shu bilan birga, o'zini o'zi o'ldirishigacha olib borish. Natijada esa uning tarqatuvchilari dunyo va undagi boyliklarga yagona hukmron bo'lib qolishni xohlaydilar. “Ommaviy madaniyat” shaxsning didini o'ldirib, millionlab odamlarni mustaqil fikrdan, shaxsiy munosabatdan, demak, o'zligidan, “men”idan judo qiladi.

“Ommaviy madaniyat”ning o'zbeklar ongi va qalbiga tajovuzi ancha oldin boshlangan. “Shum bola” filmini bir eslaylik. Unda bir yevropalik Toshkentga kelib, o'zbeklarning bir tangasini olib, evaziga “oynai jahoni”dan yalang'och ayol suratini ko'rsatadi. Hozir o'sha janobning nevaralari bobolari kasbini davom ettirishayotir. Bu ishni industriyaga aylantirishdi. Uning nomini “ommaviy madaniyat”, ya'ni hamma ko'rib, pul to'laydigan, instinktlarni uyg'otuvchi, hammabop, hammaga tushunarli madaniyat deb atashdi. E'tibor bering-a, “ommaviy madaniyat” ham pulimizni olayotir, ham ma'naviy saviyamizni tushirishga harakat qilib, o'zligimizdan ayirishga intilayotir, ham sezdirmagan holda sog'ligimizga hujum qilayotir. Chunki u jismonan nosog'lom odam kimningdir “muruvvati”ga muhtoj bo'lishini biladi-da. Xullas, “ommaviy madaniyat”ning ashaddiy maqsadlaridan biri – odamlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib, bir-birini va shu bilan birga, o'zini o'zi o'ldirishigacha olib borish. Natijada esa uning tarqatuvchilari dunyo va undagi boyliklarga yagona hukmron bo'lib qolishni xohlaydilar. “Ommaviy madaniyat” – bir o'lchamli hodisa emas. U o'ziga xos tur va darajaga egadir.

Ya'ni mazkur sanada AQSH milliy xavfsizlik kengashi sobiq ittifoqqa kirishiga qaratilgan direktivani tasdiqlagan. 1978-yilga kelibgina e'lon qilingan ushbu hujjat o'sha davrdagi sovuq urush siyosatiga mos bo'lib, mohiyati, maqsadi axborot muhorabasi bilan singdirilgan. Aniqroq qilib aytganda, dushman tarafni imkon qadar siyosiy, harbiy, psixologik, iqtisodiy tomonlama kuchsizlantirish maqsad qilib olingan. Mazkur hujjatning aynan informatsion-

psixologik xuruj bilan bog'liq qismida barcha vositalar dushman tarafning irodasini bo'shashtirish, siyosiy va qarama-qarshi ikki qutb, ikki mafkura o'rtasida ko'rishning bunday usullari, informatsion-psixologik xurujlar ko'p qo'llanilgan [88].

Yoshlar dunyoqarashning shakllanishiga axborot orqali inson ongi va ong ostiga ta'sir o'tkazishning usullari shakllanib bormoqda, narsa va buyumlarga bo'lgan munosabat, brend mahsulotlaridan foydalanuvchilari bo'lgan munosabat o'zgarishiga olib kelmoqda.

Global tarmoqda 2012-yilning 21-dekabrda qiyomat-qoyim bo'ladi, degan axborotni olib qaraylik, ommaviy axborot vositalarida bu mavzu rosa muhokama qilingani esingizdan chiqmagandir. Mazkur axborot urushi turli mamlakatning davlat hokimiyati tomonidan o'ylab topilgan, qabiladagi fikrlar ham yo'q emas. [88]. Ya'ni jamoatchilik qo'rquvga tushgan holatda hukumat barqaror, qutqaruvchi va zarur institut sifatida o'zini namoyon etib, hayotiy muhim qarorlar qabul qilishi mumkin. Qolaversa, oxir zamon haqidagi axborot aholini siyosiy, iqtisodiy ijtimoiy va boshqa muammolardan, demakki, bunga sababchi bo'lgan boshqaruv tuzilmalariga noroziliklardan chalg'itadi. Yoki bunday axborot urushidan mahsulotlarni sotishni ko'zlangan savdo tashkilotlari ham manfaatdor. Hatto "oxir zamon" arafasida hayotini saqlab qolish maqsadida odamlarga bunkerlardan joy sotgan qallob kompaniyalar paydo bo'lgani ham sir emas. [88].

Jahondagi shaxs va jamiyat muammolarini o'rganuvchi mutaxassislar, shaxsning sotsiumga qo'shilishi, unda kommunikativ madaniyatni rivojlantirish asosi sifatida – ijtimoiy-psixologik qadriyat shakli sifatida diniy e'tiqodni o'rganish lozimligini ta'kidlashmoqda. Shu bois, jahon psixologiyasida diniy e'tiqodni o'rganishning uslubiy muammolarini, diniy dunyoqarash tabiatini, hozirgi ommaviy madaniyat sharoitidagi yoshlarning diniy e'tiqod jihatdan o'xshashligini, shaxsning diniy e'tiqodi va ijtimoiy hamkorlikni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo miqyosida diniy dunyoqarash, dinning o'zidan farqli ravishda uning muayyan konfessional tushunishida, murakkab, tizimli va o'zgaruvchan bo'lgan bir sharoitda butun jahon jamoatchiligini din,

diniy dunyoqarash tushunchalarining mohiyatini o'rganuvchi tadqiqotlarga bo'lgan muayyan ehtiyoj tobora ko'proq sezilmoqda. Shunday ehtiyojni to'ldirish uchun diniy dunyoqarashni to'g'ri tushunish, baholash uchun uning ilmiy jihatdan asoslantirilgan tavsiflarini, diniy dunyoqarashning paydo bo'lishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini, uning mazmunan talqin qilinishini, ijtimoiy-psixologik qadriyatlar va ustunliklar ulushini inobatga olish zarur. [94]. Shunga bog'liq holda, diniy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatlarini, uning turlicha namoyon bo'lishini ochib berish imkoniyatini beradigan tegishli empirik material hamda ularning ilmiy jihatdan takomillashtirish bo'yicha doimiy ravishda tadqiqotlar olib borishga zarurat borligidan dalolat beradi. Diniy e'tiqodni ijtimoiy-psixologik o'rganishning uslubiy muammolari o'rganilgan bo'lsa-da, bevosita hozirgi yoshlarning diniy dunyoqarashini o'rganish bo'yicha izlanishlar o'tkazilmagan. Binobarin, o'rganilayotgan muammoning ijtimoiy ahamiyatliligi, ijtimoiy-psixologik amaliyotga bo'lgan qarashlarni ilmiy jihatdan yetarli darajada ishlab chiqish alohida tadqiqot muammosi sanaladi [88].

Bugungi kunda ularni bir xil, qabul qilingan tarzda tushunish va tegishlicha ta'riflash kuzatilmaydi. Shunga bog'liq holda, olimlarning ushbu o'rganilayotgan hodisaga nisbatan bo'lgan fikrlarini yanada batafsilroq ko'rib chiqish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Masalan, R.A.Fink, O.F.Lobazovalarning fikricha, din odamlarning ma'lum bir ilohga sig'inib boshlagan davrlarida paydo bo'lgan, din paydo bo'lganidan keyin esa diniy e'tiqod, diniy dunyoqarash va boshqa tushunchalar ham paydo bo'lgan [88]. Din deganda, odatda, inson va Xudo o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi haqiqat, buyruq, talablarning majmuasi tushuniladi. Diniy e'tiqod tushunchasi esa ko'proq tegishli kishining, ularni bajarishga o'ziga o'zi majburiyat oluvchi diniy me'yorlar tizimiga individual, shaxsiy munosabatini ifodalaydi. Diniy e'tiqod o'z ichiga diniy tasavvurlar, ma'naviy his-tuyg'ular va turlicha marosimlarga va boshqalarga munosabatida namoyon bo'luvchi diniy dunyoqarashni qamrab oladi R.M.Axmedovning fikriga ko'ra, diniy e'tiqod tushunchasining ta'rifi, umuman, dinni o'rganishning muhim va bazaviy

tushunchalaridan biri sifatida talqin qilinib, diniy g'oyalar, qadriyatlar, me'yorlarning subyektiv o'zlashtirilishining sifat va miqdor aniqligini va ularning N.A.Krasnikovning fikricha, din murakkab ma'naviy ta'lim sifatida nafaqat ijtimoiy-tarixiy hodisa, dunyoqarash turi, madaniyat aksi, jamoatchilik ongi shakli emas, balki shaxsiy fenomen sifatida maydonga chiqadi, chunki inson turmushi individual darajada qabul qilinadi, ya'ni muayyan individning ongida tahlil qilinadi [94]. Din, o'zi, inson turmushining potensial imkoniyati sifatida borliqning abstraksiyasi bo'lib maydonga chiqadi. U haqiqiy muayyan hayotga ideal shakl beradi. Din o'zini diniy munosabatlarda namoyon qiladi va o'zini dolzarblashtiradi, shularga tayanib haqiqiy turmush maqomiga ega bo'ladi. Diniy e'tiqod, diniy dunyoqarash tushunchalarining mavjud bo'lishiga ehtiyoj shu bilan tushuntiriladi. Shaxsning diniy dunyoqarashi – umumtizim psixik hodisalari sirasiga taalluqli fenomen hisoblanadi. Dunyoqarashning diniy yoki ilmiy shaklga ega ekanligi tashqi muhitga olib chiqadigan kanallarni o'ziga xos tarzda nazorat ostida ushlab turish orqali insonning muhit bilan bo'lgan o'zaro ta'sirini belgilaydi. G'arb xalqlarining dunyoqarashi va Sharq xalqlarining dunyoqarashi – bu ikkisinin o'rtasida muayyan farqlar mavjudligi sababli, mazkur farqlarni bilish, tasnif va tahlil qilish ijtimoiy voqeligimiz taqozo qilib turgan vazifadir. Har bir sohada ilmiy yondashuv shart bo'lganidek, mazkur nozik sohaga ham shunday – ilmiy yondashuv lozim. Dunyoqarashlar orasidagi tafovutni hisobga olmasdan birining unsurlarini boshqasiga ko'r-ko'rona, o'rganishsiz, tadqiqsiz o'tkazish mas'uliyatsizlik va noilmiy yondashuvga misol bo'la oladi. Ijtimoiy masalalar ko'rilayotganda xalqning ma'naviy konsepsiyasi – dunyoqarashiga oid jihatlari atroflicha o'rganilishi, tahlil qilinishi va hisobga olinishi lozim. Ko'p narsalar yoshlar ongida isloh bo'lishi kerak narsalar ko'p. Ammo o'sha – isloh bo'lishi lozim bo'lgan narsalar nima, degan savolga tadqiqotsiz javob berib bo'lmaydi. Binobarin, tadqiqsiz hech narsani isloh qilib ham bo'lmaydi. Kim ko'p axboroti bilan odamlar ongini zabt etib, ularni bafurja o'ylab ko'rishga imkon bermasa, o'sha yutadi, degan gap to'g'riga o'xshaydi [88].

1.3§. Axborotlarning jamiyatda tutgan o‘rni va yoshlar dunyoqarashi shakllanishiga ta’siri

Biz uchinchi ming yillikka qadam qo‘ydik. XXI asrni o‘z navbatida axborot asri desak, adashmaymiz. Bunda axborotsiz ishlab chiqarish rivojlanishini tasavvur etib bo‘lmaydi. Hozirda ommabop texnik vositalardan unumli foydalanish fan, ishlab chiqarish, iqtisodiyot va hokazo barcha sohalarda juda muhimdir.

Axborot – (lotincha “informatio” – tushuntirmoq, bayon etmoq) zamonaviy fan va siyosatning asosiy tushunchalaridan biri; dastlab kishilar tomonidan og‘zaki, keyinroq yozma yoki boshqa shakllarda uzatilgan ma’lumot: XX asrning o‘rtalaridan boshlab insonlararo, inson-avtomat, avtomat-avtomat o‘rtasidagi ma’lumot hamda hayvonlar va o‘simliklardagi signal almashinuvi, hujayradan-hujayraga muayyan belgilarning uzatilishi va shu kabilarni anglata boshladi. Ijtimoiy hayotga tatbiqan axborot-kishilar, predmetlar, faktlar, hodisalar, jarayonlar va shu kabilar haqidagi ma’lumotlar majmuini anglatadi. Axborot iste’moli madaniyati tushunchasiga ahamiyat qaratilishi lozim bo‘lgan bir davrda yashar ekanmiz, uning nima ekanligini, uni shakllantirish yo‘llari haqida o‘ylash davrning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Axborot iste’moli madaniyati bu – axborot dunyosidan ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi ma’lumotlarni saralab olish borasidagi bilimlar, qobiliyat va malakani o‘zida ifoda etadi. Axborot iste’mol madaniyati ham madaniyatning boshqa shakllari kabi bir qator funksiyalarni bajaradi. Kommunikativ, regulyativ (tartibga solish), axborot, aksiologik (baholash) kabi funksiyalar shular jumlasidandir. Biz tahlil etayotgan muammo doirasida axborot iste’moli madaniyatining aksiologik funksiyasi alohida ahamiyatga ega. Masalan, internet orqali juda ko‘p ijobiy ma’lumotlar bilan birga, Sharq madaniyatiga, xususan, kishilarimiz xulqu odobiga salbiy ta’sir etuvchi axborotlar ham uzatilayotgan, tabiiyki, kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz g‘oyaviy tarbiyasiga salbiy ta’sir etishi mumkin. Axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish orqaligina bunday ta’sirlarning oldini olish mumkin. Shuningdek, “biz ba’zan G‘arb madaniyati

to'xtovsiz kirib kelayotgani haqida taassuf bilan gapiramiz. Bu shunday kuchli oqimki, unga qarshi chiqish juda mushkul. Buning faqat bitta yo'li bor. U ham bo'lsa, internetga o'zimizga mos bo'lgan ma'lumotlarni o'z vaqtida kiritishdan iborat⁷. Axborotdan foydalanish madaniyati hech qachon o'zidan o'zi kelmaydi, bunday madaniyat bir qator omillarga bog'liq. Birinchidan, axborot iste'molchilari yuksak shaxsiy madaniyatga ega bo'lishlari lozim. Ikkinchidan, OAV va boshqa manbalardan kelayotgan ma'lumotning mag'zini chaqib, uning mualliflarining maqsadlarini anglab olish kerak. Uchinchidan, kasbiy o'sish va shaxsiy dunyoqarashni rivojlatiradigan ma'lumotlarni olib, keraksiz axborotni tez esdan chiqarish zarur va h.k.

“Inson” degan nom g'oyatda ulug', uning martabasi baland, shuning uchun ham komillik yo'llaridan dadil qadam tashlash har bir odamning birlamchi va mas'uliyatli burchidir. Komil inson martabasiga faqat oshiqlik tuyg'usi ila, hikmat egallash yo'li bilan erishiladi. Inson, barkamollik pillapoyalaridan, dunyodagi barcha narsalarga va odamlarga bo'lgan muhabbat his-tuyg'usi bilan bilimlar egallash orqali o'z-o'zini tarbiyalash va chetdan beriladigan ta'lim-tarbiya natijasida, ko'tarilib boradi. Tarbiya axloqni shakllantirsa, bilim tafakkurga kuch beradi. Bularga xohish, intilish va shijoat qo'shilib, uyg'unlikda insonni komillik sari yetaklaydi. Xohish intilish moslashish va shijoat esa, kishida, faqat muhabbat natijasida paydo bo'ladi⁸. Dunyoqarash – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni ma'lum bir qolipda, o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o'rin egallashga chorlaydi⁹.

Har bir kishining dunyoga nisbatan o'z qarashi, o'zi va o'zgalar, hayot va olam to'g'risidagi tasavvurlari, xulosalari bo'ladi. Muayyan davrda dunyoqarash shakllanadi. Shu ma'noda, har qanday dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy mohiyatga ega bo'ladi. Tadqiqotimiz obyekti bo'lgan yoshlarning bugungi kunda dunyoqarashi amaliy faoliyati, hayoti, tabiatga ta'siri va mehnati jarayonida

⁷ Зиёмуҳаммадов Б., Исмоилов Ф. Баркамол авлодни вояга етказиш сирлари. – Т.: Сано-стандарт. 2011. – Б. 7.

⁸ Д.Шокиров. Шахс дунёқараши ва эътиқодининг ўзгарувчанлик хусусиятлари. Sentral Azian akademik jurnal of Ssientifis Research ISSN: 2181-2489 VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2022.

shakllanmoqda. Har bir davrda ijtimoiy guruh, jamiyat va avlodning o'z dunyoqarashi mavjudligi kabi, bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, virtual olam masalalari ham yoshlar dunyoqarashiga ta'sirini ko'rsatib yangi avlod yoki davr dunyoqarashini paydo bo'lmoqda. Mazkur masalani tadqiq qilishda asosiy tushunchalarning mohiyatini ochish joiz deb hisobladik. Dunyoqarash, avvalo, insoniy munosabatlar ifodasidir. Shu nuqgai nazardan, u insonning borliqqa munosabatida, dastlab uning bahosi tarzida ko'zga tashlanadi.

Shaxsning alohida komponenti tarkibdan joy olgan dunyoqarash tushunchasi bir qancha shaklga egaligini olimlar tamonidan e'tirof etilgan. Dunyoqarash shaklini inson qalbidagi quyidagi holatlar belgilaydi:

- emotsional-ruhiy holatlar;
- e'tiqod;
- e'tiqodning xatti-harakatlarda ifoda etilishi.

Bilim axborotlar majmuining idrok qilinishidir. Axborot esa ma'lumot berish, tushuntirish, izohdir. Biz atrofga qarasak, ko'rish sezgisi, biron narsa eshitsak, eshitish sezgisi orqali axborot olamiz. Biror narsa so'zlasak yoki ko'rsatsak, axborot beramiz. Demak, qiladigan ishimiz, vazifamiz, asosan, axborot olish, yig'ish, qayta ishlash va uzatishdan iborat ekan. Bularning barchasini umumlashtirgan holda informatsiya almashish jarayoni desak adashmaymiz.

Axborot turli sohalarda turlicha tushunib kelinadi. Masalan, dehqon uchun axborot – ertangi ob-havo, yerning ozuqa bilan to'yinganligi yoki yetishtirilgan mahsulotning bozordagi narhi; tibbiyot xodimlari uchun – bemorning kasallik tashxisi, dori-darmonlar; muhandislar uchun – texnika va texnologiyalar; o'quvchi uchun – fanlardan olayotgan ma'umotlari.

Boshqa sohalarda ham o'z soharlari bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni axborot sifatida qabul qiladilar. Demak, inson doimo axborot bilan ish ko'rib kelgan.

Axborot nazariyasi asoschilaridan biri amerikalik Klod Shenon axborotni narsa haqidagi bilimlarimizdagi noaniqlikni bartaraf etilishi kabi e'tirof etadi.

Shaxs yo‘nalganligining alohida komponentlari

Shaxs yo‘nalganligi komponentlari	Tushunchalar izohi
Xohish	Anglanmagan ehtiyojlarga intilish
Istak	Inson tomonidan aniq anglangan ehtiyojlar
Intilish	Irodaviy komponent mavjud bo‘lgan to‘siqlarni yengib o‘tib, istaklarga yetishishga tayyorlik
Ideal	Bekami-ko‘st tasvir, individning intilishlarini oliy maqsadlari obrazi, shaxsning hozirgi real imkoniyatlari chegarasidan tashqaridagi orzu-umidlari, ular ongida bor, lekin har doim ham amalga oshmaydi. Chunki ularning paydo bo‘lishiga sabab bevosita tashqi muhit bo‘lib, o‘sha ideallar obyekti bilan shaxs imkoniyatlari o‘rtasida tafovut bo‘lishi mumkin.
Qadriyat	Shaxs uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan atrofda uni o‘rab turgan odamlar, narsa va hodisalar.
Ustanovkalar	Individning vaziyat taqazosi bilan faollashgan, aniq bir faoliyatga tayyorligi. U individning xulq-atvori va tushunchalarida namoyon bo‘luvchi muayyan, turg‘un idrokka moyilligi.
Maqsad	Insonning aniq faoliyat natijalarini ongida xohlashi va tasavvur qilishi. Maqsadlar doimo o‘zining anglanganligi va shaxs real imkoniyatlariga bog‘liqligi bilan xarakterlanadi.
Qiziqishlar	Anglangan motivlardan bo‘lib, ular shaxsni atrofida ro‘y berayotgan barcha hodisalar, olamlar, ularning o‘zaro munosabatlari, yangiliklar borasida faktlar to‘plash, ularni o‘rganishga imkon beruvchi omildir. Qiziqishlar mazmunan keng yoki tor, maqsad jihatidan professional, bevosita yoki bilvosita bo‘lishi, vaqt tomondan barqaror, doimiy yoki vaqtinchalik bo‘lishi mumkin.
Dunyoqarash	Dunyo, jamiyat, tabiat va o‘zi haqidagi haqidagi tasavvurlari tizimi (diniy, falsafiy, siyosiy, iqtisodiy, etnik va boshqa dunyoqashash turlari farqlanadi). Tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g‘oyalar majmui.
E’tiqod	Shaxs yo‘nalganligining olish shakli, hissiy kechinmalar va irodaviy intilishlar fonida o‘z qadriyatlari o‘ynalishiga muvofiq harakat qilishning ongli ehtiyojida namoyon bo‘ladi. Individning, siyosiy, huquqiy, falsafiy, axloqiy, ilmiy g‘oyalarga, me’yorlarga qat’iy ishonchni, ularga sodiqlikni, butun kuch-shijoati, aql-zakovati, irodasini halol yashashga safarbar eta olish.

Kibernetika fanining asoschisi Norbert Viner axborotni bizni va sezgilarimizni tashqi olamga moslashuvimizdagi mazmunni ifodalash,- deb qaraydi. Axborotga olimlar tomonidan yuqoridagi kabi ta'rif berishga urinishlar ko'p bo'lgan. Lekin, axborot tushunchasiga har tomonlama ilmiy asoslangan ta'rif berish mumkin emas, chunki u juda ko'p ma'nolarni o'z ichiga oladi. Axborot haqidagi tushunchaga ega bo'lish uchun hayotingizdagi bir misolni esga olaylik. Go'daklik vaqtingizda "muzqaymoq" so'zini esga olaylik. Go'daklik vaqtingizda **muzqaymoq** so'zi sizga faqatgina "**mazali shirinlik**" ma'nosini anglatardi. Uni boshqa shirinliklar ichidan nomi, ko'rinishi, ta'mi, hidi yoki sovuqligidan ajratib olardingiz. Maktab yoshingizda **muzqaymoq** so'zi "shakar, qaymoq, kakao yoki kofe, temperatura, tomoq og'rig'i, angina, vrach, lor, ishlab chiqaruvchi davlatlar" kabi o'zaro bog'langan modda va tushunchalar hamda muzqaymoqni tayyorlash usullari bilan bog'liq ma'lumotlar bilan to'ldi. Keyinchalik esa "**muzqaymoq**" molekulalardan iboratligi haqida ma'lumot oldingiz. Lekin bu hali muzqaymoq haqidagi lo'liq ma'lumot emasligini, vaqti kelib bu so'z yana boshqa ma'lumotlar bilan to'lishini tushunish qiyin emas. Demak, inson yillar davomida hayotdan ma'lumotlar olar ekan, birini ikkinchisi bilan bog'lab to'ldirib boradi.

Yuqoridagi misol va alloma **Farobiy** fikrlaridan kelib chiqib axborotni qanday tushunish mumkin degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

AXBOROT deganda biz barcha sezgi a'zolarimiz orqali borliqning ongimizdagi aksini yoki ta'sirini, bog'liqlik darajasini tushunamiz.

Demak, axborot borliqdagi narsa yoki jarayonlarning holatlari, xossalari va boshqa xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarning turli vositalar va sezgi a'zolarimiz orqali bizga yetib kelishi va ongimizga ta'siri hamda bu ma'lumotlarning ongimizda boshqa ma'lumotlar bilan bog'lanishi ekan. Demak, INSON borliqning bir qismi bo'lgani uchun, u o'zi haqida ham (og'riq, isib ketish, charchash va hokazo) ma'lumot oladi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, hozirgacha yig'gan barcha ma'lumotlarimiz axborot bo'lib, axborotlar bog'langach esa bilimni tashkil etadi.

Mutaxassislarning fikricha, hozirda axborot iqtisodiyotning eng serdaromad manbaiga aylanib bormoqda. AQSH Strategik tadqiqotlar institutining ma'lumotlariga ko'ra, axborot mahsulotiga sarflangan har bir dollar, yoqilg'i- energetika sohasiga sarmoya qilingan 1 dollardan ko'ra bir necha barobar ko'p foyda berar ekan. Bu faqat uning iqtisodiy jihati, uning siyosiy jihati esa o'z shaxsiy manfaatlariga o'ta arzon, o'ta qulay yollar bilan erishish sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda axborot omili ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan ayrim kuchlar manfaatiga aylanib bormoqda¹⁰. Shuning uchun ham yangi mustaqil davlatlarning milliy xavfsizligini ta'minlashda siyosiy, iqtisodiy, harbiy omillar bilan bir qatorda uning axborot jihatlari borgan sari dolzarblashmoqda.

Ayni paytda mutaxassislar har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan birga mudofaa qudrati ham axborot tizimi va texnologiyalariga bogliqligini ta'kidlashmoqda. Shu o'rinda jamiyat hayotining turli sohalarini kompyuterlashtirish, elektron kommunikatsiyalar, elektron ko'rinishdagi ma'lumotlar bazasi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ijobiy natijalar bilan bir qatorda, axborot tizimlariga buzgunchilik maqsadida ta'sir etishni ko'zda tutuvchi yangi "axborot quroli"ning ta'siri kuchayishiga olib kelayotganini aytib o'lish joiz. Bu esa o'z navbalida, mamlakatimizning axborot resurslari va telekommunikatsiya tarmoqlarini noqonuniy maqsadiarda ishlatishga qarshi himoya choralarini ko'rish va ulaning benuqson faoliyatini ta'minlashga da'vat etmoqda. Axborot globallasuvi va shaxs ma'naviyati, har qanday axborot oqimining shaxs ma'naviyatiga ta'siri xususida so'z yuritganimizda, avvalo, bu masala zamirida jamiyatimizning, davlatimizning milliy xavfsizligi yotganini nazarda tutishimiz lozim. Zero, bu mavzuda so'z yuritish ekanmiz, avvalo, ikki masala mavzuning dolzarb nuqtasiga aylanadi:

Birinchisi – axborot oqimi-mafkuraviy tahdid;

Ikkinchisi – shaxs ma'naviyati, ya'ni turli xildagi axborotlarga nisbatan shaxsda shakllangan immunitet masalalaridir. Gap shundaki, axborot oqimi o'z

¹⁰ Зиёмуҳаммадов Б., Исмоилов Ф. Баркамол авлодни вояга етказиш сирлари. – Т.: Сано-стандарт. 2011. – Б. 9.

mohiyatiga ko'ra ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan boladi. Uning qanchalik shaxsga ta'sir qilishi uning oldiga qo'yilgan maqsadi sari puxta yo'naltirilganligiga bog'liq. Tabiiyki, axborot oqimining salbiy ta'siri esa ularda shakllangan mafkuraviy himoya tizimining mukammalligi omiliga bogliq. O'tish davrida axborot mafkuraviy idrok etish bilan bogliq vaziyatning murakkabligi, ya'ni davlat, jamiyat va shaxsda mafkuraviy raqobat borasida yetarlicha demokratik tajriba yo'qligida hamdir. Ommaviy axborot vositalari tinglovchilarining ko'pchiligi siyosiy mavzudagi har qanday axborotni rasmiy axborot sifatida qabul qiladi. Axborotlar xarakteri va tartibi siyosiy osoyishtalik va barqarorlikning o'ziga xos parametri bo'lib xizmat qiladi. Agar fikrlar xilma-xilligi holati namoyon bolsa, beqarorlik ko'rsatkichi, siyosiy munosabatlar tizimida muammoli vaziyat yetilib kelayotganining o'ziga xos alomati sifatida talqin qilinadi.

Ikkinchi masalada, avvalo, shaxsning mafkuraviy immuniteti bugungi kunda qanday shakllangan degan savol paydo boladi. Masalani inson omili nuqtai nazaridan o'rganadigan bolsak, mafkuraviy immunitet – har qanday axborot ta'siriga tushib qolmaslik, avvalo, o'sha inson ongu-tafakkuri, idroki nechog'lik o'tkirligiga, chuqur mushohada qilish qobiliyatiga bog'liq. To'g'ri, avvalo, hammada ham bunday qobiliyatlar birdek rivojlangan emas. Ammo, bu qobiliyatlarni shakllantirish, idrok ko'nikmalarini hosil qilish, inson tug'ilganidan to shaxs sifatida shakllanguniga qadar davom etadi. Xususan, bunda ma'lum bir yoshning ko'p kitob o'qishi, o'z mamlakati tarixini o'rganishi, urf-odatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiya topishi, bir so'z bilan aytganda, unda milliy e'tiqod – milliy faxr shakllanishi muhim o'rin tutadi. O'z millati qadriyatlarini qadrlagan, o'z tarixini bilgan, Vatanga e'tiqodi shakllangan yoshlarning axborot oqimlarining ta'siriga tushib qolish ehtimoli kam. Chunki bunday yoshlarda o'ziga xos psixologiya va masalaga o'ziga xos yondashuv paydo bolgan boladi. U har qanday axborot zamirida malum bir maqsadni o'rgana boshlaydi. Sobiq ittifoq davrida chetdan kirib kelayotgan axborot oqimi qattiq nazorat qilingan. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, axborot oqimiga keng yo'l ochildi. Tabiiyki, hali axborotga “och bolgan” aholi kirib kelayotgan

axborotni saralamay turib, “iste’mol” qila boshlaydi. Ular hali yaxshi va yomon, kerakli va keraksiz axborotning farqiga bormasdilar, bir so‘z bilan aytganda, aholida xolis axborot oqimidan noxolisini ajratib olish uchun idrok shakllanib ulgurmagan edi. Yoshlar o‘zining harakatchanligi va yangilikka intiluvchiligi hamda bo‘sh vaqt resursiga egaligi tufayli yuqori darajada kommunikativ faollik ko‘rsatishadi. Boshqa guruhlarda esa, nisbatan passivlik kuzatiladi. Ularga xos bunday xususiyatlar salbiy oqibatlarini ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu birinchi guruh uchun tobora faollashayotgan agressiv siyosiy ta’sirga berilib ketish xavfining mavjudligida, ikkinchi guruhning esa, pozitiv mazmunga ega axborotlar ta’siridan tashqarida qolishi bilan belgilanadi. Bugungi kunda yoshlarni internet ma’lumotlarini saralab, tanqidiy ko‘z bilan qarab, tanlab o‘rganishlarini tarbiyalash lozim. Mazkur holatni amalga oshirish uchun, mamlakatimizda internetdan foydalanish tizimini yanada rivojlantirish bilan birga, mazkur tarmoqqa milliy manfaatlarimiz aks etgan axborotlarni turli shakl va tillarda kiritib borish zarur. Turli xil axborot xurujlarining yoshlar dunyoqarashini shakllanishida salbiy ta’sirini oldini olish dolzarb masala ekan, uning yechimi bo‘yicha tadqiqotlar olib borish zaruriyati tug‘ilaveradi. Ushbu masalaga oydinlik kiritish uchun, avvalo, egosentrizm kabi tushunchalarga izoh berish darkor. Egosentrizm so‘zi – lotincha “ego” – men va “centrum” – doira markazi so‘zlaridan olingan bo‘lib, o‘z fikr-o‘ylari, manfaatleri doirasida qotib qolgan insonning atrof-muhit va odamlarga oid o‘z bilimlari va o‘zgalarga munosabatini o‘zgartira olmasligini bildiradi [88]. Psixologiyada egosentrizm bir qancha turlari mavjud. Ular bilishga oid, axloqiy, kommunikativ va boshqalarga biror xil ma’lumot berish jarayonida ularning fikri bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslikdir. Nazarimizda, zamonaviy informatsion xurujlar mualliflarida aynan shunga o‘xshash egosentrizm kuzatiladi va ular o‘zlariga o‘xshash faqat o‘z manfaatinigina ko‘zlaydigan avlod ongini qamrab olishga harakat qiladi. Shuning uchun ham shaxsga psixologik himoya zarur. Psixologik himoya bo‘lishi uchun shaxsda mustaqil fikr, ma’naviy, falsafiy milliylikka asoslangan dunyoqarash shakllangan bo‘lishi lozim deb hisoblaymiz.

II. BOB. VIRTUAL IJTIMOIIY MAKON TAHDIDLARINING YOSHLAR DUNYOQARASHIGA TA'SIRINI O'RGANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI VA METODLARI

2.1. Virtual ijtimoiy makon tahdidlarining yoshlar dunyoqarashiga ta'sirini tadqiq qilishning metodologik jihatlar va metodlari

Ijtimoiy psixologiya fani sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish va natijalar qayd etilganligi asosida ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishda muayyan metodologiyaga tayanish juda muhim ahamiyatga egadir [88; 2012-y.]. Ijtimoiy psixologiyada axborot tahliliy xususiyatlar, asosan, rus psixologlari N.N.Bogomolova, G.M.Andreyeva, Y.V.Shoroxovalarning ayrim tadqiqotlarida birlamchi guruh negizida o'rganilgan [94; 2004-y.]. Shuningdek, B.D.Parigin, A.I.Antonov, N.N.Obozov, Y.E.Aleshina, S.I.Golod, O.A.Karabanova, G'arb olimlaridan G.Roland, D.Vagen, Y.Burgess, L.Terman, M.Odema, R.Veyss, E.Tiydlar etnik masalalarini, axborot xavfsizlik jihatlarini, shaxslararo munosabat motivlarini o'z ilmiy ishlarida ochib berishga harakat qilganlar. Tadqiqotimiz nazariy-metodologik asosini bilishning umumiy tamoyillari, sotsiologiya, falsafa, konfliktologiya, psixologiyaning umumiy qoidalari, shaxsning axborot xavfsizligi muammosining kompleks va fanlararo xarakteri quyidagi asosiy ilmiy tamoyillardan foydalanishga asoslanadi: ilmiylik, obyektivlik, tarixiylik, determinizm (K.A.Abulxanova-Slavskaya, V.G.Aseyev, P.P.Buyeva, V.I.Kupsov, S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, B.F.Lomov) tizimlilik va rivojlanish, ong birligi, faoliyat va muloqot (B.G.Anan'yev, L.I.Ansiferova, A.L.Juravlev, A.N.Leontyev, B.f.Lomov, S.L.Rubinshteyn, A.R.Luriya, Y.V.Shoroxova). Yuqoridagilar qatorida, tadqiqotning nazariy va metodologik asoslari sifatida psixologiya fanining ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo'nalganlik to'g'risidagi konsepsiyalar; A.N. Leontyev (1984), L.S.Vigotskiy (1982), B.G.Ananyev (1977), L.I.Bojovich (1986), A.V.Petrovskiy (1989), I.V.Dubrovina, D.I.Fel'dshteynning o'quvchi shaxsining muloqot jarayonida shakllanishi to'g'risidagi nazariyasi; o'qitish jarayonini gumanistik konsepsiyasi

(K.Rodgers (1961-1965); tizimlilik tamoyili (B.F.Lomov), shaxslararo munosabatlar nazariyasi (V.V.Nikandrov (2008), V.A.Ganzen (1984) psixologiya fanining ong va faoliyat birligi, determinizm, taraqqiyot tamoyillari va o'zbek psixologiya maktabi vakillarining internet aloqalarining, o'yinlarining shaxs xulq-atvoriga ta'siri jarayoniga bag'ishlangan izlanishlari asos sifatida xizmat qildi.

Ularning nazariy qarashlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Shaxsga yo'nalganlik yondashuviga, ijtimoiy makon shaxs dunyoqarashining o'zgarishiga o'z ta'sirini o'tkazishi, uning individualligi yuqori deb hisoblanishi asos qilib olinadi.

Virtual ijtimoiy makonning yoshlar dunyoqarashiga ta'sirini tadqiq etishning metodologik tamoyillarini ko'rib chiqamiz. Bizning fikrimizcha, mazkur tizimni uchta tamoyildan foydalangan holda metodologik tahlil qilish mumkin bo'ladi. Bularga: faoliyat tamoyili, tizimlilik tamoyili va taraqqiyot tamoyili kiradi. Ta'kidlash joizki, ko'plab metodologik tamoyillardan aynan shularni tanlab olishning mantiqli sababi mavjud. Bu mantiqqa, asosan, mazkur metodologik tamoyillar shaxsnining o'ziga xos xususiyatlarini, rivojlanish spetsifikasini, dunyoqarashi tizimini aniqroq tahlil qilish imkonini beradi.

Faoliyat tamoyillari nuqtai nazaridan, mazkur tamoyil quyidagi holatlar bilan xarakterlanadi: a) dastavval jarayon virtual olam foydalanuvchisining faoliyatini o'zida shakllantiradi; bunda, asosan, mazkur faoliyatning tashkiliy ko'rinishlari, darajalari, hamkor faoliyatning mazmuni muhim ahamiyat kasb etadi.

b) tadqiqot obyektni aynan loybaratoriya sharoitida emas, internet foydalanuvchilarini bevosita virtual muloqot ta'sir nuqtai nazaridan tadqiq etish, balki real ijtimoiy munosabatlar zahirida o'rganish kerak. Bunda axborot vositalari orqali munosabatlar birinchi navbatda, shaxslararo kommunikativ muloqot ekanini e'tiborga olish zarur. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari o'z faoliyati natijasida, ma'lum ta'sir usullari yordamida yoshlarda ma'naviy-ruhiy o'zgarishlar paydo qiladi. Bu o'zgarishlarni

aniqlashning mezonlarini ishlab chiqish esa masalaning eng muhim tomonidir. [88].

v) virtual olam foydalanuvchilari faoliyatini tahlil qilishda ularning ehtiyojlari, motivlari, normalari, qadriyatlari, maqsadlari va boshqalarni e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Eng muhimi, shaxsini yaxlit bir tashkiliy tuzilma sifatida qarashdir.

g) internet ma'lumotlarini o'zlashtirish natijasida nafaqat shaxs ma'naviy-ruhiy olamida ma'lum o'zgarishlar, balki o'sha foydalanuvchilarning o'zida ham ma'lum o'zgarishlar, aksariyat hollarda rivojlanish kuzatiladi [88]. Ilmiy-tadqiqot ishida shaxs virtual kommunikatsiyasini uning rivojlanishi dunyoqarashining o'zgarishi nuqtai nazaridan o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy dunyoda virtual ijtimoiy tarmoqlar deyarli har qanday inson hayotida tanish bo'lgan, so'nggi yangiliklar, global voqealar va tanishuvlar imkonini beruvchi eng yaqin hududlardan biriga aylangan [76]. Virtual olam nafaqat yangiliklardan xabardor bo'lish imkonini beradi, balki shaxsning nimaga qiziqtirayotganiga qarab turli faoliyatlar bilan shug'ullanishga yo'l ochib beradi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlar tanishadilar, uchrashuvlar belgilaydilar va bir necha yuz kilometr uzoqlikdagi do'stlari, tanishlari va hamkasblari bilan muloqot qilishlari mumkin.

Jamiyatda individual xulq-atvorni tartibga solish mexanizmlari masalasi sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, umumiy psixologiya, shaxs psixologiyasi sotsiologiyaning asosiy masalalaridan biri. Bunday fanlararo yondashuv tabiiy ravishda shunga o'xshash konseptual apparatlardan foydalanadi, ba'zan boshqa nazariyalardan tushunchalar va konseptual sxemalarni oladi, faqat konsepsiyani biroz o'zgartiradi yoki unga boshqa ma'noni qo'shadi [94].

Tadqiqot ishida biz ijtimoiy psixologiyada dunyoqarash tushunchasiga urg'u berishga harakat qildik. Ijtimoiy psixologiya jamiyatni tadqiq etish bilan emas, balki jamiyat to'g'risidagi fanlarning yutuqlariga tayangan holda ijtimoiy dunyoqarashni shakllantirishga alohida e'tibor beradi. Uning tushunchalari (jamiyat, ijtimoiy borliq, ijtimoiy munosabat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyat, xalq, millat, shaxs va h.k.) hayotda ko'p qo'llaniladi. Inson

dunyoqarashini shakllantirishda barcha bilim sohalari qatnashadi. Ijtimoiy psixologiya yaxlit kategoriyalar tizimi sifatida insonning jamiyatdagi o'rnini haqidagi bilimlarning shakllanishiga yordam beradi, unga jamiyatda ro'y beradigan turli jarayonlarga o'z ongini munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda ba'zi mamlakatlarda ommaviy "madaniyat" hukmron bo'lib borayotgan, kishilar dunyoqarashini boshqarish, ularning xulqiga muayyan standart qoliplarni singdirish yo'lidagi urinishlar tobora avj olayotgan va keng miqyos kasb etayotgan bir paytda individualizm o'zining ham nazariy, ham amaliy ko'rinishida yana shu hodisalarning ifodasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yuqoridagi muhokama etilgan metodologik tamoyillar bir-biri bilan uzviy bog'liq va "o'qituvchi-o'quvchi" munosabatlari tizimi faoliyati tarixining turli xil davrlarida unda sodir bo'ladigan psixik jarayonlarni tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ishi maqsad va vazifalarni atroflicha ochib berish, ilmiy ishning mohiyatini yoritishda, albatta, empirik ma'lumotlar asosida yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy tahlillarga tayangan holda, qo'yilgan maqsad va vazifalarga mos ravishda, tadqiqotni tashkil etish va metodlarini tanlash asosiy ishlardan biri hisoblanadi. Shu bois, tadqiqotni tashkil etish va unga muvofiq metodikalarni tanlash uchun qator ilmiy-tadqiqot ishlari bilan tanishdik. Mavzuga oid izlanishlar tahlili birinchi bobda keltirildi.

Tadqiqot ishimizning obyekti sifatida Guliston shahridagi 11-o'rta maktab o'quvchilari hamda Jizzax viloyatidagi 9-o'rta maktab o'quvchilari (jami 226 nafar) va Guliston davlat universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti va universitetining 160 nafar talabalari jalb etildi. Jami 386 nafar siniluvchi tadqiqotda ishtirok etdi.

Bugun tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, raqamli iqtisodiyot rivojlangan, oldingi davrlardan tubdan farq qiladigan shiddatli va murakkab davrda yashamoqdamiz. Mutaxassislar bu tezkor davrni raqamli iqtisodiyot davri deb atashmoqda. Boisi, yer yuzining qaysidir bir chekkasida yuz bergan

voqeadan bir necha soniya ichida butun dunyo aholisi xabar topmoqda. Bu esa, shubhasiz, internet axborot vositalarining o'rne va roli nechog'li oshib borayotganidan dalolat beradi. Shu jihatdan aytganda, har qanday virtual olamda, jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalar, o'zgarishlar, yangilanishlarni to'raligicha, xolis va haqqoniy aks ettirmog'i kerak.

Axborotlashuv jarayoni kimki, ma'lumotga egalik qilsa, o'sha dunyoga hukmronlik qiladi, degan fikr bejizga aytilmaganligini tasdiqladi. Darhaqiqat, hozir dunyoning bir qancha davlatlarida yadro quroli ishlab chiqarish bo'yicha harakatlar davom etayotgan bo'lsa, bir qator mamlakatlarda esa virtual xurujlarini uyushtirish ustida ish olib borilmoqda. Ayniqsa, ma'naviy tahdid va yoshlar ongini egallashga qaratilgan axborot xurujlari kun sayin avj olmoqda. Ba'zi bir g'arazli kuchlar tomonidan bu borada turli usul va uslublardan foydalanib kelinmoqda. Axborot xurujlarining yolg'on axborot tarqatish, ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni yemirish, mentalitetga mutlaqo yot bo'lgan qadriyatlarni targ'ib etish, xalqning tarixiy xotirasini buzish va o'zgartirish, kiberterrorizm kabi turlari keng tarqalmoqda.

Dunyoqarash masalalarini tadqiq qilishda mavjud psixologik nazariyalardan kelib chiqib, turli metodlardan foydalanish mumkin. Mazkur masalani tadqiq qilishda bilvosita to'g'ridan to'g'ri tahlillar orqali amalga oshiriladigan maxsus uslubiy muammo bo'lib, ular an'anaviy ravishda sifatli ma'lumotlarni miqdoriy shaklda taqdim yetish uchun ishlatiladi. Ko'pincha dunyoqarash, uning tarkibiy qismining barcha mumkin bo'lgan variantlarini aks ettiruvchi empirik o'zgarishlarga muvofiq tuzilgan hukmlar to'plamini o'z ichiga oladi.

Dunyoqarashni o'rganish jarayoni odatda ikkita asosiy bosqichga bo'linadi – tayyorgarlik va o'lchov. Tayyorgarlik bosqichining asosiy maqsadi o'lchovni amalga oshirishdir. Birinchi bosqich quyidagi ikki qismdan iborat:

1. Dunyoqarashni yoki uning namoyon bo'lishini tavsiflovchi empirik o'zgaruvchilarni aniqlash va ular o'rtasidagi sabab-oqibat va boshqa munosabatlarni o'rnatish;

2. Birinchi bosqichda olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, ularning tuzilishi va to'g'ridan-to'g'ri o'lchov shkalasini yaratish.

Birinchi bosqichda dunyoqarashning ko'p tushunchalari haqiqatan ham qo'llaniladi, ammo talqin qilish mumkin bo'lgan, tushunarli va to'liq ma'lumotlar tanlanadi.

Ikkinchi bosqich to'g'ridan-to'g'ri amaliy tadqiqotlardir, bunda anketa shaklida ishlab chiqilgan dunyoqarashi o'lchanadigan respondentlar guruhiga taqdim etiladi. Xulosalar olingan ma'lumotlarga asoslanib chiqariladi. Bir qancha metodikalardan tadqiqotimizda foydalandik.

Virtual ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar dunyoqarashini shakllanishini o'rganish uchun biz ikki bosqichdan iborat tadqiqot o'tkazdik: ijtimoiy tarmoq jamoalarida ijtimoiy munosabatlar to'g'risida ma'lumotlarni to'plash va ijtimoiy tarmoqlarning yosh foydalanuvchilari o'rtasida internet-so'rov.

Birinchi bosqichda yoshlar orasida eng mashhur bo'lgan ijtimoiy tarmolarning eng ko'p foydalanuvchilari bor bo'lgan **kontent tahlil** qilish usuli yordamida tahlil qilindi. Bularga telegramm, instogram, feysbuk, tik-tok, yutub kabilar kirdi. Mazkur kontent-tahlil quyidagi belgilar asosida amalga oshirildi:

- foydalanuvchilar soni;
- bir yilda qancha foydalanuvchi kirishi;
- qancha ayol va erkak foydalanuvchilari borligi;
- foydalanuvchilarning yosh chegaralari;
- bildiriladigan munosabatlar (komentariy);
- asosan kimlar tomonidan munosabatlarning bildirilishi;
- munosabatlarning xarakteri.

Yuqoridagi statistik parametrlar ma'lumotlarning tarqalishi va foydalanuvchilarni jalb etilishi, yoshi, jinsi bo'yicha taqsimlanishi, shuningdek, kontentga reaksiyasini ko'rsatadi. Biz tomonimizdan 10 000 dan ortiqda targ'ib qilinayotgan ijtimoiy tarmoq xabarlarini hamda ularning targ'ib qilish usullari tahlili amalga oshirildi.

Ikkinchi bosqichda biz **“Ijtimoiy tarmoqlar va Men”** mualliflik so'rovnomasini ishlab chiqdik va uni ijtimoiy tarmoqlar orqali va qog'ozda

tarqatish orqali o'tkazdik. So'rovnoma ilovada keltirilgan. So'rovnomanini tuzishda foydalanuvchilarning umumiy, maqomga oid, muvaffaqiyat va omad hamda o'zini baholashga oid ma'lumotlar bo'yicha ehtiyojini hisobga oldik. Savollarga ochiq va berilgan javobni belgilash bo'yicha javob berish mumkin edi. Ushbu savollar dunyoga va insonning undagi o'rniga, kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va [faoliyat](#) tamoyillarini o'z ichiga oldi.

Tadqiqot doirasida shaxsning dunyoqarashi ijtimoiy munosabatlari bilan uzviy bog'langan ekan, dunyoqarash insonning o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanishini hisobga olindi. Savolnoma orqali hayotning turli sohalarida muvaffaqiyat qozongan siyosiy arboblari (Tramp, I.Karimov, Nazarboyev, Putin, Rasul Kuserbayev kabi), tadbirkorlar (Stiv Djobs, Murod Nazarov, Zafar Xoshimov, J.Ortiqxo'jayev va b.) blogerlar (Xushnodbek, Shuhrat Musayev, Nurbek Alimov, Shahnoza, Erkin Bozorov va b.) san'at odamlari (asosan, xonandalar va aktyorlar), ijtimoiy motivatorlar, psixologlar hayotini nafaqat ochib beruvchi, balki foydalanuvchilar uchun eng muvaffaqiyatli sohani aniqlashga imkon beruvchi jihatlarni aniqlash imkonini mavjud.

Shuningdek, tadqiqotda shaxsning o'zi haqidagi tushuncha va real guruhdagi xulqning asosiy tendensiyalari diagnostikasi **uchun V-Stefanson Q-Sortirovka uslubidan** foydalandik. Bizni sinalluvchilarning real guruhdagi xulq-atvori qiziqitirdi. Mazkur metodika bo'yicha, Sinovdan o'tuvchi shaxs fazilatlarini o'zida aks ettirgan ta'kidlar yig'indisi beriladi. Ularni "ko'p xarakterli" va "oz xarakterli" guruhlariga bo'linadi. Bu usulda kishining o'ziga xosligini, real "Men"i, "muvofiq-nomuvofiq" ekanligi boshqa odamlarga nisbatan olinadi. Ijtimoiy "Men" (Meni boshqalar qanday ko'radi?) Ideal "Men" (Men qanday bo'lishini xohlardim?), aktual "Men" (Men qanday bo'lishini xohlardim?), "belgili boshqalar" (Men qanday bo'lishini xohlardim?), "ideal sherik" (Men sherigimni qanday ko'rmoqchiman?)¹¹.

¹¹ Пахритдинов Ш. Ижтимоий тахдидларни англаш зарурати //Тафаккур. 1999. №4. – Б. 104.-106.

Uslub real guruhdagi kishining fe'l-atvorini aniqlashga yordam beradi; qaramlik (tobelik), mustaqillik, muomalalilik, muomalasizlik, “kurashni qabul qilish va kurashdan qochish”. Tobelik tendensiyasi shaxsning standart va qadriyatlarini, ijtimoiy va axloqiy-etik normalarni qabul qilishi bilan bo‘ladi. Kirishimlilik tendensiyasi shaxsning muomalaga tez kirishishini o‘z guruhida emotsional aloqalarni hosil qilishiga aytiladi.

Kurash tendensiyasi – shaxsning guruh hayotida faol qatnashishi, shaxslararo munosabatda yuqori o‘rin egallash, shuni aksi bo‘lgan kurashdan qochish o‘zaro munosabatdan ketishga, guruhdagi janjallarda betaraf bo‘lish, murosaga moyillik. Bizning fikrimizcha, har bir tendensiya ichki va tashqi xarakteristikalariga ega, tobelik, kirishimlilik va kurash tendensiyalari haqiqiy bo‘lishi mumkin. Yoki odamning ichki dunyosini yashiruvchi niqob ham bo‘lishi mumkin. Agar juftdagi savolarga ijobiy javoblar 20 ga yaqin bo‘lsa shaxsning u yoki bu tendensiyasiga oidligini aniqlasa bo‘ladi.

Tadqiqotimiz davomida Shaxsning qadriyatlarini, ularning ahamiyati va amalga oshirish darajasini o‘rganish maqsadida, ***L.N. Silentyevaning “Qadriyatlar oriyentatsiyasi va shaxsga yo‘nalganlik” metodikasi*** tanlandi.

Metodika o‘quvchilar va talabalar uchun eng kerakli hayotiy qadriyatlarni va muhim hayotiy vazifalarni amalga oshirish haqidagi tasavvurlarni aniqlashga qaratilgan. Metodikada shaxs o‘ynalganligini aniqlashning reyting tizimi mavjud. Metodika talabi bo‘yicha, yoshlar hayotining 10 ta tanlangan qadriyatlari amalga oshishi darajasi 5 ballik tizimda baholanishi lozim bo‘lib, metodikada shaxsning yetakchi yo‘nalishlarini aniqlash va uning qadriyat yo‘nalishi portretini yaratish uchun reyting tizimi mavjud. Amalga oshmagan muhim qadriyatlardan qaysi biri xatti-harakatlarning motivatsion determinanti sifatida harakat qilish uchun haqiqiy asoslarga ega ekanligini aniqlashga imkon beradi. Birinchi qatordagi vazifa bo‘yicha: Sinaluvchi birinchi qatordagi 50 ta qadriyatdan u uchun qaysi biri muhimligini belgilab chiqishi lozim. Navbatdagi vazifa: shu tanlovdan ikkinchi qatorga 10 ta muhim qadriyatni belgilash kerek; uchinchi qatorga tanlangan qadriyatlarni uning hayotida amalga oshganlik darajasiga ko‘ra 5 ballik tizimda baholishi talab etiladi.

Ballarda ifodalanganlik kuchiga ko'ra, tartiblash shaxs qadriyatlarining ierarxik tuzilishi haqida tasavvurga ega bo'lishga imkon beradi.

Har bir yo'nalish ballarni, ularning keyingi reytingi o'rniga qarab, shaxsning yetakchi yo'nalishlarini (guruh tahlilida) ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Shuningdek, talqin qilish jarayonida hayotdagi yetakchi qadriyatlarni amalga oshirishdan qoniqish darajasining ahamiyati (adekvat, past baholangan) hisobga olinadi, bu amalga oshirilmaganlik koeffitsiyenti qiymati bilan belgilanadi.

kelajakda, albatta, amalga oshiriladi – 5 ball

ehtimol, kelajakda amalga oshiriladi – 4 ball

ehtimol, kelajakda amalga oshiriladi – 3 ball

kelajakda amalga oshirilishi dargumon – 2 ball

amalga oshirilmaydi 1 – ball

O'g'il va qizlarning dunyoqarashini falsafiy umumlashtirish, yetakchi dunyoqarash g'oyalari va umuminsoniy qadriyatlarni bilish va tushunish qobiliyatini ijodiy ishlarning mazmunini tahlil qilish yordamida aniqlash mumkinligida kelib chiqib, biz tadqiqot davomida **“Tugallanmagan gaplar”** metodikasidan foydalandik. Mazkur metodikaning bir qancha varianti mavjud. Biz ushbu testning Djozef Saks va Sidne Levi tomonidan ishlab chiqilgan variantini tanladik [88]. U 60 ta tugallanmagan jummalarni o'z ichiga oladi va u orqali shaxsning ijtimoiy voqelikka munosabatini (Otaga munosabat, o'ziga munosabat, amalga oshirilmagan imkoniyatlar, qo'l ostidagi kishilarga munosabat, kelajakka munosabat, yuqori lavozimdagi kishilarga munosabat, qo'rquv va do'stlarga munosabat, o'tmishiga munosabat, qarama-qarshi jinsdagi kishiga munosabat, intim munosabat, oilaga munosabat, hamkasblariga munosabat) shaxsiy fikr va g'oyalarini, stereotiplarni, tasvirlarni, standartlarni, qadriyat yo'nalishlarini va boshqalarni aniqlash mumkin. Metodikaning tarkibida 60 ta tugallanmagan gaplar keltirilgan bo'lib, ular 13 guruhga ajratilgan. Metodikani (testlashtirishni, natijalarni qayta ishlashdan tashqari) o'tkazish uchun sinaluvchining shaxsiga qarab, 20 daqiqadan bir necha soatgacha vaqt sarflash mumkin.

2.2. § Ijtimoiy tarmoqlardagi virtual dunyoqarash shakllanishning ijtimoiy-psixologik asoslari

Jamiyatda shaxs xulq-atvorini tartibga solish mexanizmlari, jumladan, dunyoqarash, stereotiplar masalasi doimo sotsiologiyaning asosiy masalalaridan biri bo'lib, ijtimoiy psixologiya, umumiy psixologiya, shaxs psixologiyasi shaklida kelgan.

Tadqiqotda biz ijtimoiy psixologiyada qabul qilingan dunyoqarash, ijtimoiy munosabatlar tushunchasiga e'tibor qaratamiz. Dunyoqarash – dunyoga va insonning undagi o'rniga, kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari tushuniladi. Dunyoqarash shaxs yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog'liq [76]. Dunyoqarashda jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar o'z aksini topadi. Shaxsning dunyoqarashi ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'langan. Dunyoqarash insonning o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi. Bu jihatdan dunyoqarash voqelikning inson ongidagi subyektiv in'ikosidir. Ayrim individning ongi bilan boglangan individual dunyoqarash, muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, sinf, millat va jamiyat miqyosidagi ijtimoiy ong bilan bog'langan ijtimoiy dunyoqarash mavjud [94]. Bular bir-birini to'ldiradi, bir-biriga ta'sir qiladi, bir-birini rivojlantiradi. Dastlab individ dunyoni hissiy sezadi (dunyoni his qilish). Bunda individ voqelikni bevosita hissiy in'ikos etish natijasida anglaydi. Keyin voqelik haqida to'plagan bilimlari asosida individning dunyoqarashi paydo bo'ladi. Bu dunyoni anglash deyiladi. Shaxsning dunyoni anglashi orqali uning o'zini anglashi ham shakllanib boradi. Shu tariqa dunyo haqidagi barcha bilimlar yuksak darajada umumlashtiriladi va yaxlit dunyoqarash shakllanadi. Ijtimoiy munosabat – bu shaxsiy psixologik konstruktsiya, uch komponentli tuzilishga ega bo'lgan, bular: bilimlarni o'z ichiga olgan kognitiv komponent, ijtimoiy obyekt g'oyasi, obyektga hissiy va baholovchi munosabatni aks

ettiruvchi affektiv komponent va insonning amalga oshirishga potensial tayyorligini ifodalovchi xulq-atvor komponenti obyektga nisbatan muayyan xatti-harakatlardir.

Ijtimoiy munosabatlarda ekstremal fikrlashni o'rganish shakllaridan bo'lgan stereotiplar va noto'g'ri qarashlarni alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

Stereotip – bu muzlatilgan, ko'pincha tugagan ijtimoiy munosabat kognitiv komponentni anglatadi. Stereotiplar juda sodda va barqaror obyektlar va vaziyatlarga nisbatan iqtisodiy fikrlash va harakatlar shakli sifatida foydali va zarur bo'lishi mumkin, obyekt ijodiy fikrlashni talab qiladigan, shaxsning haqiqat bilan o'zaro ta'siri jarayonlarida yoki o'zgargan, lekin u haqidagi g'oyalar bir xil bo'lib qolgan joyda stereotip paydo bo'ladi.

(Odamda uchraydigan yuksak ma'naviy hissiyotlar ham o'zining nervfiziologik asosiga ega bo'lishi kerak (chunonchi intellektual, axloqiy, estetik hissiyotlar). Bu jihatdan akademik I.P.Pavlovning dinamik stereotip haqidagi ta'limoti juda katta ahamiyatga egadir. Bu haqda akademik I.P.Pavlov shunday deb yozgan edi: “Menimcha, ko'pincha odatdagi turmush tartibining o'zgargan paytlarida odat bo'lib, qolgan birorta mashg'ulot yaqin kishidan judo bo'lganda, aqliy iztirob chog'ida kechiriladigan og'ir hissiyotlarning fiziologik asosi xuddi eski dinamik stereotipning o'zgarishi, uning yo'qolishi va yangi dinamik stereotipning qat'iylik bilan hosil bo'lishidan iborat bo'lsa kerak”. Ayrim murakkab hissiyotlarning asosida dinamik stereotipning yotishi yaqqol ko'rinadi. Masalan, estetik hissiyotni oladigan bo'lsak, biron yoqimli ko'ydan lazzatlanish, yoki biron mashhur rassomning ishlagan ajoyib suratlarini tomosha qilib, rohatlanish estetik hissiyot hisoblanadi. Agar bu hissiyotlarning nerv-fiziologik asoslarini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagilarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, bizga juda yoqadigan kuy-qo'shiq boshqa millat odamiga yoqmasligi mumkin. Bunda ajablanishga hech qanday o'rin yo'q. Biz yoshlikdan boshlab mazkur kuy-qo'shiqni bir necha yuz marotalab eshitib borishimiz natijasida ana shu kuyga nisbatan deyarli buzib bo'lmaydigan nihoyatda murakkab dinamik stereotip yuzaga keladi. Ana shuning uchun ayrim kuy-qo'shiqlar bizga yoqadi, ayrimlari esa yoqmaydi. Suratlar masalasiga kelganda shuni aytish kerakki,

qadimgi klassik asarlar, ularning ishlanish uslubi realligi bizni hayratda qoldirib, zavq tug'diradi. Aksincha, hozirgi rassomlar tomonidan ishlangan rasmlar odamda qandaydir noxush hissiyotni tug'diradi. Demak, uzoq yillar davomida yuzaga keladigan dinamik stereotiplar ayrim murakkab hisni tashkil qiladi.

Shunday qilib, hissiyot vegetativ nerv tizimi orqali boshqariladigan ichki a'zo faoliyati bilan bog'liq bo'lsa ham baribir bosh miya po'sti orqali idora qilinadi. Chunki akademik I.V.Pavlovning fikricha, odamning butun a'zoyi badanida bo'ladigan har qanday hodisalarning hammasini bosh miya po'sti qismidagi neyronlar idora qiladi. Ana shu jihatdan olganda hissiyotning nerv-fiziologik asosi bosh miya po'sti bilan bog'liq.

Xurofot – bu uning kognitiv komponentining buzilgan mazmuniga ega bo'lgan ijtimoiy munosabat, shaxs ba'zi ijtimoiy obyektlarni noto'g'ri, buzilgan shaklda qabul qilganining natijasida paydo bo'ladi. Ko'pincha kuchli, ya'ni hissiy jihatdan to'yingan affektiv komponent bunday kognitiv komponent bilan bog'liq. Natijada, xurofot nafaqat voqelikning ayrim elementlarini tanqidiy idrok etishga, balki muayyan sharoitlarda ularga nisbatan yetarli bo'lmagan harakatlarga ham sabab bo'ladi.

Noto'g'ri qarashlarning shakllanishining asosiy sababi shaxsning kognitiv sohasi rivojlanmaganligidadir, shu tufayli shaxs tegishli muhit ta'sirini tanqidiy qabul qilmaydi. Shuning uchun, ko'pincha noto'g'ri qarashlar bolalik davrida paydo bo'ladi, agar bola hali ma'lum bir ijtimoiy obyekt haqida yetarli bilimga ega bo'lmasa, lekin ota-onalar va yaqin atrof-muhit ta'siri ostida unga nisbatan ma'lum bir hissiy va baholovchi munosabat shakllanadi. Kelajakda bu munosabat rivojlanayotgan kognitiv komponentning mazmuniga tegishli ta'sir ko'rsatadi va filtr vazifasini bajaradi, bu faqat obyekt haqidagi ma'lumotni uning allaqachon o'rnatilgan affektiv bahosiga mos keladigan idrok etishga imkon beradi. Hissiy jihatdan tajribali, ammo yetarlicha tanqidiy talqin qilinmagan shaxsning tegishli hayotiy tajribasi ham xurofotning shakllanishiga yoki mustahkamlanishiga ta'sir qilishi mumkin.

Zamonaviy yoshlarda ijtimoiy munosabat to'g'ri shakllanish uchun, yaxlit ijtimoiy-psixologik portretini berish kerak. Buning uchun biz N.Xou va

V.Straussning avlodlar nazariyasidan foydalanamiz. Ushbu nazariyaga asoslanib, ko‘plab olimlar “Millenium” bo‘lgan zamonaviy yoshlarning tavsifini o‘rganadilar va to‘ldiradilar.

Ushbu avlod 1983-yildan 2000-yilgacha bo‘lgan davrda tug‘ilgan va hozirda sotsiologik ta‘rifi bo‘yicha yoshlar qatlamini tashkil qiladi.

Ijtimoiy va qadriyat munosabatlarining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatgan tarixiy voqealar: sovuq urushlar, bir qator yangi davlatlarning paydo bo‘lishi va dunyoning umumiy qayta taqsimlanishi uchun bo‘layotgan kurashlar, ko‘plab siyosiy iqtisodiy va inqirozlar [94]. Bularning barchasi mo‘rtlik hissi, kelajakdan qo‘rqish, noma‘lumlik, sodir bo‘layotgan narsalarning o‘tkinchiligi hissi, biror narsaning o‘zgarmasligini inkor etdi. Shuning uchun yoshlar hech qanday ideallarni tan olmaydilar, umuman olganda, ular hokimiyat va hokimlik vakillarini hurmat qilishda shubhali xatti-harakatlarni bajaradilar.

Shu sababdan zamonaviy yoshlar qarorlar juda tez qabul qilish istagi yuqori, chunki ular boshqa imkoniyat bo‘lmasligi mumkinligidan qo‘rqishadi. Bu usul o‘zgarishlarga chidamlilikni, kutilmagan qiyinchiliklarga javob berish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, lekin boshqa tomondan, juda tez qaror qabul qilish ko‘pincha vaziyatni to‘liq baholashga imkon bermaydi va qarorlar sifatiga salbiy ta‘sir qiladi.

Zamonaviy yoshlarda tez ulg‘ayishga va tez yuqori, barqaror natijalarga erishishga ehtiyojlari baland. Zamonaviy yoshlarning ideali – bu muvaffaqiyatli va moliyaviy farovonlikka tez va qiyinchiliksiz erishish qobiliyatiga egalar va bu ularning atrofidagi jamiyatning ba‘zi misollari bilan tasdiqlangan.

Siyosiy va iqtisodiy inqirozlar madaniy va ma‘naviy inqirozlarga sababchi bo‘ldi va ota-onalarda yoshlarni ijtimoiy inqirozlar har qanday xavfdan himoya qilish istagini kuchaytirgan. Bu zamonaviy yoshlarning kech o‘ssishiga va istamay ota-ona nazoratidan chiqib ketishiga olib keldi. Shunday qilib, ko‘pincha ta‘lim olish kasbiy faoliyatga tayyorgarlik emas, balki uni kechiktirishdir.

Zamonaviy yoshlarning qadriyatlar tizimida “ozodlik”, “ijod”, “o‘yin-kulgi” qadriyatlar yetakchiik qilmoqda. Ular uchun darhol mukofotlanish birinchi o‘rinda.

Ta’kidlash joizki, zamonaviy dunyoda ko‘p sonli o‘z-o‘zini ifoda etish imkoniyatlari har bir yosh avlodning o‘zini noyob va betakror his qila boshlaganiga olib keldi, shuning uchun ham zamonaviy yoshlar kamiga qanoat qilmaydi, boshqalar bilan murosila qilishni istamaydi, ish beruvchidan norozi bajargan ishiga ko‘p haq to‘lanishi kerak deb hisoblaydi. Zamonaviy yoshlar yuqori darajani sds namoyish yetadi.

Aqliy rivojlanish, lekin moslashuvchanlikning pasayishi bilan farq qiladi. Ularning ijtimoiy intellektining xususiyatlari ham oldingi avlodlardan sezilarli darajada farq qiladi.

Ta’kidlash joizki, hozirgi zamonaviy yoshlar kompyuter o‘yinlariga bog‘lanib qolgan. Qoida tariqasida, bunday o‘yinlar chiziqli tuzigan, harakatlar va yakunida mukofotlar yoki jazolar o‘rtasidagi aniq bog‘lanishga va holatni saqlab qolish imkoniyatiga ega. Ongsiz ravishda ular o‘yin mexanizmlarini haqiqiy hayotga o‘tkazadilar va shuning uchun ularning xatti-harakatlarida aniq ko‘rsatmalar va nazoratsiz harakat qila olmaslik, aniq foydalarsiz biror narsa qilishni istamaslik, aniq natijaga emas, balki harakat jarayoniga e’tibor qaratish kabi tendensiyalar bo‘lishi mumkin. Agar nimadir o‘xshamasa chekinish tendensiyasi ishga tushadi.

Zamonaviy yoshlar texnikaning shakllanishi va keng tarqalganligini kompyuter va bulutli texnologiyalarni ishlab chiqish davrida shakllandilar va bu ularni zamonaviy texnologiyalarga judayam qaram qilib qo‘ydi. Katta hajmdagi ma’lumotlarning kirishi va har qanday ma’lumotlarga doimiy ulanishning borligi zamonaviy yoshlarga o‘ylamaslik va tahlil qilmaslik imkoniyatini beradi, bu yesa o‘z navbatida murakkab ma’lumotlarni katta hajmlarda idrok eta olmaslikka olib kelishi mumkin.

Zamonaviy yoshlar qulay va soddalashtirilgan kanallar orqali ma’lumot olish istagi bilan ajralib turadi: tasvirlar, fil’mlar, audio fayllar. Texnologiyaning rivojlanishi internet olamining rivojlanishiga olib keldi. Yoshlarning ko‘plab

ijtimoiy aloqalari virtuallikka o'tdi. Internet aloqasi yanada qulayroq, qo'shimcha harakatlarni talab qilmaydi va shuning uchun ko'pincha haqiqiy aloqadan afzalroqdir. Ijtimoiy tarmoqlarda [6] o'zaro ta'sirning muayyan mexanizmlariga o'rganib qolgan holda, ular ongsiz ravishda ularni haqiqatga o'tkazishi mumkin, bu, albatta, ijtimoiy o'zaro muloqatlarning sifatiga ta'sir qiladi. Keyinchalik, yoshlarda shaxsiy aloqada qo'rquvi, haqiqiy odamlar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, biz zamonaviy yoshlarni asosiy xususiyatlarni aniqlashimiz mumkin. V.N.Voronin tomonidan taklif qilingan shaxs tuzilishiga asoslanib, uchta guruhni ajratish mumkin: shaxsning kognitiv sohasini tavsiflovchi xususiyatlar, shaxsning affektiv sohasini tavsiflovchi xususiyatlar va shaxsning qiymat-motivatsion sohasini tavsiflovchi xususiyatlar.

Zamonaviy yoshlarning kognitiv sohasida virtual aloqa va ijtimoiy tarmoqlar doirasida ijtimoiy ko'nikmalarning rivojlanish darajasi yuqori ko'rsatkich bilan ajralib turadi, lekin aslida, ular ijtimoiy jihatdan mos kelmaydi. Yoshlar do'stona va yaxshi aloqada bo'lishadi, lekin bilvosita – ijtimoiy tarmoqlar va mobil telefon orqali muloqot qilishni afzal ko'rishadi, chunki ular bolaligidan raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan va ularni yaxshi biladi. Muloqot qilish va jamiyatda bo'lish istagiga qaramay, ular individualizmga moyil, ular uchun o'z nuqtai nazarini ifoda etish va dunyodagi o'z o'rnini belgilash muhim. Zamonaviy yoshlar biror narsa haqida juda tez qaror qabul qilishadi, chunki boshqa imkoniyat bo'lmasligidan qo'rqishadi.

Virtual makon va ma'lumotlarning ko'pligi, shuningdek uni taqdim etish usuli, yoshlarning idrok yetish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatdi: ular murakkab ma'lumotlarni katta hajmlarda idrok etishda qiynaladilar, ular nafaqat matnli hujjatlar emas, balki tasvirlar, filmlar, audio fayllar orqali ma'lumot olish istagi bilan ajralib turadi. O'z-o'zini ifoda etish uchun keng vositalarni taqdim etadigan va shu bilan birga yoshlarni cheklaydigan ijtimoiy tarmoqlardan doimiy foydalanish (nashr uchun 144 ta belgi) nutq qobiliyatiga ham ta'sir ko'rsatdi: ko'pchilik o'z fikrlarini ifoda eta olmasligini, izchil va aniq tarzda,

to'g'ri xulosa chiqarish, jamoatchilikda ishtirok etish uchun qiyinchiliklarga duch kelishini ta'kidlaydi.

Affektiv soha juda kuchli rivojlangan: yoshlar hissiy jihatdan ochiq va kontaktli, lekin, ular o'z-o'zidan shubhalanish natijasida real hayotda axborot jarayonning ta'siri bo'ladi [88]. O'ziga xoslikning rivojlangani va o'ziga xoslikni, o'zini namoyon qilish hissi va o'zini namoyon qilish imkoniyatlarining oshishi natijasidir, ammo shaxs o'zini taqqoslaydigan odamlarning soni va sifati sezilarli darajada oshdi, bu esa o'z navbatida rivojlanishiga sabab bo'ladi. Boshqa odamlar bilan muloqot qilishda ular juda xudbin va egosentrik pozitsiyalardan kelib chiqadilar, nizolarda ular chekinish strategiyasini afzal ko'rishadi, chunki ular boshqa odamlar bilan muloqot qilishda murosali yechimlarni topishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Oila katta ahamiyatga ega, "munosib hayot" tushunchasida birinchi navbatda oila va ish turadi.

Ular yangi hislar va bilimlarga intilishadi, ammo bu istak mavzuni chuqur o'rganishga qaratilmaydi va ularning oladigan bilimlari juda yuzaki, chunki ular uchun uzoq vaqt davomida biror narsaga e'tibor qaratish qiyin [76].

Umuman olganda, yosh avlod katta avlodlarga qaraganda optimistikdir, ular nisbatan farovon davrda tug'ilgan va yashagan, ammo bu avlod dunyoning mo'rtligi va hayotning qisqaligi tuyg'usini shakllantirgan ko'plab terroristik hujumlarga guvoh bo'lgan. Aqliy rivojlanishning yuqori darajasi va sur'atlariga ega yoshlar ijtimoiy hayotga nisbatan moslashuvchanlik qobiliyatlarning pasayishi bilan farq qiladi.

Zamonaviy yoshlarning motivatsion qadriyati yangi narsalarni yangi ma'lumotlarni ishlashda: ular uzoq vaqt davomida bir xil ishni qilishni yoqtirmaydilar, ular uzoq vaqt bir joyda va bir kasbda ishlashni xohlamaydilar. Xodim sifatida ular moslashuvchan jadvalga va masofadan turib ishlash imkoniyati bo'lishini xohlashadi, shunda boshqa qiziqishlarga va o'zini rivojlantirishga, ishdan tashqari o'zini o'zi anglash uchun yetarli vaqt bo'ladi. Zamonaviy yoshlar har qanday harakat uchun darhol mukofot kutishadi, tezkor javob, natijalar, video o'yinlar ularni aniq ko'rsatmalar va nazoratga o'rgatib qo'ygan, shuning uchun haqiqiy hayotda ular mustaqil harakat qila olmaydilar

va aniq foydalarsiz biror narsa qilishni xohlashmaydi. Ularning harakatlari ko‘pincha ma’lum bir natijaga emas, balki jarayonga qaratilgan, shuning uchun qiyinchiliklarga duch kelganda, ular orqaga chekinishni afzal ko‘rishadi.

Zamonaviy yoshlarning ijtimoiy-psixologik portretga asoslanib, biz quyidagi muhim xususiyatlarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

1. Muvaffaqiyatga e’tibor qaratish;
2. Ijodkorlik shaxsiyatning ajralmas sifati;
3. O‘z ahamiyatini va qadr-qimmatini oshirish, o‘z shaxsiga urg‘u berish;
4. “Hozir”ga urg‘u berish – ya’ni bugungi kuni bilan yashash;

Ushbu xususiyatlarni batafsil ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, quyidagicha ma’lumotlar kelib chiqadi [88]:

Muvaffaqiyatga e’tibor qaratish. Barcha ijtimoiy munosabatlar faoliyatida, ayniqsa, professional va ijtimoiy aloqalarda muvaffaqiyatga erishishni xohlaydilar. Hozirda yoshlar uchun ijtimoiy mavqe-yu, ko‘pchilikning e’tiborida bo‘lish va bu borada muvaffaqiyatli bo‘lish tushunchasi juda muhim, va boshqalarning fikri ular uchun ahamiyatli. Muvaffaqiyat tushunchasi yoshlar uchun, ko‘pincha, yaxshi ishlashlik yoki o‘z biznesini yo‘lga qo‘yishni o‘z ichiga oladi, ijtimoiy tarmoqlar va jamiyatning rivojlanligi tufayli tadbirkor bo‘lish osonlashdi va ijtimoiy tarmoqlarda yoki ma’lum dasturiy mahsulotlarini sotib boyib ketgan odamlarning misolida ko‘rishadi. Va bu yoshlarni ushbu ijtimoiy tajribani takrorlashga undaydi.

Muvaffaqiyatning yana bir timsoli erkin ish bilan shug‘ullanish va sayohat qilish imkoniyatini beradi. Bundan kelib chiqib shaxs o‘z hayotiga e’tibor qaratadi, o‘zi yoqtirgan ishni qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu xususiyat yangi yosh avlodining ijtimoiy shakllanishida va ularning hayotdan maqsadlarida seziladi. Umumiy qilib aytganda, muvaffaqiyatning yetishmasligi shaxsning o‘zini o‘zi qadrlashi, uning ahamiyati pasayishiga olib keladi, bu yesa umidsizlikka olib keladi. Muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya va o‘z-o‘zini rag‘batlantirish jihatiga ham e’tibor qaratish lozim: yoshlar o‘zlari xohlamagan muayyan ishni bajarishni salbiy deb hisoblashadi va ular o‘zlari xohlagan yo‘nalishda ishlashga e’tibor qaratishadi. Agar shaxs o‘zini bajargan

ishi uchun ragʻbatlantira olmasa, u oʻsha ishni iloji boricha kechiktiradi, bu surunkali kechiktirishga, oʻz-oʻzini hurmat qilishning yanada pasayishiga va nevrozlarning paydo boʻlishiga olib keladi.

Ijodkorlik shaxsiyatning ajralmas sifati; internet tarmoqlarini rivojlanishi foydalanuvchilarga nafaqat erkin muloqot qilishga imkon berdi, shu jumladan, ijodiy tarafdin oʻz-oʻzini anglash uchun koʻproq imkoniyatlar yaratadi,. Koʻp odamlar oʻz ishlarini va xizmat turlarini internet orqali sotib pul ishlashadi, koʻplab rassomlar va yozuvchilar oʻz ishlarini internetga joylashtirganliklari sababli mashhur boʻlishadi. Ushbu ijtimoiy tajriba, osonligi va oʻziga yoqqan narsani qilish hamda pul topish bilan yoshlarni oʻziga jalb qiladi (yosh avlodining asosiy ehtiyojlaridan biri). Oʻyin-kulgi emas, majburiy narsa emas, maqsad emas, balki ijodkorlik har qanday odamning ehtiyoji. Ijodkor shaxs mashhur ijtimoiy maqomga ega boʻladi, bu shaxsga oʻzini boshqalardan ajratib turishga, oʻz qadr-qimmatini oshirishga, oʻziga eʼtibor qaratish imkoni beradi.

Oʻz ahamiyatini va qadr-qimmatini oshirish, oʻz shaxsig a urgʻu qaratish;

Zamonaviy yoshlar portretiga asoslanib, biz ushbu tendensiya keng tarqalganligini va zamonaviy yoshlarning eng muhim xususiyatlaridan biri ekanligini aniqladik. Bu internet muhitining rivojlanishining oqibatida odam osongina yoʻqoladi va uning individualligi kamsitiladi. Boshqalardan ajralib turish istagi yosh avlodiga xosdir: u koʻp imkoniyatlarga ega, oʻzini yuqori baholaydi, u oʻz individualligini himoya qila oladi [130]. Shu bilan birga, oʻziga juda qattiq bogʻlangan, tempi past, u muloqot qilishga va oʻzini ifoda etishga intiladi, lekin baʼzida u buni qila olmaydi.

Uning barcha xatti-harakatlari bu dunyoda oʻzini tanitishga, oʻz izini qoldirishga qaratilganligi sabab ular uchun kengaytirilgan haqiqatga aylangan axborot va virtual makonda “boʻlmaslikdan” qoʻrqishadi.

“Hozir”ga urgʻu berish – yaʼni bugungi kuni bilan yashash;

Bu zamonaviy yoshlarning ertangi kun, istiqbollar haqida oʻylashni istamasligi xarakterlaydi. Bu qisman yoshlarni boshdan kechirgan va boshdan kechirayotgan global iqtisodiy va siyosiy inqirozlarning natijasidir.

Yoshlar bugun hamma narsani olish orqali ertangi kundan xalos bo'lishga harakat qilishmoqda: bu ularga noaniq "ertangi" umidsizlikni yengishga yordam beradi. Shu sababli, zamonaviy yoshlarning ko'plab vakillari xavfli faoliyatni boshlaydilar, ular tavakkal qilishdan qo'rqishmaydi, chunki ular ongli ravishda va ko'pincha ongsiz ravishda "ertaga" va uzoq muddatli istiqbolga ishonmaydi. "Bugun"ga urg'u ularga hayotning to'liqligini his qilishlariga, o'zlarini va bu dunyodagi o'rnini his qilishlariga yordam beradi – va bu zamonaviy yoshlarning zaruriy ehtiyojdir.

Zamonaviy yoshlarning barcha ijtimoiy munosabatlarga xos bo'lgan bu xususiyatlar, zamonaviy yoshlar uchun muhim bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarda aks etadi.

Ehtiyojlar tushunchasini aniqlashga turli xil yondashuvlar mavjud, ammo eng rivojlangan va umume'tirof etilgan narsa Arbraxama Maslou ehtiyojlari iyerarxiyasidir.

Maslou ehtiyojlarni besh toifaga ajratdi:

1. Hayotiy (fiziologik ehtiyojlar) – oziq-ovqat, uyqu va boshqalarga bo'lgan ehtiyoj.
2. Xavfsizlik zarurati – barqarorlik – tartib, himoya, qo'rquv, tashvish va betartiblikdan ozodlikga bo'lgan ehtiyojlar.
3. Sevgi va tegishli bo'lish zarurati – oila, do'stlik, do'stlar doirasi, ma'lumotnomalar guruhi.
4. Hurmat va e'tirofga bo'lgan ehtiyoj – o'z-o'zini hurmat qilish, hurmat, boshqalar oldida obro'li bo'lish, maqom, shon-sharaf.
5. O'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj – qobiliyatlarni rivojlantirish.

Iyerarxik tizim shunday tuzilganki, quyi ehtiyojlar qondirilmaguncha yuqori ehtiyojlarni qondirish mumkin emas.

Maslouning ehtiyojlar piramidasiga asoslanib, shunday xulosaga kelishimiz mumkin: ijtimoiy tarmoqlar uchinchi va to'rtinchi darajali ehtiyojlarni qondiradi. Birinchi va ikkinchi darajalar foydalanuvchi tomonidan haqiqatda qondiriladi va agar ular yetarli darajada qoniqmasa, virtuallikka

ehtiyoj qolmaydi. O‘z-o‘zini anglash zarurati virtual ijtimoiy tarmoqlardan ham tashqariga chiqadi, chunki o‘z qobiliyatlarini anglagan odamlar vitruallikni ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida ishlatmaydi, chunki iyerarxiyaga ko‘ra, ehtiyojlarning barcha to‘rt darajasi qondirilgan bo‘ladi [88].

Shunday qilib, biz virtual ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilarning asosiy ehtiyojlarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

1. O‘z-o‘zini hurmat qilishni oshirish va saqlash zarurati;
2. Ijtimoiy mavqeni yaxshilash va saqlash zarurati;
3. Muvaffaqiyatga ehtiyoj;
4. Identifikatsiya qilish zarurati.

Biroq, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib, ushbu ehtiyojlarning ba‘zilari foydalanuvchi tomonidan turli xil psixologik va ijtimoiy sabablarga ko‘ra to‘liq qondirilmasligi mumkin: doimiy salbiy taqqoslash, tashqaridan bosim, komplekslar va boshqalar. Agar ehtiyoj uzoq vaqt davomida to‘liq qondirilmasa yoki bir muncha vaqt o‘tgach yana paydo bo‘lsa, u foydalanuvchi idrokiga ta’sir qiladi va uni qondirish foydalanuvchi uchun asosiy maqsadga aylanadi. Bunday ehtiyoj faqat bitta bo‘lishi mumkin, chunki foydalanuvchi ko‘p vaqtini uni qondirishga sarflaydi.

Shunday qilib, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish uchun asos virtual ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy mavqeyni oshirish va uni saqlab qolish, o‘z-o‘zini hurmat qilish, anglash muvaffaqiyat va identifikatsiyani oshirish va saqlab qolish uchun yaratilgan ehtiyojlardir.

Zamonaviy yoshlarning yaxlit ijtimoiy-psixologik portretining tavsifiga asoslanib, bu ehtiyojlar zamonaviy yoshlarning ijtimoiy munosabatlariga xos bo‘lgan, muvaffaqiyatga erishish, ijodkorlikka shaxsning zarur xususiyatlariga e’tibor qaratish, o‘z ahamiyati va qadr-qimmatini oshirish, o‘z shaxsiga urg‘u berish, yani “ego”si ko‘tarilishi “hozir” – ya’ni bugungi kun bilan yashash barcha muhim xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

2.3 §. Ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy yoshlar dunyoqarashi shakllanishiga ta'siri

2022-yil oxiriga kelib dunyodagi internet foydalanuvchilari soni 5,3 milliard kishini yoki dunyo aholisining uchdan ikki qismini tashkil qiladi. Bunday ma'lumotlar Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi hisobotida keltirilgan.

“2019-yilda dunyo aholisining 54 foizi internetdan foydalangan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 66 foizga yetishi kutilmoqda, bu 5,3 milliard kishini anglatadi”, deyiladi hisobotda (<https://aniq.uz>).

Bugungi kunda Internet auditoriyasi butun dunyo aholisining taxminan 63 foizini tashkil qiladi.

Yoshlar dunyoqarashning shakllantirishda nazariy tahlil qilib, virtual ijtimoiy tarmoqlarning dunyoqarashni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmi modeli yaratildi. Birinchi bosqichda biz O'zbekiston yoshlarining taniqli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi umumiy jihatlari kontent-analiz qilindi. 2-bobda keltirilgan mezonlar bo'yicha tahlil qilishga harakat qildik. Omma orasida eng taniqli saytlar va telegram kanallar tanlab olindi. Umuman olganda, saytlar va kanallar soni borgan sari ortib bormoqda, “har bir inson o'z saytiga ega bo'lish uchun harakat qilmoqda”, desak xato bo'lmasa kerak. Shunday bo'lishiga qaramasdan, sifatli saytlar soni juda sekinlik bilan ortib bormoqda. Ha, sekinlik bilan, chunki hozirgi kunda sayt yaratilib, keyinchalik saytni tashlab ketish odat tusiga kirdi (domen va xost vaqti tugaydi, qarabsizki, sayt yopiladi). Sayt – bu umumiy tushuncha bo'lib, uning ko'rinishi, bajaradigan vazifasiga qarab bir necha turlarga bo'lish mumkin¹². Tadqiqot aynan sayt turlariga bag'ishlanadi.

Sayt ko'rinishlari (turlari): internet orqali tanishtiriluvchi saytlar; axborot resurslari; veb xizmatlar. Bu turlar asosiylari hisoblanib, o'z navbatida bular ham ma'lum qismlarga ajratiladi:

- Internet orqali tanishuv saytlar: vizitka saytlari; korporativ saytlar; internet do'konlar; promo saytlar.

¹² <https://www.terabayt.uz/post/sajt-turlari-haqida>

-Axborot resurslari: internet portallar; tematik saytlar; bloglar; saytlar ro'yxati.

-Veb xizmatlar: qidiruv tizimlari; e'lonlar doskasi; ijtimoiy tarmoqlar pochta xizmatlari; internet forumlar; video, rasm, audio xostinglar.

Mazkur saytlar tavsifiga to'xtalib o'tamiz.

Vizitka saytlari – bir shaxs yoki biror firma haqida 3, 4 ta sahifadan tashkil topgan, eng sodda ko'rinishga ega sayt. Bunday saytni tuzib berish ham unchalik katta mablag' talab qilmaydi. Firmalar bunday turdagi saytga ega bo'lishlaridan maqsad, o'zlari haqida to'liq ma'lumot berishlari, o'z xizmatlari, narxlari va bog'lanish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni internet foydalanuvchilariga e'lon qilishdan iborat.

Korporativ saytlar – to'liq, murakkab ko'rinishdagi sayt. Bunday ko'rinishdagi saytlarda firma haqida to'liq ma'lumotlar, ularning mahsulotlari haqida (rasmlari bilan birga), narxlari beriladi. Foydalanuvchilar o'z fikrlarini qoldirishlari, sayt orqali buyurtmalar berishlari ham mumkin bo'ladi. Har xil turdagi interaktiv xizmatlar ham mavjud bo'lishi mumkin.

Internet do'konlar – internet orqali savdo sotiqni yo'lga qo'yuvchilar uchun sayt. Bizda bu yo'nalish endi rivojlanmoqda. Saytda, asosan, mahsulotlar, ularning narxlari, to'lovlar haqida ma'lumotlar bo'ladi. Asosiy sahifada yangi tovarlar rasmlari bilan berib boriladi.

Promo saytlar – ma'lum bir vaqt uchun yaratilgan saytlar. Qandaydir ko'rgazmalar, konferensiyalar, konsertlar uchun yaratilgan sayt. Bu bayramlar tugagandan so'ng, sayt yopilishi kerak, lekin ko'p hollarda unday emas, eski xabarlar bilan sayt ishlashda davom etadi. Bu e'tiborsizlik natijasidir.

Tematik saytlar – ma'lum bir kichik doiradagilar uchun sayt, bitta mavzu bo'yicha yaratiladi. Sayt dizayni aynan shu mavzuga oid bo'lishi lozim va, albatta, kommentariya qoldirish mumkin bo'lishi kerak. Agar iloji bo'lsa, forumi ham bo'lishi lozim.

Internet portal – katta hajmdagi sayt, boshqa saytlarga yo'llanmalar beradi. Internet foydalanuvchilarini to'g'ri yo'naltirib yuboruvchi sayt. O'zida ko'p miqdorda havolalar (ssilka) saqlaydi va har xil turdagi ma'lumotlarni berib

boradi (ob-havo ma'lumotlari, e'lonlar, forumlar, o'yinlar...). Eng asosiysi, sodda bo'lishi kerak, foydalanuvchi darhol qayerga kirish kerakligini tushunib olishi lozim.

Blog – biror bir shaxsning internet kundaligi, bu yerda u biror mavzu bo'yicha o'z fikrlarini yozib boradi. O'quvchilar bu fikrga o'z qarashlarini bildirishadi.

Saytlar ro'yxati – bunday saytlarda, boshqa saytlarning qisqacha ta'rifi keltirilgan bo'ladi. Shu qisqa matnni o'qib, qiziq bo'lsa shu saytga o'tishni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Bu orqali saytlar o'z darajalarini ko'tarib olishadi. Sayt ro'yhati ma'lum bir bo'limlarga bo'lingan holda saqlanadi.

Qidiruv tizimlari – o'z robot qidiruvlariga ega bo'lgan sayt. Bunday saytlar barcha saytlardan ma'lumotlar to'playdi va kerakli paytda chiqarib beradi. Bularga misol qilib, Google, Yandex qidiruv tizimlarini misol qilish mumkin.

Pochta xizmatlari – internetning eng ommalashgan xizmati, elektron pochta ochish, boshqa pochta xat jo'natish va ulardan qabul qilib olish kabi vazifalarni bajaruvchi saytlar. Hozirda bunday turdagi saytlar, pochta xizmatidan tashqari boshqa xizmatlarni ham taklif qilishmoqda (qidiruv xizmatlari, fayllarni saqlash...). Misol qilib, mail.ru, yandex.ru va boshqalarni keltirish mumkin.

Internet forum – muloqotni amalga oshirib beruvchi saytlar, bunday saytlar biror saytni alohida qismi yoki o'zi alohida sayt bo'lishi mumkin. Asosiy vazifa, yozish orqali muloqot qilish, biror muammoni hal etishdan iborat. Undan tashqari mahsulotlarni reklama qilishda ham qo'l keladi.

Xosting saytlar – bunday saytlar har xil turdagi fayllarni (video, audio, rasm) o'zida saqlaydi. Bu fayllarni foydalanuvchilar saytga kiritib qo'yishadi va kerak paytda, internet orqali o'z fayllarini olishlari mumkin bo'ladi. Misol uchun, img.uz.

E'lonlar doskasi – foydalanuvchilar tomonidan kiritilgan har xil ko'rinishdagi e'lonlarni chiqaruvchi saytlar. Bu saytlar biror narsani sotishda

qo‘l keladi. Elektron bozor deb ham atasa bo‘ladi. Bunga misol qilib, albatta torg.uz saytini olish mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar – foydalanuvchilar tomonidan to‘latiladigan sayt. Bir xil dunyoqarashga ega bo‘lgan har xil guruhlar yaratish, qiziqishlarni boshqalar bilan baham ko‘rish, rasmlar qo‘yish, har xil aqlli gaplar kiritish uchun joy. Bizning fikrimiz bo‘yicha, o‘zini reklama qilish uchun eng optimal sayt. Bu turdagi saytlarga misollar ham ko‘p, bunga aniqlik kiritish maqsadida quyidagilarni keltirib o‘tamiz: Facebook.com., Instagram, Youtube, Telegram, “Tik tok”.

Yuqoridagi sayt va kanallarda ommabop bo‘lgan mavzular: Biznes strategiyalar, o‘yla va boy bo‘l, biznes-portal Startap, Ma’rifat nuri, Psixologiya, Amaliy psixologiya, Mashhurlar hayoti, Ilm kabilarni keltirish mumkin. Ushbu jamoalarning nomlarida ham biz boylik va muvaffaqiyat tushunchalarini bog‘lashning doimiy tendensiyasini sezishimiz mumkin. Ijtimoiy sifatida muvaffaqiyat va biror kishining holatining iqtisodiy tavsifi, shuningdek, sayohat qilish, ijtimoiy mavqeyni yaxshilash imkoniyatlariga mos keladi. Saytlardan foydalanuvchilarning umumiy soni 31 milliondan oshiq, shulardan mobil qurilmalardan foydalanuvchilar 29,500 million odamni tashkil qiladi. Shuningdek, so‘nggi ikki yilda 22 300 ta qo‘shimcha tayanch stansiyasi o‘rnatilib ularning umumiy soni 54,0 mingtaga yetkazilgan [94].

Yil davomida Gender taqsimoti jahon bo‘yicha erkaklar ayollarga qaraganda ko‘proq foydalanishlari aniqlangan. Lekin biz tomonimizdan tahlil qilingan saytlar va kanallar tahlilidan ba’zi kanal va tarmoqlarda erkak foydalanuvchilar, ba’zilarida ayol foydalanuvchilar yetakchilik qilganini ma’lumotlar ko‘rsatib turibdi. Statistik ma’lumotlar, shuningdek, eng faol yoshlar guruhini aniqlashga ham imkon beradi. Ma’lumotlarga tayanib, erkaklar uchun ham ayollar uchun ham 22-27 yoshni oldik. Sababi, ayni shu yoshdagilar biz tahlil qilgan internet saytlarida ko‘proqni tashkil qildi. Bu yoshdagilar allaqachon kasbiy va ijtimoiy muhitda faol ishtirok etayotgan, iqtisodiy faol, shuningdek, ma’lum bir ijtimoiy mavqega ega bo‘lgan yoshlardir.

Muvaffaqiyatga erishish istagi insonning rivojlanishi, obro'si va ijtimoiy tan olinishi, ijtimoiy mavqeyni oshirishga intilayotganlar deb tavsiflaniladi [94].

Internet orqali asosiy targ'ib qilingan mavzular nafaqat muvaffaqiyatga, balki unga qanday erishish, qanday xususiyatlarni namoyon qilish, odatlarni, fazilatlarni shakllantirish zarurligi va boshqa shartlarga tegishli. Tarmoqdagi xabarlarini tahlil qilish jarayonida quyidagi qarashlar aniqlandi:

Muvaffaqiyatga erishish uchun doimo faoliyatda va rivojlanishda bo'lish lozim.

O'z maqsadi sari yurishda o'ziga vaqt ajratish;

O'ziga ishonchni o'shirish;

Muvaffaqiyatga erishish uchun o'z kasbini sevish kerak.

Asosiysi, motivatsiyaga ega bo'lish va maqsad sari intilish lozim. Shunda muvaffaqiyatga erisha oladi. Shu tariqa, internet foydalanuvchilarining muvaffaqiyatga erishish uchun asosiy e'tibori ichki sifatlariga va tashqi omadga hamda sharoitga bog'lagan holda tushunishini anglasa bo'ladi. Muvaffaqiyat va qiziqishlarning bog'liqligiga asosiy urg'uni berish hamda jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishga alohida e'tibor qaratish muhim.

Navbatdagi internetdan foydalanish ehtiyoji ijtimoiy maqomni qo'llash va o'stirish bo'lib, mazkur maqom foydalanuvchining holati nafaqat tashqi belgilarni aniqlashga, balki, u a'zo bo'lgan hamjamiyat maqomini talab qiladigan narsalar bilan ham belgilanadi.

“Maqom” jamoalariga ko'pincha ma'lum guruhlarining nomlari yoki ularning bilvosita tavsifi, turli sifatlar, ya'ni eng yaxshi, chiroyli, yagona, zo'r va boshqalar kiradi.

Tahlil uchun, “Milliy.uz”, “Muloqot.uz”, Kun uz, Salomatlik va go'zallik, Laylak, Oshxona, San'at kabi ijtimoiy tarmoqlar tanlab olindi.

Foydalanuvchilarning umumiy soni 15 936 114 kishini tashkil etadi, bu faol foydalanuvchilar umumiy sonining 18,7 foizini tashkil qiladi Shunday qilib, foydalanuvchilarning umumiy soni muvaffaqiyat jamoalariga qaraganda

kamroq, ammo bu ularning ijtimoiy mavqeni saqlab qolish va yaxshilash zaruriyati hali ham kuchli ekanligini ko'rsatadi¹³.

Yil davomida Gender taqsimoti 35,235,406 erkak, kunlik o'rtacha 2,953,531 va 14,009,685 ayol, kunlik o'rtacha 1,510,989 edi. Gender taqsimoti shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy mavqeyni yaxshilash va saqlab qolish zarurati ayollarga qaraganda erkaklarga ko'proq xosdir. Ushbu ma'lumotlar hech qanday shubha tug'dirmaydi, chunki aslida erkaklar o'zlarining ijtimoiy mavqeyni saqlab qolish yoki yaxshilash haqida ko'proq tashvishlanadilar.

Eng faol yoshdagi foydalanuvchilar 18-23 yoshdagi erkaklar va 18-20 yoshdagi ayollardir. Bunday ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, hali faol hayotga kirmagan yoshlar uchun ijtimoiy mavqeni yaxshilash va saqlab qolish zarurati o'sib bormoqda. Erkaklar uchun bunday ehtiyoj kechroq yoshda paydo bo'ladi, chunki aynan o'sha paytda maqom insonni ijtimoiy baholashning muhim mezonlaridan biriga aylanadi.

Ijtimoiy mavqega nisbatan muayyan ijtimoiy munosabatlarni aniqlash qiyin. Lekin shunga qaramay, biz muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy tarmoq postlariga asoslangan xususiyatlarni aniqlashga harakat qildik. Mazkur xususiyatlar qatoriga: hamma hurmat qilish uchun yaxshi ko'rinishga ega bo'lish, tashqi ko'rinish, nutqning ravonligi, o'z maqomini yuqori ko'rsatish o'zga maqomini pasaytirish evaziga bo'lishi va belgilarga qarash, har kun faol hamda baxtli bo'lishni kiritsa bo'ladi.

O'zini idintifikatsiya (o'zgartirish, o'xshatish) ehtiyojini o'rganish ijtimoiy internet tarmoqlarining murakkab, ammo ko'pchilikni o'ziga jalb qilgan tomoni deb o'ylaymiz.

Foydalanuvchilarning o'zini boshqalarga o'xshatishga qaratilgan jamoalar ko'pincha mazmuni va nomida guruh belgisiga ega: sifatlar, guruh ko'rinishini yaratadigan tushunchalar. Buning uchun ko'pincha "o'ziga xos" so'zi ishlatiladi, bu foydalanuvchiga o'zini nafaqat o'zi bilan bir xil deb tasniflashga, balki o'ziga xos xususiyatlardan biri deb atashga imkon beradi,

¹³ <https://qalampir.uz/news/uzbekistonda-internetdan-foydalanuvchilar-soni-31-milliondan-oshdi-73943>.

ya'ni qandaydir turga xos xarakterli xususiyatlarga ega. O'zbekistonda bunday tarmoqlar: Salomatlik va go'zallik, Laylak, Oshxona, San'at, va b.

1-jadval

Faol ijtimoiy tarmoqlar va ulardan foydalanuvchilar to'g'risida ma'lumot

Ehtiyojlar	Foydalanuvchisi ko'p bo'lgan kanal	A'zolar soni
	BiznesRivoj	9161
	Best School	6116
	Muvaffaqiyat	5025
	Yosh tadbirkor	4776
O'z ustida ishlash va rivojlantiruvchi	Giza	4398
	Hayot falsafasi	35982
	Faktorial	4226
	Yoshlar Akademiyasi	3115
	Liderlar	22323
	Ayollar psixologiyasi	46653
	Stiv Djobs	14154
	Yuksalish	6317
Tarmoqda bir-birini qo'llash	Laylak	10236
	Sumka_Brand	29069
	Ladyhouse.uz	16675
	Adamari.uz	5294
	Hilol nashr	73569
	Pretty Skin	5047
O'z-o'zini hurmat qilish darajasini oshirish yoki saqlab qolish	Psixologiya_online	6080
	Motivational School	5822
	Maqsad	4616
	Shaxdias	4924

Ijtimoiy tarmoqlar faol foydalanuvchilari soni 15 420 682 kishi va bu jami foydalanuvchilarning 21,8% ni tashkil qiladi.

Aslini olganda, identifikatsiyaga bo'lgan ehtiyoj insonning ijtimoiy mavqeyini mustaqil ravishda egallash emas, balki uni ma'lum bir ijtimoiy guruhga yoki bir nechta ijtimoiy guruhlarga a'zo bo'lishlik orqali ta'kidlash istagini anglatishi mumkin. Foydalanuvchilar bunday ijtimoiy jamoalarning nashrlarini faol ravishda baham ko'rishadi, nafaqat o'zlarining identifikatsiyasini tasdiqlashadi va bunday guruhlarning qadriyatlarini baham ko'rishadi, balki boshqa odamlar uchun bunday guruhlarga aloqadorligini ko'rsatishni xohlashadi [76].

Bunday tarmoqlarda gendr taqsimot ham bir tekisda kechmaydi. Mazkur tarmoqlar foydalanuvchilarini, asosan, ayollar tashkil qiladi. Bu ularning muloqotchanligi va guruhliy munosabatlarni o'rnatishga moyilligidan kelib chiqadi. Shu bilan birga o'ziga ishonchning past bo'lishi o'z ahamiyati, qadrini yuqori qo'yishga intilishi natijasi ham bo'lishi mumkin [76].

Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilar faolligini xabarlarini qo'llab-quvvatlashi va tarqatishi layklar sonining ortishi bilan kuzatish mumkin. Layklar qancha ko'p bo'lsa, obuna bo'luvchilar soni ham ortib boradi.

Identifikatsiya qilish zarurati bilan umumiy ijtimoiy munosabatlarni ajratib ko'rsatish mumkin emas, sababi, har bir jamoa bu munosabatlarni o'z obyektlari va guruhlari nisbatan shakllantiradi. Biroq, identifikatsiyaning barcha ijtimoiy munosabatlariga xos bo'lgan xususiyatlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Tarmoqda bir-birini qo'llash; Identifikatsiya bitta bilan emas, balki bir vaqtning o'zida bir nechta guruhlar bilan madaniyatlarga nisbatan ehtiyotkorona munosabat identifikatsiyaning ekstremal ifodasi sifatida, bir-birini ergashtirish. Shunday qilib, biz hali faol ijtimoiy va kasbiy faoliyatga kirmagan yosh qizlarda identifikatsiya qilish zarurati kuchli namoyon bo'ladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin, bu aksentuatsiyaning sabablaridan biri bo'lishi mumkin. Boshqa sabablar o'z-o'zidan qoniqmaslik yoki o'z ijtimoiy mavqeyda va ijtimoiy o'zini o'zi o'xshatishning yo'qligi bo'lishi mumkin, ammo bunday

foydalanuvchilarning tanqidiy fikrlash darajasi pastroq, ular guruhga suyanib, ongida narsa va hodisalarga munosabatlarni o'zgartirib, tarmoqda keladigan har qanday ma'lumotga ishonishga moyil bo'ladilar.

O'z-o'zini hurmat qilish darajasini oshirish yoki saqlab qolish zarurati oxirgi va eng ko'p urg'u berilgan ehtiyojlardandir. Ajralib turish, noyob, o'ziga xos bo'lish istagi faol ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarga xosdir. Bu yo'nalish bo'yicha psixologiya, ezoterika, falsafiy fikrlar, o'zini o'zi rivojlantirish kabi tarmoqlar tanlab olindi. Biz tomonimizdan tahlil qilingan ijtimoiy tarmoq kanallari foydalanuvchilari 26 millionga yetadi va umumiy tarzda bu jami foydalanuvchilarining 33,2 % tashkil qiladi.

18 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan ayollar auditoriyasi ijtimoiy jihatdan moslashmagan. Bu yoshdagilar, asosan, oliy ta'lim muassasalarida o'qishadi, ularning ijtimoiy muhiti o'zgarganligi tufayli qiziqishlari ham o'zgari boradi. Ular ko'proq erkin bo'lishadi va ijtimoiy me'yorlarni qabul qilishgan. Jamiyat bosimi nafaqat hatti-harakatlar doirasida, balki boshqalar bilan o'zlarini taqqoslashda ham ko'zga tashlanadi. Taqqoslashdagi psixologik bosim va zo'riqishlarni bartaraf etish uchun o'zini o'zi baholashni ko'tarish yoki qo'llab-quvvatlash yo'llarini qidiradilar.

Foydalanuvchilar faolligi haqida layklar sonidan kelib chiqib gapirish mumkin. Layklar qancha ko'p bo'lsa, foydalanuvchilar o'zini o'zi baholashi va hurmat qilishi shuncha ortishi kuzatildi.

Ijtimoiy tarmoqdagi yuqoridagi kabi jamoalarini ma'lumotlarini tahlil qilganda, "men hammadan yaxshiman", "men mukammal shaxsman", "men qadrliman", "bugungi kun bilan yashash kerak", "kecha va ertaga mavjud emas", "mening tajribam va kechinmalarim meni kuchli shaxsga aylanishimga asos" kabi dunyoqarash ko'rinishlari shakllanayotganini ko'rish mumkin.

O'z-o'zini hurmat qilishni oshirish yoki uning yuqori darajasini saqlab qolish, o'ziga va boshqalarga qarshilik ko'rsatish, o'zini o'zi ustida o'ylash orqali o'tadi. Foydalanuvchi butun dunyoni "o'ziga munosabat" bilan boshqalar bilan solishtirganda unga ahamiyat berishga harakat qilmoqda.

Shunday qilib, biz tomonimizdan tahlil qilingan ijtimoiy tarmoqlarning oltmish million foydalanuvchidan: 22,6% (16 085 569 kishi) muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyojni, 15 766 650 erkak, o'rtacha yoshi – 24-27 yosh; 18,7% (13 832 927 kishi) o'z ijtimoiy mavqeyni yaxshilashga katta ehtiyoj sezishi, yiliga 36 353 102 kishi, o'rtacha yoshi 18-21; Yiliga jami 50 467 824 nafar ayollarning 19,4 foizi (14 341 413 kishi) identifikatsiyaga bo'lgan ehtiyojni, o'rtacha yoshi – 14-18 yosh; Yiliga o'rtacha yoshi 18-21 yoshdagi 59 563 214 nafar ayolning 32,7 foizi (26 121 525 kishi) o'z-o'zini hurmat qilishni yaxshilash yoki saqlab qolish zaruratiga ega ekanligini kuzatish mumkin. Bu ko'rsatkichlar yoshlar dunyoqarashini shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymaydi, albatta.

O'z-o'zini hurmat qilishga bo'lgan va qo'llab-quvvatlash zarurati eng muhimi – bu barcha foydalanuvchilarning deyarli uchdan bir qismini tashkil qilmoqda, ikkinchi o'rinda – muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyoj. Bu ehtiyojlar foydalanuvchilar ongida bir-biri bilan juda kuchli bog'langan: o'ziga bo'lgan ishonch, o'zini yuksak qadrlashning ko'rinishlaridan biri, muvaffaqiyatli shaxsning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, muvaffaqiyat o'z-o'zini hurmat qilish orqali yuqori darajada turadi.

O'tkazilgan kontent tahlil natijasida eng ko'p kuzatilgan ijtimoiy dunyoqarash ko'rinishlari quyidagilar deb topildi:

Muvaffaqiyatga erishish uchun o'z ustida ishlash, doimiy rivojlanish lozim.

Omadga erishish sharti – kuchli motivatsiyaga va maqsadga ega bo'lish;
O'ziga ishongan shaxs, demak u omadli.

Muvaffaqiyatga erishish uchun o'zi sevgan kasbda faoliyat olib borish lozim.

Men mukammal inson.

Chiroyli nutq – muvaffaqiyat garovi.

Mening ichki kechinmalarim va tajribam mening muvaffaqiyatim garovi.

Bir paytning o'zida bir necha guruh bilan identifikatsiya.

Maqom faoliyat va samaradorlik bilan aniqlanadi.

“Novosti Uzbekistana” media internet portalining xabar berishicha, Telegram messenjeridan 18 million o‘zbekistonlik foydalanadi. Mashhurlik bo‘yicha mamlakatda ikkinchi o‘rinda “Odnoklassniki” (Classmates) ijtimoiy tarmog‘i joylashgan – unga respublikaning 16,7 million aholisi tashrif buyuradi.

Ushbu ma’lumotlar Oliy Majlis Senatining Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash masalalari qo‘mitasining 31-yanvar 2022-yil kuni bo‘lib o‘tgan navbatdagi yig‘ilishida ma’lum qilindi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Facebookda 4,7 million, Instagramda 3,7 million ro‘yxatdan o‘tgan, “V Kontakte” ijtimoiy tarmog‘iga 2,6 million o‘zbekistonlik tashrif buyuradi. Yana 288 ming kishi LinkedIn’dan, 51,6 ming nafari Twitter dan foydalanadi. TikTok ma’lumotlari taqdim etilmaydi deg xabar berilgan. (<https://nuz.uz/>).

Yuqoridagi ma’lumotlar o‘rganilgach, maxsus so‘rovnoma ishlab chiqildi. So‘rovnoma Google+ ga joylashtirilib, virtual tarzda ijtimoiy tarmoqlarga tarqatildi. So‘rovnoma 2 hafta davomida o‘tkazildi. Albatta, ayrim sinaluvchilar so‘rovnomaga qiziqib kirishgan, lekin oxirigacha javob bermaganligi tufayli yaroqsiz javoblar deb topildi. Umumiy tarzda 384 kishi javoblari to‘liq bo‘lganligi tufayli tahlil uchun qabul qilindi.

Sinaluvchilar “Siz ko‘p qaysi tarmoqlardan foydalanasiz?” savoliga Telegram (264 kishi) Instagram (243), Facebook (215)ni belgilashgan.

2-jadval


“Siz qaysi tarmoqlardan foydalanasiz?” savoliga berilgan javoblar

Ijtimoiy tarmoqlar	Foydalanuvchilar soni
Telegram	186
Instagram	93
Facebook.	72
Youtube	16
Boshqalar	19

“Nima uchun shu tarmoqni ma’qul ko‘rasiz?” savoliga Instagram foydalanuvchilari tarmoqni juda qulay va har xil mavzularda xabarlarini o‘z

ichiga olishini (24%), “barcha do‘stlarim shu Telegram tarmoqda” (48%), “qiziqarli kontent” Youtube. (4%), “oxirgi barcha yangiliklarni bilib olaman” Facebook (19%) deb belgilab berishgan. Albatta, bu tanlov bekorga tanlanmagan. Masalan, Facebook. hamda Instagramda lentalar aylanib, videofayllarni yuklash va ko‘rish, tilni tanlash, tarixiy ma’lumotlarni ham ko‘rish imkoni bor.

“Mening barcha do‘stlarim shu tarmoqda” degan javob birinchi o‘rinni egallagan.



2- rasm. “Virtual olamda do‘stlaringiz qancha?” savoliga berilgan javoblar (n-384)

Ijtimoiy tarmoqlarning assosiy vazifasi muloqotdan iborat bo‘lganligi tufayli mazkur savolga sinaluvchilarning aksariyati (39,1%) do‘stlari 101-300 gacha ekanligini belgilashgan. Bitta foydalanuvchi o‘rtacha 150 tacha odam bilan munosabatlarini o‘rnata olishi mumkinligini hisobga olsak, bu “kengayib borayotgan yadro” texnologiyasining muvaffaqiyatli ishlashidan dalolat beradi. Bu esa kichik va katta ijtimoiy guruhlarini to‘liq qamrab olish, ijtimoiy tizim va munosabatlarni tezroq tarqatish imkonini beradi.

Shu bilan birga, foydalanuvchilarning aksariyati (160 respondent) 50 dan kam jamoalarga (kanallar) obuna bo‘lishgan, bu foydalanuvchining jamoalarni mazmuni bo‘yicha va ularga qiziq bo‘lganiga qarab ongli tanlov qilinganini ko‘rsatadi. Ongli tanlangan ma’lumotlarga va xabarlariga bo‘lgan ishonch darajasi oshadi va idrokning tanqidiyligi pasayadi. Ijtimoiy tarmoqlarda

vaqtning sarflanishi bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra sinaluvchilarimizning (276 ta) 71,% foydalanuvchilari har kuni kirishi, (79ta) 20,6 % 1-2 soat, (94ta) 24,4% 3-4 soat va (89) 23,2% respondent, 6 soat tarmoqda o'tirishini belgilashgan. O'rta hisobda sinaluvchilarning 3-4 soat onlayn bo'ladi, desak bo'ladi. Sinaluvchilar ichida ayollar erkaklarga qaraganda ko'proqni tashkil qildi. Yosh jihatidan esa o'rtacha yosh ko'rsatkichini 19-30 yoshgacha bo'lganlar tashkil qiladi. Bu yoshdagilarning aksariyati talaba bo'lishi mumkin va faol kasbiy faoliyat olib borishadi. Respondentlarning 49,4% oliy ma'lumotli ekanligi aniqlandi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga tayanib bugungi kun internet tarmoqlari faol foydalanuvchilari ijtimoiy portretini yaratish mumkin. Demak, 19-21 yoshli shaxs, universitetda o'qiyotgan yoki to'liq bo'lmagan oliy ma'lumotga ega bo'lib, u har kuni 3-4 soat onlayn bo'ladi, do'stlarining umumiy soni 101-300 kishini tashkil qiladi, 50 dan kam jamoalarga obuna bo'lgan, bu vaqt ichida u ko'rgan xabarlarining soni o'rtacha 1200 ta ma'lumotni tashkil etadi, bu do'stlarning xabarlaridan tashqari uning yangiliklar lentasining ko'p qismini tashkil etadi.

Savolnomadagi muvaffaqiyatga bog'liq bo'lgan savollarga berilgan javoblar tahlili bo'yicha ham qiziqarli ma'lumotlar olingan. Shunday qilib, respondentlarning fikriga ko'ra, muvaffaqiyatga erishish uchun birinchi navbatda motivatsiya (219 respondent, 57,1%), maqsadga intilish (184 respondent, 48,7%), qat'iyatlilik (174 respondent, 45,7%), ishga muhabbat (156 respondent, 41,3%), o'ziga ishonch (164 respondent, 42,7%) kerakligi belgilangan. Bu "maqsadga intilish" pozitsiyasi bo'yicha ijobiy qiymatga ega. Bu shuni ko'rsatadiki, foydalanuvchilar muvaffaqiyatga erishish uchun o'z kasbini xohlashi va yoqtirgan narsani qilish kerakligiga ishonishadi. Bu asosan ijtimoiy tarmoq xabarlarida shakllanadigan ijtimoiy munosabatlarga mos keladi. Muvaffaqiyatli shaxsning qadriyatlari, shuningdek, shaxs tuzilishining kognitiv sohasiga emas, balki qadriyat-motivatsion, ma'lum bir tarzda harakat qilishga undaydigan munosabatlarning xususiyatlaridan biri sifatida qaralishi kerak. Muvaffaqiyatli inson uchun asosiy qadriyat – bu o'z-o'zini anglash (204

respondent,53,1%), ikkinchi va uchinchi o‘rinlarda – o‘z-o‘zini hurmat qilish (169 respondent, 44,7%) va biznesdagi samaradorlik (145 respondent, 37,7%), yerkinlik (146 respondent, 38,1%), samarali hayot (129 respondent, 33,6%) va ijodkorlik (125 respondent, 32,5%) eng ko‘p uchragan qadriyatlar ro‘yxatini to‘ldiradi. Muvaffaqiyatli shaxs uchun ikkilamchi, ammo baribir muhim qadriyat sifatida “faoliyatini yuqori baholash” (112 respondent, 29,1%), pul mukofoti (115 respondent, 29,9%) va obro‘-e‘tibor (76 respondent, 19,7%) hisoblangan.

Olingan ma’lumotlarga asoslanib, egosentrizm, hayot o‘z-o‘ziga qaratilishi, boshqalar uchun biror narsa qilishni istamaslik ham. Natijalarda “boshqalarga yordam berish” javob varianti uchinchi o‘rinni egallaydi (81 respondent,21,0%). O‘z-o‘zini anglash va ijodkorlik sinaluvchilar uchun kam ahamiyatli bo‘lib, respondentlar ijodkorlikni ushbu soha sifatida tasniflamaydilar.

Sinaluvchilarga biznes, san’at, fizika sohasida muvaffaqiyatga erishgan mashhurlar sahifasini kuzatish bo‘yicha ham savollar qo‘yilgan edi. Ko‘plab bloggerlar, san’at sohasidagi mashhurlar, sahifalarini kuzatishda, foydalanuvchilar amalga oshirilgan harakatlar bilan emas, balki ma’lum bir shaxsning imidji va mashhurligi bilan boshqariladi. Bu idrokning yuzakiligini ko‘rsatadi va muvaffaqiyatning tashqi belgilariga, shu jumladan, yorqin g‘oyalar yoki tub o‘zgarishlarga e‘tibor qaratadilar. Shuningdek, foydalanuvchilardan muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan xarakter fazilatlarini aniqlash so‘ralgan edi.

Bunda respondentlarning xarakterning kuchliligini 56,2%,
faoliyatga sho‘ng‘ish 44,1%,
mas’uliyatli bo‘lish 45,1%,
muloqotchan bo‘lish 33,3%,
kreativlik (ijodkorlik) 22,4%,
moslashuvchanlik 30,7;
qiziquvchanlik 29,4%,
xotirjamlik 25% tanlashgan.

Muvaffaqiyatga erishish uchun zarur fazilatlar bo'yicha tanlov natijalari
(n=386)

Fazilatlar	Tanlovlar soni	%
Kuchli xarakterga ega bo'lish	216	55,9
Faoliyatga sho'ng'ish	169	43,7
Mas'uliyatli bo'lish	173	44,8
Muloqotchanlik	128	33,1
Ijodkorlik (kreativlik)	86	22,2
Moslashuvchanlik	118	30,5
Qiziquvchanlik	113	29,2
Xotirjamlik	96	24,8

Yuqoridagi natijalarga tayanib muvaffaqiyatli shaxs portretini yaratish mumkin deb hisobladik. Demak, kuchli xarakter egasi, faoliyatga boshi bilan sho'ng'igan, mas'uliyatli, muloqotchan, ijodkor, qiziquvchan va xotirjam shaxs muvaffaqiyatli bo'la oladi. Albatta, bu portret tavsifi virtual ijtimoiy omma ma'lumotlari asosida berilmoqda. Lekin mazkur shaxsga berilgan fazilatlar tanlanganida ikkinchi o'rinni ayyorlik 25% (96 respondent), tavakkalchi 28,1% (108ta), quvnoqlik 3,1% (89) kabilar egalladi. Muvaffaqiyatli bo'lishda tashqi atributlarning ahamiyati bo'yicha qo'yilgan savolga sinaluvchilarning e'tibori kasbga qaratilgan. foydalanuvchilarning 52,7% muvaffaqiyatli shaxs birinchi navbatda biznes samaradorligi va 38,2% yangi narsalarni o'rganish istagi bilan ajralib turishini ta'kidlashgan. Uchinchi o'rinda 32,7% foydalanuvchi voqealarga boy hayotni belgilashgan. Shunday qilib, foydalanuvchilar muvaffaqiyatli odam uchun ustuvor vazifa bu – biznesdagi samaradorlik va rivojlanish istagini tanlashgan. Qimmatbaho mashina (29,3%) va brend buyumlar (36,8%) foydalanuvchilar uchun muvaffaqiyatli shaxs belgisi bo'la olmasligini belgilashgan.

III BOB. ZAMONAVIY YOSHLAR DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIGA VIRTUAL IJTIMOIIY ALOQALAR TA'SIRINI TADQIQ QILISHNING EMPIRIK NATIJALARI

3.1 § Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchi zamonaviy yoshlar dunyoqarashida o'zi haqidagi tasavvurlarini o'rganish natijalari tahlili

Ijtimoiy muhit ta'sirida odamning shaxslik mohiyatini ifodalovchi psixologik belgilar vujudga keladi. Bu xususiyatlar shaxsning ijtimoiyligi, o'zini-o'zi anglashi, ongi, aniq maqsad qo'yishi va shunga qarab intilishi, ehtiyojlari, e'tiqodi, ideali va dunyoqarashi kabilardir. Shaxs ongining yuksak belgisi – uning o'zini anglashidir. Shaxsning o'zini anglashi shundan iboratki, odam jamiyatda taraqqiy etar va ishlar ekan, tevarak atrofdagi muhitda o'zining individualligini, subyektligini ajratadi. Tevarak-atrofdagi olamni biluvchi va shu dunyoga ta'sir etuvchi zot sifatida har bir odam subyektdir, odamning idrok etadigan, tasavvur qiladigan, fikr yuritadigan, tilga oladigan va ta'sir ko'rsatadigan narsasi obyektidir [76].

Odamning o'zini anglashi subyektiv ravishda o'zini “men” deb his qilishida ifodalanadi [76]. Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeyni tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obraz – “Men” obrazi deb ataladi. Mazkur obrazning qanchalik adekvatligi va haqiqatga yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi. “Men qiyofasi” to'risidagi tasavvurlar tizimini ishlab chiqilishi o'quvchi va talaba yoshlarning o'z-o'zini bilish natijasidir “Men qiyofasi” shaxsning o'z-o'ziga munosabatini belgilaydi, boshqa kishilar bilan o'zaro munosabatlarini barpo etishning asosi sifatida yuzaga keladi. Psixologik tadqiqotlarda “Men qiyofasi”ni o'rganish mumkin bo'lgan bir qator psixodiagnostik metodikalar mavjud. Bunday psixodiagnostik metodikalar natijalari turli kishilarda o'z-o'zini anglashi rivojlanish darajasini yoki birgini kishida uning hayot yo'lidagi turli bosqichlarni majmualari baholashni tashkil etadi. Birinchidan, bu inson tomonidan anglanadigan sifatlarning soni va xususiyatlari bilan o'lchanadigan kognitiv murakkablik va

farqlanganlikdir. Shu asnoda, subyekt sifatlarning qancha katta miqdorini anglasa hamda ushbu sifatlarning qanchalik murakkab va umumlashgan bo'lsa, uning o'z-o'zini anglash darajasi shu qadar yuqoridir.

Ikkinchidan, bu "Men qiyofasi"ning ifodalangan darajasi va aniq tarkibi, shaxs uchun uning ahamiyatidir. Insonlar o'z meniga intilishi, yo'naltirilganligi kuchiga qarab va anglash predmetiga ko'ra farqlanishi mumkin, masalan, ayrimlar o'zining jismoniy "men"i to'g'risida, boshqalari ijtimoiy "men", yana boshqalar ma'naviy "men" to'g'risida ko'proq qayg'uradilar [76].

Uchinchidan, bu "Men qiyofasi"ning ichki yaxlitligi, izchilligi darajasidir. U ichki uyg'unlik bilan farqlanishi yoki subyektning o'zi to'g'risidagi ziddiyatli tasavvurlarni o'z ichiga olishi mumkin. To'rtinchidan, bu "Men qiyofasi"ning zamondagi barqarorlik darajasidir. Ayrim kishilarda o'zi to'g'risidagi tasavvuri barqaror, boshqalarda esa, u beqarorlik, turli ikkilanish va o'zgarishlarga tortilishi mumkin.

Shaxsning o'z-o'zini anglashi, o'zidagi mavjud sifatlarni baholashi jarayoni ko'pincha unga qiyinchiliklar tug'diradi, ya'ni, inson tabiati shundayki, u o'zidagi o'sha jamiyat normalariga to'g'ri kelmaydigan, noma'qul sifatlarni anglamaslikka, ularni "yashirishga" harakat qiladi, hattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi. Bu ataylab qilingan ish bo'lmay, u har bir shaxsdagi o'z shaxsini o'ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko'pincha turli xil yomon asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, "Men" obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o'sha shaxsni o'rab turgan tashqi muhit, o'zgalar va ularning munosabati katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga uning dunyoqarashi mezonini ham belgilaydi. Bu jarayon psixologiyada refleksiya deb ataladi. Bu jarayonning mohiyati – aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir.

Shaxs o'zini kimdirlar bilan taqqoslashi natijasida va yuqoridagi fikrlar odamning o'z "Meni" to'g'risidagi barcha tasavvurlari va bilimlari majmui shu tariqa shakllanadi. "Men" obrazining bir qancha turlari farqlanadi: ayni mavjud "Men" ("Real-Men"); istalgan "Men" ("ideal Men"); xayoliy "Men".

Shaxsning o'zi haqidagi tasavvurlari uning dunyoqarashining bir bo'lagi bo'lganligi uchun, biz ushbu jihatni o'rganishni joiz topdik va shaxsning o'zi haqidagi tasavvurlarini o'rganish maqsadida Stefansonning "Q – saralash" («*Q -sortirovka*») metodikasidan foydalandik. Ushbu uslub shaxsning o'zi haqidagi g'oyalarni o'rganish uchun ishlatiladi. Metodikaning afzalligi shundaki, u bilan ishlashda subyekt statistik me'yorlar va boshqa odamlarning natijalariga "muvofiqlik – nomuvofiqlik" emas, balki o'zining individualligini, haqiqiy "men"ni ko'rsatadi. Metodika real guruhdagi inson xatti-harakatlarining oltita asosiy tendensiyasini aniqlashga imkon beradi: qaramlik (tobelik), mustaqillik, muomalalik, muomalasizlik, "kurash"ni qabul qilish va "kurash"dan qochish.

Tobelik tendensiyasi shaxsning standart va qadriyatlarini, ijtimoiy va axloqiy etik normalarni qabul qilishi bilan bo'ladi. Kirishimlilik tendensiyasi shaxsning muomalaga tez kirishishini o'z guruhida emotsional aloqalarni hosil qilishiga aytiladi.

Kurash tendensiyasi – shaxsning guruh hayotida faol qatnashishi, shaxslararo munosabatda yuqori o'rin egallash, shuni aksi bo'lgan kurashdan qochish o'zaro munosabatdan ketishga, guruhdagi janjallarda betaraf bo'lish, murosaga moillik. Bizning fikrimizcha, har bir tendensiya ichki va tashqi xarakteristikalariga ega, tobelik, kirishimlilik va kurash tendensiyalari haqiqiy bo'lishi mumkin. Yoki odamning ichki dunyosini yashiruvchi niqob ham bo'lishi mumkin. Agar juftdagi savolarga ijobiy javoblar 20ga yaqin bo'lsa shaxsning u yoki bu tendensiyasiga oidligi aniqlanadi. (So'rovnomaning kaliti, va natijalarini qayta ishlash ilovada keltirilgan)

Olingan natijalar tahlilini ko'rib chiqamiz. Yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, shaxsning o'z "Meni" haqidagi tobe-mustaqil, muloqotchan-yopiq, kurashni qabul qilish – kurashdan qochish ko'rsatkichlari bo'yicha qarashlarda farqlar kuzatiladi.

4-jadval

O‘zi haqidagi tasavvurlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar

O‘zi haqidagi tasavvurlar	1-guruh (11-17)		2-guruh (18-24)		Σ	p
	O‘rtacha	St. og‘ish.	O‘rtacha	St. og‘ish.		
Qaramlik (tobelik),	11,8	3,7	8,6	4,4	339	0,18
Mustaqillik	6,8	3,9	9,3	3,9	341	0,19
Muloqotchanlik	10,0	3,6	9,6	5,0	409	0,80
Yopiqlik	7,8	3,9	8,7	4,2	393	0,63
“Kurashni qabul qilish”	10,9	3,7	9,2	4,4	363	0,35
“Kurashdan qochish”	8,2	4,3	9,3	4,8	356	0,29

Olingan natijalarga ko‘ra, 1-guruh vakillari (11-17 yoshlilar – 11,8) o‘zlarini qaram deb hisoblashadi. 2-guruh (18-24 yoshlilar – 8,6) vakillari ularga nisbatan o‘zini mustaqil deb hisoblashar ekan. Albatta, bu tabiiy holat, sababi, 1-guruh vakillari mustaqil hayot bo‘lag‘asida bo‘lib, ota-onasi qaramog‘ida. 2-guruh vakillari endigina kasbiy faoliyat boshlashgan bo‘lib, ularning xatti-harakatlari, asosan, o‘z xizmat tajribasi va xizmatdagi yuqori hamkasblariga bog‘liq.

1-guruh sinaluvchilari ham, 2-guruh sinaluvchilari ham o‘zlarini muloqotchan hisoblashlarini natijalardan ko‘rish mumkin. Albatta, mazkur holat bugungi yoshlarni internet olamda muloqotchanligi tanlov qilmasdan muloqotga kirishishi mumkinligidan kelib chiqadi deb o‘ylaymiz. Ayniqsa, 1-guruh vakillari yosh xususiyati bilan bog‘liq qiziquvchanligi tufayli deyish mumkin. Shuningdek, 2-guruh sinaluvchilarini mustaqil bo‘lganliklari tufayli qarorlar qabul qila olish xususiyatlari, ularni muloqotda tanlab kirishishi, ularni pastroq darajada muloqotga kirishadi, degan xulosa qilish mumkin. Ularda muloqot bo‘yicha ozroq bo‘lsa-da tajriba bor.

Kurashni qabul qilish va kurashishdan qochish bo‘yicha ham 1-guruh sinaluvchilari ko‘rsatkichlari yuqoriroqni ko‘rsatgan. Bu xatti-harakat ularning

yosh xususiyatiga bog'liq deb o'ylaymiz. Umuman olganda, yoshlar kurashni qabul qilishga nizolarga kirishishga moyil bo'lishadi.

Birinchi va ikkinchi guruhga sinaluvchilar natijalaridan shaxs rivojlanishida, yosh darvrlariga qarab ularda o'zini o'zi tasavvur qilish ko'rsatkichlari o'zgarib boradi, deyish mumkin. Mazkur holat psixologiyada ilgari tadqiq qilingan va isbotlangan nazariyalarni yana bir bor isbotlashini ko'rish mumkin. Inson yoshi ulg'aygani sayin, qaramlik kamayib, mustaqillik ortib boradi, ammo internet foydalanuvchilarida muloqotchanlik darajasi yosh paytida yuqori bo'lib, ulg'aygani sayin pasayish darajasi kuzatildi. Shu bilan birga sinaluvchilarimizda o'z qobig'iga o'ralashish yoshi o'sgani sayin ko'payishi kuzatildi.

Kurashni qabul qilish tendensiyalarida ham tepadan pastga qarab kamayishi, o'zi haqidagi tasavvurlarida "kurashdan qochuvchi" shaxs sifatida aniqlangan ko'rsatkichlari pasayishi sezilarli darajada ekanligini kuzatish mumkin [57].

Har bir inson, yoshidan qat'i nazar, o'zi, qobiliyati va imkoniyatlari haqida o'z fikriga, ya'ni tasavvuriga ega. Insonning o'zi haqidagi tasavvurlari uning fe'l-atvori, uning boshqa odamlar bilan munosabatlari va oldiga qo'ygan maqsadlari va ularga erishishda tanlaydigan yo'liga kuchli ta'sir qiladi.

Kognitiv komponent intellektual asosga, ya'ni o'zini boshqa odamlar bilan, standartlar yoki boshqalarning faoliyati natijalari bilan solishtirishga asoslanadi. Ushbu intellektual operatsiyalar natijasida shaxsda o'zini aks ettiruvchi "O'z" tasviri, insonning o'ziga nisbatan oqilona munosabati shakllanadi. Inson o'zining ma'lum fazilatlarining kelib chiqishi nuqtai nazaridan o'z qiyofasini – shaxsi va qadriyatlari oqlashga harakat qiladi.

Yoshlar o'rtasida olib borilgan so'rovlar va ijtimoiy tarmoqlar kontent tahlili natijasida Ijtimoiy tarmoqdan foydalanuvchilar ehtiyojlari hamda motivlari va shakllangan dunyoqarash ko'rinishlarini toifalashga harakat qilindi.

**Ijtimoiy tarmoqdan foydalanuvchilar ehtiyojlari va shakllangan
dunyoqarash ko‘rinishlari**

Ehtiyojlar	Shakllanayotgan dunyoqarash ko‘rinishi	Ijtimoiy qarashlar
O‘z ustida ishlash va rivojlanish. O‘zgalar oldida hurmatini oshirish yoki saqlab qolish	Axloqiy, huquqiy. diniy, siyosiy, estetik, ekologik.	Hammasi o‘zingga bog‘liq. O‘zingga ishon. Kasbingni sevishing kerak. O‘zingni kechir. O‘zingni o‘yla. Vaqtning qadriga yetish. O‘zingni qurbonday tutmaslik. Tartib muvaffaqiyat garovi. Atrofdagi odamlar senga ta’sir qilishi mumkin. Baxt shu yerda va hozir. Go‘zallik dunyoni qutqaradi. Har bir vaziyat bu – imkoniyat. Har bir mag‘lubiyat bu – yangi imkoniyat. Iymonli bo‘l. Soya bo‘lma afsona bo‘l.
O‘zaro bir-birini qo‘llash, hamdardlik	Gumanistik dunyoqarash	To‘loqonli oila. Ona bo‘lish – baxt. Ota-onani sevish va tushunish kerak. Savob ishlar qilish kerak. Ikkinchi turmush.
Tan olinishga bo‘lgan ehtiyoj	Axloqiy, ijtimoiy	O‘zingni vaqtida to‘g‘ri namoyon qilish, fikr bildirish. Hech narsaga qaramay oldinga qarab yur. Qalbinga quloq sol va oldinga intil. O‘z ustida ishlash, tanqidlarni to‘g‘ri qabul qilish
Ommalashishga intilish	Ijtimoiy, diniy	Muayyan bir jamiyat a’zosi sifatida o‘zini ko‘rish. Jamiyat a’zolari qilgan ishga amal qilish; ajralib qolmaslik
Haq-huquqlarini bilish	Huquqiy, siyosiy.	Turli vaziyatlarda qonuniy xatti-harakat
Noodatiy, innovatsion g‘oyalarni targ‘ib qilishga va o‘rganishga, maqtanish (Chelonjlar)	Ekologik, estetik.	Men qila oldim va Sen ham uddalaysan; Bizdaqalar ko‘p; Qila olmaydigan ishing xayolingga kelmaydi.
Moddiy mustaqillika bo‘lgan ehtiyoj	Iqtisodiy, ijtimoiy	O‘z iqtidorini namoyon qilish va pul topish sirlari

Yuqoridagi natijalarga tayanib, virtual olam foydalanuvchilari dunyoqarashida asosiy urg‘u muvaffaqiyatga erishishda o‘z idealiga tayanish, tanqidiy fikrlash, o‘zini o‘zi o‘stirishga, motivatsiya olishga, taqlid qilishga berilganligini anglash mumkin.

3.2.§ Shaxs dunyoqarashini shakllanganlik darajasini o'rganilishi

Dunyoqarash inson yashash tarzi, o'z taqdiri, o'zini anglash, tushunish va baholash usuli sifatida ma'lum bir tizimni tashkil etuvchi turli bilimlar, e'tiqodlar, g'oyalar, tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikdir. Shaxsning dunyoqarash tizimining elementlari insonning olamga munosabatini aniqlashtirishga va undagi o'rnini aniqlashga qaratilgan qarashlar, g'oyalar, tamoyillardir. Ammo insonlarni qamrab turgan bugungi kundagi virtual voqelik, insonning dunyo bilan bo'lgan munosabatlari juda xilma-xildir. Va inson o'zining amaliy va kognitiv faoliyatida o'zini dunyoning ma'lum bir qismi bilan, voqelikning ma'lum bir qismi bilan bog'laganligi sababli, dunyo uning oldida turli xil ko'rinishlarda paydo bo'ladi. Shunga ko'ra, shaxsning o'zi go'yo voqelikning turli tomonlarini o'rganadi va o'zida aks ettiradi, ya'ni o'zida ma'lum tomonlarni ajratib ko'rsatadi va sifat jihatidan farqlaydi, o'zini turli jihatlarida tan oladi namoyon qila oladi [76]. Shaxsning mafkuraviy o'zini o'zi belgilash masalasi yoshligidayoq – borliqning ma'nosi va hayotdagi o'rnini izlash davrida alohida dolzarblik kasb etadi. Tadqiqotimizning muhim masalalaridan biri o'sib borayotgan shaxsning dunyoqarashi va dunyoqarashining shakllanishi fenomenini pedagogik qo'llab-quvvatlash va birinchi navbatda, tegishli diagnostika majmuasini yaratish.

Shaxsning dunyoqarashi tarkibida (jarayon va natija sifatida) o'zini o'zi belgilashda ehtiyoj-maqсадli, bilim, kognitiv, hissiy-irodaviy, faollik, refleksiv-qadriyatli va natijaviy komponentlar farqlanadi. Ehtiyoj-maqсадli komponent insonning hayot mazmunini izlashga bo'lgan ehtiyoji, uning borliq tizimidagi o'rni, hayotda o'zini o'zi anglashga, o'rnini topishga, yaratuvchanlik hayot faoliyatiga tayyor bo'lishga intilishi bilan ifodalanadi. Bilim komponenti dunyoqarash bilimlari tizimidir [88]. E'tibor beradigan bo'lsak, bu oddiy bilimlar majmuasi emas, balki ularning yakuniy umumlashtirilishi va birligi bo'lib, unda markaziy, asosiy komponentlar ajralib turadi. Shaxsiy xususiyatlardan tashqarida olingan bilim insonning dunyoqarashini o'zini o'zi

belgilashini ta'minlay olmaydi. Yoshlarning ma'lum bir bilim va amaliy faoliyat sohasidagi kognitiv qiziqishlari voqelikka munosabat, uni bu dunyoda shaxsiy o'rniga ega bo'lish, rivojlanish, uning qadriyatlari va boshqalar kabi toifalarda tushunish zarurati bilan uyg'unlashishi kerak. Shu sababli, insonning o'zini o'zi anglash dunyoqarashi tarkibida turli xil ong turlari ya'ni, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy, diniy, estetik, ekologik, huquqiy va boshqalar bilan ifodalanadigan kognitiv komponent mavjud. Refleksiv-qadriyatli va hissiy-irodaviy komponentlar dunyoqarashning o'z taqdirini o'zi belgilashning shaxsiy qadriyatli-mazmunli asoslarini ifodalaydi va shaxsni ijtimoiylashuv jarayonini ta'minlaydi. Bunda shaxsiy qadriyatlar, g'oyalar, ijtimoiy tuyg'ular va shaxsiy tajribalar kabi elementlar ajralib turadi, ular shaxsning u tushunadigan voqelik bilan munosabatlarining mohiyatini belgilaydi [88]. Ijtimoiy tuyg'ular, g'oyalar va shaxsiy qadriyatlar bilan birga bo'lgan shaxs tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar, g'oyalar va qadriyatlar faoliyat komponentida taqdim etilgan hayotiy faoliyatning umumiy yo'nalishini belgilaydi. Bu yerda shaxsning o'ziga va uning atrofidagi dunyoga munosabati, o'zini va haqiqatni ijodiy o'zgartirishga tayyorligi va qobiliyati haqida fikr qilinmoqda. Yoshlar shaxsining dunyoqarash darajasini aniqlash diagnostikasi har tomonlama olib borilib, psixologik kuzatish, suhbatlar, so'rovnoma, anketa, talabalarning ijodiy ishlarini tahlil qilish va boshqalarni o'z ichiga olishi kerak. Mazkur tadqiqot ishlari davomida eksperimental ravishda sinovdan o'tgan internet foydalanuvchilari bo'lgan yoshlarning o'z taqdirini o'zi belgilash, dunyoqarashini o'rganishning biz lozim topgan usullariga to'xtalib o'tamiz¹⁴.

Talaba yoshlar shaxsiy ahamiyatga ega bo'lmagan bir qator alohida ilmiy toifalarda o'quv ma'lumotlarini o'z ichiga qamrab olgan dunyoqarash tushunchalarini ta'kidlashga qodirligini aniqlash uchun talabalarga turli fanlar bo'yicha o'quv matnlari tuzish taklif etildi.

¹⁴ Позняк, А. В. Педагогическая поддержка гуманистического мировоззренческого самоопределения старшеклассников в учебном процессе : дисс. ... канд. пед. наук : 13.00.01 / А. В. Позняк. – Минск, 2011. – 176 с.

Inson hayotining barcha sohalariga nisbatan universal bo'lgan tushunchalarni ajratib ko'rsatish so'raldi. Shu bilan birga, talabalar fikriga ko'ra, umuminsoniy qadriyatlar tushunchalarini yozib chiqish taklif etildi.

Talablar yozgan matnlarida "hayot", "haqiqat", "kuch", "ota-ona", "boylik" "ijodkorlik", "o'z-o'zini bilish", "qadriyat", "quvvat", "kreativlik", "o'z-o'zini baholash" "tabiat", "odam", "tug'ilish", "dunyo" kabi g'oyaviy kategoriya va tushunchalardan foydalanishlari eslatib o'tildi. Matnlar bilan ishlash natijalariga ko'ra, o'quvchilar aniqlagan ma'lum toifalar bo'yicha nimani tushunishlarini bilish uchun aniqlovchi suhbat o'tkazildi. Afsuski, ko'pincha o'quv ma'lumotlari bilan bog'liq tushunchalarning aksariyati talabalar uchun shaxsiy ahamiyatga ega, falsafiy kontekstdan mahrum bo'lgan shaxsiy ilmiy kategoriyalar sifatida izohlandi.

Bizning nazarimizda, dunyoqarash diagnostikasida samarali usullardan biri bu "tugallanmagan gaplar" metodikasi hisoblanadi. Ushbu metodikadan foydalanib, shaxs ijtimoiy voqelikni subyektiv idrok etishini, shuningdek, shaxsiy fikr va g'oyalarini, stereotiplarni, tasvirlarni, standartlarni, qadriyat yo'nalishlarini va boshqalarni aniqlash zarur bo'lganda katta samara beradi.

Biz sinaluvchilarga tugallanmagan jummalarni to'ldirishni taklif qildik.

"Men uchun eng muhim hayotiy maqsadlar bu ...", "Men insonning hayotini baxtli deb bilaman, agar ...", "Agar menda cheksiz imkoniyatlar bo'lsa ...", "Insonda ajoyib qobiliyat bo'lsa, lekin yovuz yurak ...", "Hayratga loyiq odam ...", "Globus mening kaftimga sig'sa ..." va hokazo.

Agar o'quv materialining asosiy hajmining falsafiy va g'oyaviy salohiyati o'qitish jarayonida yangilanmagan bo'lsa, bu o'quv faoliyatining bir tomonlama yo'naltirilgan maqsad hamda vazifalarining ustuvorligiga olib keladi va shaxsning munosabatlari cheklangan, tor dunyoqarash va maqsadga yo'naltirilgan, shablonga asoslangan hayotda namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, adekvat va eng obyektiv diagnostika protseduralarini izlash uchun biz o'quvchilarning dunyoqarashi darajasining dinamikasini aniqlaydigan quyidagi mezonlarga tayandik:

- falsafiy umumlashtirish qobiliyati;

- qadriyat yo‘nalganligining namoyon bo‘lishi;
- faol hayotiy qarash.

Shaxsning o‘zini o‘zi belgilash dunyoqarashining tarkibiy qismlarining shakllanishini tahlil qilish o‘qituvchiga o‘quvchiga pedagogik yordam ko‘rsatish uchun maqsadli ishlarni tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqotimiz maqsad va vazifasidan kelib chiqib, Dj. Myu Saksa va S.Levi tomonidan taklif qilingan **“Tugallanmagan gaplar”** metodikasidan foydalandik. Mazkur metodika yoshlarning 15 xil axloqiy me‘yorlarga nisbatan munosabatini aniqlashga xizmat qiluvchi proyektiv metodikalardan hisoblanadi. Jumladan: 1) otaga munosabat, 2) o‘ziga, 3) amalga oshmagan imkoniyatlarga, 4) bo‘ysunuvchilarga munosabat, 5) kelajakka munosabat, 6) mansabdorlarga munosabat, 7) qo‘rquvlar va xavflar, 8) do‘stlarga munosabat, 9) o‘tmishiga munosabat, 10) qarama-qarshi jins vakillariga munosabat, 11) jinsiy hayotga munosabat, 12) oilaga munosabat, 13) xodimlarga munosabat, 14) onaga munosabat, 15) aybdorlik hissi kabi jihatlarni aniqlashga imkon beradi. Metodika tugallanmagan 60 ta jumlani o‘z ichiga olgan. Ushbu usuldan foydalanish davomida olingan katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash muayyan qiyinchiliklar mavjud. Aniqroq qilib aytganda, sinaluvchilar tomonidan tabiiy tilda taqdim etilgan javoblar to‘plamini statistik usullar bilan “to‘g‘ridan-to‘g‘ri” qayta ishlash imkoniyati yo‘q. Asosan, sifat tahlili o‘tkazildi, ya’ni matnni tushunishda har bir javobni ma’lum shkala bo‘yicha baholab, tahlil qilindi.

Tadqiqotimizda ishtirok etgan 176 nafar talaba yoshlar javoblari tahlili amalga oshirildi. Shuni alohida aytish kerakki, biz tomonimizdan tanlangan ushbu metodika maktab o‘quvchilarida o‘tkazilmadi.

Javoblarni tahlil qilishda “hissiy yaxshi”+1, “juda yaxshi”+2 va “hissiy noma’qul”-1, “juda yomon” -2, neytral 0 javoblar baholandi. Bunda jumalarning berilgan vaziyatga ijobiy, salbiy yoki neytral munosabatidan kelib chiqib yondashildi. Xavotir, qo‘rquv, g‘azab, va boshqa salbiy his-tuyg‘ularni boshdan kechirganligini ko‘rsatadigan javoblarni “hissiy jihatdan noma’qul”, deb hisoblash mumkin deb o‘ylaymiz.

**Tugallanmagan gaplar metodikasi bo'yicha eng "hissiy yaxshi" va
"hissiy noma'qul" javoblar namunalari**

Jumla	"hissiy yaxshi"	"hissiy noma'qul"
Mening otam kamdan kam...	Urishadilar	Kulib qaraydilar
Agar hamma menga qarshi chiqadigan bo'lsa...	Olohgga ishonaman, haqligimni isbotlayman	O'z fikrimda qolmayman, odamlarning fikri menga qiziqmas
Men doimo...	Odamlarga yaxshi bo'lishini	Tinch qo'yishlarini, aralashmasliklarini
Menga savol berishsa...	Har doim javob qaytaraman	Javob berishga majburmasman, xohlamayman
Agar men rahbarlik pog'onasiga chiqadigan bo'lsam...	Mas'uliyatli bo'lardim; adolat o'rnatardim; o'z ustimda ishlardim	Dushmanlarimga ko'rsatib qo'yardim.
Kelajak menga go'yo ...	Yaxshi hodisalarga to'la	Qo'rqinchli, xavotirli
Yomonligini bilaman ammo...	Yaxshi narsalarga ishonaman	Jahl qilaman, o'zimni qo'lga olishim qiyin
Haqiqiy do'st...	Doim yaxshilikni o'ylaydi	Kulfatda birga
Men uchun ideal odam...	Onam, o'qimishli, jiddiy, mas'uliyatli	
Agar ayollarni erkaklar bilan birga ko'rsam...	Do'st hamkasb, yaqin inson deb o'ylayman	Ko'nglim ayniydi
Boshqa oilalar bilan taqqoslaganda mening oilam...	Juda yaxshi, hamjihat	Yomon
Mening uchun eng yaxshisi ...	Do'stlarim, farzandim, men o'zim	Yolg'izlik
Men va mening onam ...	Sirdoshim	Faqat tanbeh beradi, qo'rqitadi
Men unutish uchun barchasiga tayyorman...	Ilmli bo'lishga	O'ldirishga (suitsid)
qobiliyatga egaman...	Hamma narsa qo'limdan keladi, tika olaman, SMMchilik	"qobilyatsizman",
men juda baxtli bo'lar edim ...	Pulim ko'p bo'lsa	AQShda yashasam
Mening maktabdagi o'qituvchilarim ...	Mehribon, meni eshitadi.	Hech narsani bilmaydi, jahldor
Men uchun eng muhim	Hamma narsaga erishish,	

hayotiy maqsadlar bu ...	biznes qilish, diplomat bo'lish, chet elda pul topish, mashinaga ega bo'lish	
Men insonning hayotini baxtli deb bilaman, agar...	Unda ko'p boylik bo'lsa, sog'liq bo'lsa, ota-onasi bo'lsa, sevgani bilan bo'lsa, birov bilan ishi bo'lmasa	
Agar menda cheksiz imkoniyatlar bo'lsa ...		
Insonlarni yoqtirmayman...		Aql o'rgatuvchi, osmonda o'zini tutadi
Ko'pchilik o'spirinlar va qizlar ...	Kiyinishni yaxshi ko'radi, qimmat telefon tutgisi keladi, hamma o'zini bilsa	
Insonda ajoyib qobiliyat bo'lsa, lekin yovuz yurak ...		Qasaskor bo'ladi, o'zim hukmron bo'lardim.
Mening oilam menga xuddi...	Xo'jayin	Yaxshi ko'rmaydi, befarq, ezma
Hayratga loyiq odam ...		
Men bilan birga ishlaydigan odamlar...	Menga yordam beradi	G'iybatchi, ochko'z, o'zini o'ylaydi
Mening onam..	Sodda, samimiy, yagona	kichik qizchaday ko'radi
Mening eng katta xatoyim...	Ishonuvchanligim	
Meni hech bo'lmaganda otam ...	Ishbilarmon, mehnatkash, duyoda yagona, meni tushunadi	Gaplasha olmayman, yo'q
Mening eng yaxshi tomonim...	O'zimni xafa qilmasligim	Uddaburonligim, vafodorman, yo'q deya olmayman, buyurilgan ishini bajaraman, boshqalarga yordam berish
Globus mening kaftimga sig'sa ...	Dunyoni xohlagan joyiga borardim, sayohat qilaman.	Boshqa joyda yashayman, xohlagan mamlakatni tanlardim

Yoshlarning umumiy holdagi xavotirlanish darajasini “noma’qul” javoblarning ko‘pligidan aniqlash mumkin.

Yoshlar javoblaridan, otaga munosabatda xafachilik, norozichilik; o'ziga munosabatda ishonchsizlik, yoki haddan tashqari o'ziga bino qo'yish; amalga oshmagan imkoniyatlarda o'zgalarni, ayniqsa, ota-onani ayblash, bo'ysunuvchilarga munosabatda salbiy qarashlar (hech narsaga yaramaydigan) kelajakka munosabat (hayajon, yaxshi kutishlar, ishonchsizlik), mansabdorlarga munosabat (tanish-bilishi ko'p, puli ko'p), qo'rquvlar va xavflar (imkoniyat bitta beriladi, oldinga qarab yurish kerak), do'stlarga munosabat (vafodorlar kam, sotqin), o'tmishiga munosabat (xato), qarama-qarshi jins vakillariga munosabat (hammasi bir xil), jinsiy hayotga munosabat (yengil-yelpi), oilaga munosabat (o'quvchilarda yengil, talabalar o'ylaydi), xodimlarga munosabat (qattiqqo'l bo'lish muhim), onaga munosabat (ijobiy, onam sodda, himoyaga muhtoj deb qarash), aybdorlik hissi (atrofdagilar aybdor) mazkur qarashlardan, bugungi ijtimoiy tarmoqlarning yosh foydalanuvchilarida insonparvarlik g'oyalarini, dunyoni murakkabliklardan iborat deb qarashlarini, ilohiy kuchlarga ishonishini, muvaffaqiyatlarga qiyinchiliklar orqali erishiladi, oilaviy munosabatlar ikkinchi darajali, o'z qarashlari birinchi o'rinda deb qarash mavjudligini ko'rish mumkin. Mazkur holatlar internetning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri bir tomondan yaxshi, lekin ikkinchi tomondan qaraganda, milliy qadriyatlarning o'zgarishiga salbiy ta'sirini o'tkazayotganligini bildiradi.

Tadqiqot davomida L.N.Silantiyevaning "Qadriyat yo'nalishlari va shaxs yo'nalganligini aniqlash" metodikasidan foydalanildi. Mazkur metodikani asosiy maqsadi yoshlarda asosiy qadriyatlar mazmunini aniqlash va ularning yo'nalganligidagi farqlarni o'rganishdan iborat.¹⁵ Metodika maktab o'quvchilari orasida hamda oliy ta'lim talabalari orasida ham o'tkazildi. Natijalar quyidagicha tahlil qilindi. 11-15 yoshli o'smirlarda birinchi navbatda sevimli bo'lish (65)-29 %; ikkinchi o'rinda Tarbiyalanganlik va yaxshi xulqqa ega bo'lish (21)-9 %; uchinchi o'rinda Insonni sevish (38) - 17%; Seni tushunishlari (28)-12 % to'rtinchi o'rinda tanlangan. Beshinchi o'rinda o'smirlar Ajoyib va mantiqiy fikrlay olish (19 nafar o'quvchi- 8%) ni; Maqsadga intiluvchanlik (26)

¹⁵ Коджаспирова, Г.М. Педагогика: практикум и методические материалы: учеб. пособие для студентов педагогических училищ и колледжей / Г. М. Коджаспирова. – М.: ВЛАДОС, 2003. – 416 с.

-11% beshinchi o'rinda va oltinchi o'rinda Atrofdagilar bilan kirishimli bo'lish (29)- 13% tanlanganlini aniqlandi.

7-jadval.

Yoshlarda qadriyat yo'nalishlari va shaxs yo'nalganligining namoyon bo'lishi ko'rsatkichlari

11-15 yoshlilarda (n-226)		16-18 yoshlilarda (66)		19-24 yoshlilarda (104)	
Qadriyat yo'nalishlari	Shaxs yo'nalganligi	Qadriyat yo'nalishlari	Shaxs yo'nalganligi	Qadriyat yo'nalishlari	Shaxs yo'nalganligi
1.Sevimli bo'lish (65)-29 %	O'ziga (65)-29 %	1.Sevimli bo'lish 33- 50% sog'lom bo'lish (14) -22%	O'ziga (47) -72%	1.Sog'lom bo'lish (39) -38% sevimli bo'lish (22)- 21%	O'ziga (61)-59%
2.Tarbiyalanganlik va yaxshi xulqqa ega bo'lish (21) -9 %	Munosabatlarni saqlashga (21) - 9 %	2.O'ziga ishongan bo'lish (44) -63%	O'ziini tasdiqlashga (44) -63%	2.O'ziga ishongan bo'lish (55) -53%	O'zini tasdiqlashga (55) -53%
3.Insonni sevish (38) - 17%	O'zgaga (38)- 17%	3.Keng muloqot doirasiga ega bo'lish (12)-18%	Guruhga (12)- 18%	3.Maqsadga intiluvchanlik (32) -31%	Faoliyatga (32)- 31%
4.Seni tushunishlari (28)-12 %	Ajralib turish (28)-12 %	4.Tarbiyalanganlik va yaxshi xulqqa ega bo'lish (11) -17%	Munosabatlarni saqlashga 11) - 17%	4.O'z tamoyillari asosida yashash (22) - 21%;	O'zini o'zi rivojlantirishga (22) - 21%;
5.Ajoyib va mantiqiy fikrlay olish (19) - 8%	Obyektlarga (19) - 8%	5.Odamlarga yordam berish (10) -15%	O'zgaga (10)- 15%	5.Tarbiyalanganlik va yaxshi xulqqa ega bo'lish (18) -13%	Munosabatlarni saqlashga (18)- 13%
6.Maqsadga intiluvchanlik (26) - 11%	Faoliyatga (26)- 11%	6.Ajoyib va mantiqiy fikrlay olish (16) - 25%	Obyektlarga (16) -25%	6.Jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish (19) - 18%	Shaxsiy pozitsiyasini saqlashga (19)- 18%
7.Atrofdagil	Guruhga	7.Maqsadga	Faoliyatga		

ar bilan kirishimli bo'lish (29) - 13%	(29)- 13%	intilish (8) -12%	(8) - 12%		
---	-----------	----------------------	-----------	--	--

Tadqiqotimizda 16-18 yoshli o'smirlardan 66 nafarining test natijalari yaroqli bo'lganligi tufayli natijalarini tahlil qilishni lozim topdik. 11-15 yoshlilarga qaraganda ularda farqlar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Ilk o'smirlik yoshidagi o'quvchilar qadriyatlarini tizimidan farqli ravishda 16-18 yoshlilarda Sevimli bo'lish 33-50% va sog'lom bo'lish (14)-22% birinchi o'rinda belgilangan. Ikkinchi o'rinda – o'ziga ishongan bo'lishlilik tanlangan (63%). Ushbu natija bu yoshdagilar uchun o'zini jamiyatda tasdiqlanishiga ehtiyojlari shakllanib kelayotganligidan darak beradi va bu holat tabiiyki ularning yosh xususiyatidan kelib chiqadi. Bu taraqqiyot davrining mazmuni birinchi navbatda ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi. Yoshlarning jamiyatda tutgan o'rni, ularning mavqeyi bir qator boshqa faktorlar ijtimoiy sharoitlarga bog'liqdir. Keng muloqot doirasiga ega bo'lish (18%) uchinchi o'rinda tanlangan bo'lib, bu ham shaxsning atrofdagilarga yo'nalganligini asoslaydi. Tarbiyalanganlik va yaxshi xulqqa ega bo'lish qadriyat sifatida to'rtinchi o'rinda va bu yoshdagi o'smirlar shaxsining munosabatlarni saqlashga yo'nalganligini anglatadi. 11-15 yoshlilarda odamlarni sevish bilan 3-o'rinda turgan bo'lsa, 16-18 yoshlilarda odamlarga yordam berish (15%) 5-o'rinda tanlangan. Ajoyib va mantiqiy fikrlay olish (25%) qadriyatini 6 o'rinda tanlashib, shaxsning obyektlarga yo'nalganligi darajasi ham pasayishini kuzatish mumkin. Faoliyatga yo'nalganlik darajasi eng pastki 7-o'rinda belgilangan. Yuqoridagi natijalarga tayanib mazkur guruh o'ziga yo'nalganlik, faoliyatga past darajada va atrofdagilar bilan munosabatlarni saqlab qolishga o'rta darajada yo'naltirilgan deyishimiz mumkin.

19-24 yoshli sinalluvchilarimiz natijalarida yuqori darajada o'ziga, o'zini tasdiqlashga yo'nalganlikni ko'rsatishgan va keyingi darajada faoliyat, maqsadga intilish qadriyati bilan baholanmoqda. Har xil faoliyat turlari yoshning qiziqishlari tomonidan saralanadi va baholanishidan kelib chiqib,

ularning o‘z kelajagi haqida qayg‘urish holatlarini namoyon bo‘lishini anglash mumkin. O‘z tamoyillari asosida yashash, tarbiyalanganlik va yaxshi xulqqa ega bo‘lish, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishni qadriyat sifatida tanlagan talabalar guruhi natijalaridan ularning ko‘proq faoliyatga, shaxsiy o‘zini o‘zi rivojlantirishga, munosabatlarni saqlashga va shaxsiy pozitsiyasida turishga yo‘nalganligi kamroq ahamiyatga ega ekanligini kuzatish mumkin. Nazarimizda, talabalar oriyentatsiyasi o‘ziga qaratilgan deb ularga tavsif berish mumkin. 16-18 yoshlilarda keng muloqot doirasiga ega bo‘lish tarbiyalanganlik va yaxshi xulqqa ega bo‘lish odamlarga yordam berish kabi qadriyatlar ahamiyati talabalar guruhiga qaraganda yuqoriroq darajaga ega. Natijalar Fisher mezoni bo‘yicha hisoblanganda ishonchlilik darajasi $r=0,01$ ahamiyatli bo‘lib, $\varphi^*= 2,159$ teng. Mazkur ko‘rsatkich sinaluvchi guruhlar orasida farqlar minimal darajada mavjudligini anglatadi.

Xulosa o‘rnida shuni takidlash kerakki, zamonaviy yoshlar qadriyatlari shakllanishiga yosh xususiyatlari, vertual muloqot muhiti va ijtimoiy qadriyatlar ta’sir ko‘rsatadi va ularning qadriyatlari mazmuni va yo‘nalganligi bo‘yicha tafovutlanadi. Talabalar uchun qadriyatlar o‘ziga va o‘zini rivojlantirishga, o‘z pozitsiyasini saqlab qolishga, maktab o‘quvchilarida o‘ziga va atrofdagilar bilan munosabatga kirishishga qaratilgan.

8-jadval.

O‘smirlar va yoshlardagi psixologik muammolarni hal qilishda internet resurslaridan foydalanish (Fisher mezoni bo‘yicha)

Respondentlar	Javoblar soni	Internetdan foydalanish (%)		Asosiy maqsad turi (%)		
		foydalanish	foydalanmaydigan	Emotsional ehtiyoj	Muammoni hal qilish	Ijtimoiy yordam
o‘smirlar	292	80.3	19.7	51,0	22.8	6.5
yoshlar	109	96.7	3.3	45.4	33.5	17.8
Farqlar sezilarli $r<0.05$ da		$\varphi =6,64$ $r=0.01$	$\varphi =6,68$ $r=0.01$	$\varphi =1,15$ $r=0.26$	$\varphi =4,84$ $r=0.01$	$\varphi =3,45$ $r=0.01$

O‘smirlar va yoshlar tomonidan qo‘llaniladigan Internetdan foydalanish psixologik muammolarni hal qilish strategiyalarining chastotali tahlili

ma'lumotlari 1 va 2-jadvallarda keltirilgan. Farqlarning ahamiyati nisbatan ko'rsatkichlarni solishtirish uchun Fisher mezonini yordamida baholandi.

O'smirlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovdan 104 ta sinachilarning 321 ta javobi tahlil qilindi. Ularning aksariyati internetdan psixologik muammolarni hal qilish uchun manba sifatida foydalanadilar. O'smirlar hissiy jarayonlarni boshqarishda ham internetdan ko'proq foydalanadilar.

Maktab o'quvchilari talabalarga qaraganda emotsional holatlarini boshqarishda internetda qo'yiladigan filmlardan foydalanishsa, muammolarini yechimini topish va ijtimoiy yordam, qo'llab-quvvatlash uchun foydalanishadi, deb aytish mumkin. Maktab o'quvchilaridan ko'ra internet resurslaridan talabalar nisbatan ko'p foydalanishlari aniqlandi. Albatta, bunday holatga ko'plab omillar ta'sir qiladi, jumladan, o'quv-axborot ma'lumotlarini qidirish, megabaytlari ko'proq bo'lishi, do'stlar va tanishuvlarning ko'p bo'lishi va, asosan, o'qish uchun harakat qilishi tufayli talabalar o'z vaqtini internetga sarf qilishadi.

Respondentlarning 61 nafari (20,9%) muammolarini yengish uchun internetdan foydalanmaydi, muammolarini va hayotiy keyslarini boshqarish yechimini topishning boshqa usullarini ko'rsatishgan. Masalan: "Onam bilan gaplashardim", "Kutardim", "Men uy vazifamni qila boshlardim", "Uxlayman", "Ovqatlanardim". Ba'zida ma'lumotlarga ishonchsizlik va ushbu internet maydoniga yaroqsizligi alohida ta'kidlanadi:

9-jadvalimizda yoshlarni internetdan foydalanish maqsad va usullari keltirib o'tilgan, bunda hissiy-emotsional ehtiyoj maqsadida;

- vizual kontent (filmlar va boshqalar) eng ko'p tanlangan vosita sifatida jami o'smirlarning 23.3 foizi, yoshlarning 20.7 foizi ushbu tanlovni tanlashgan. Haqiqatdan ham, yoshlarimizni dunyoqarashini o'zgarishiga film va roliklarning ta'siri juda kattaligi sir emas. Audio kontent (musiqqa) tanlovi eng ko'p tanlangan ikkinchi vosita sifatida jami o'smirlarning o'rtacha 12.8 foizi, yoshlarning esa 13.4 foizi ushbu tanlovni tanlashgan. Bundan ko'rinib turibdiki, yoshlarimizning dunyoqarashiga ta'sir qiluvchi manba internetdagi musiqalar deyish mumkin.

